

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

X. R. MATYOQUBOV, J. K. TOJIYEV

TEXNOLOGIYA VA DIZAYN
amaliy mashg`ulotlar
(Uslubiy qo`llanma)



TOSHKENT-2019

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
SAN`ATSHUNOSLIK FAKULTETI
MEHNAT TA'LIMI KAFEDRASI**

X. R. MATYOQUBOV, J. K. TOJIYEV

**TEXNOLOGIYA VA DIZAYN
amaliy mashg`ulotlar
(Uslibiy qo`llanma)**

TOSHKENT-2019

Ushbu uslubiy qollanma Urganch davlat universiteti o`quv – uslubiy kengashining 2019 yil dekabrdagi № sonli yig`ilishida ko`rib chiqilgan va tasdiqlanib nashrdan chop qilishga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

Mehnat talimi kafedrasи dotsenti Yaqubov X. Q

XTXQTMOHM “amaliy fanlar va mактабдан ташқари та’лим методикаси” кадедра мудирине Kenjayev SH. M.

Ushbu uslubiy qo`llanmada “Texnoogiya va dizayn” fanidan amaliy mashg`ulotlarni bajarishga oid materiallar yani, texnologiya va dizayn fanining maqsad va vazifasi, yog`ochdan tayyorlanadigan buyumlar va mahsulotlarga xomashyo tanlash va tayyorlash texnologiyasi, yog`ochdan tayyorlanadigan buyumlar va mahsulotlarga xomashyo olishda yog`och materiallarini quritish texnologiyasi, metaldan tayyorlanadigan buyumlarga xomashyo tanlash va tayyorlash texnologiyasi, plastmassa va polimer asosli buyumlarni tayyorlashda xomashyo tanlash va tayyorlash texnologiyasiga oid amaliy mashg`ulotlarni bajarish bo`yicha nazariy va amaliy ma`lumotlar keltirilgan va yoritib berilgan. Ushbu uslubiy qo`llanma Oliy ta’lim muassasalari texnologik ta’limi yo`nalishi professor o`qituvchilari va talabalari uchun mo`ljallangan.

Mundarija:

Kirish.....	6
I. BOB. Texnologiya dizyn fanining nazariy asoslari, ilg`or texnologiyalar, fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari.....	9
I. 1 Texnologiya va dizayn fanining maqsadi va vazifalari. Texnologiya va dizayn tushunchasi.....	9
I. 2. Texnologiya va dizayn fanining nazariy asoslari, ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg`or texnologiyalar bilan talabalarni tanishtirish. Fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari.....	11
I. 3. Ishlab chiqarishda buyumlar tayyorlashning funksionl vazifalari haqida talabalarni bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollanitirish hamda talabalarda texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish. Buyum turlari va tushunchalari.....	25
I. 4. Yog`och xomashyo tayyorlash to`g`risida asosiy tushunchalar. Buyum yasash texnologiyasi va yasalgan buyumning sifati, ishlatilgan materialning xossalariiga bog`liqligi.....	29
I. 5. Konstruksion material sifatida qurilishda, mebel va duradgorlik buyumlarida, sport buyumlarida, musiqa asboblarida, ro`zg`or asbob-anjomlari ishlab chiqarishda buyumlarga xomashyo tanlash.....	42
II. BOB. Yog`ochga ishlov berish texnologiyasi, yog`ochdan tayyorlanadigan xomashyolar.....	48
II.1. Rossiya va uzoq sharq yerlarida o`stiriladigan daraxtdan tayyorlangan yog`och turlari va xomashyosi, ularning o`rnini bosadigan mahalliy daraxt turlari.....	48
II. 2. Yog`ochdan tayyorlanadigan buyumlar va mahsulotlarga xomashyo tanlash va tayyorlashda yog`och materiallarning xossalari va ishlatilishi.....	52
II. 3. Yog`och xomashyodagi nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, yog`och turlarini gruhlarga bo`lish. Tanlangan xomashyoning har xil mixlarni ushlab turish xususiyatlari.....	60
II. 4. Yog`ochni quritish to`g`risida asosiy malumotlar, yog`ochni quritishning asosiy maqsadi, yog`ochni ochiq joyda quritish, ochiq joyda quritishni tashkil etish va amalga oshirish, ochiq joyda quritish usullarining avzalligi va kamchiliklari.....	72
II. 5. Yog`ochni sunniy quritish, sunniy quritish turlari, quritish kameralari va sushilkalarning xillari, ulardan foydalanish mexanizmlari.....	82
II. 6. Zamonaviy gidrotermik ishlov berish orqali ularni quritish, termoyog`och materialini olish texnologiyasi.....	85
III. BOB. Metal, plastmassa va polimerlarga ishlov berish texnologiyasi...	92

III. 1. Cho`yan, po`lat va rangli metalldan tayyorlangan quymalar, bolg`alangan va shtamrejagan xomashyo.....	92
III. 2. Po`latdan sovutilgan va qizdirilgan hollarda tayyorlangan prokatlar va rangli metall-prokatlari. Bolg`alash yordamida egilishga, cho`zilishga buralishga ishlovchi va ko`ndalang kesimi bo`yicha o`lchamlarida farq bo`lgan metall xomashyolar.....	99
III. 3. Xomashyoning turilari, materialiga, shakliga, detalning xizmat vazifasiga va mashinalarda yig`ilgan holda ishslash shart-sharoitlariga bog`liqligi, shakldor detallar tayyorlash jarayonida cho`zilish va egilish ta'sirida ishlatiladigan cho`yanlar.....	103
III. 4. Katta o`lchamli detallar uchun donali va kichik seriyali ishlab chiqarish sharoitida yoki boshqa hollarda kichik detallar uchun xomashyo tanlash. Shtamrejagan xomashyo, tunika. Aylana, kvadrat, olti burchakli prokatlardan tayyorlangan xomashyo tanlash.....	111
III. 5. Yuqori molekulyar kimyoviy brikmali polimerlar, sintetik smolalar, polimerlanish smolalari, termoplastik, termorefaol plastmassali buyumlar tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo.....	119
III. 6. Qurilishda va mebellar ishlab chiqarishda tabiiy holida yoki qayta ishlangan holida qo`llaniladigan smolalar, bakelitlangan fanerlar, yog`och-qatlamli va qog`oz-qatlamli plastiklar tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo (fenoplastlar) tayyorlashda ishlatiladigan polikondensatsiyalashgan sintetik smolalarni tanlash.....	124
III. 7. Rezorsin-formaldegid smola, karbomid smolalar, poliefir smolalar, epoksid smolalar tarkibi va xossalari, buyumlar tayyorlashda ularni ishlatilish sohalari.....	130
III. Foydalanilgan adabiyotlar.....	136
IV. Ilovalar	137

KIRISH

Respublikamiz hukimati va prezidenti olib bjurayotgan siyosiy iqtisodiy siyosatda davlat faoliyatining barcha soxalarini rivojlantirishga, ayniqsa, yosh avlodni milliy tiklanish g'oyasi ruxida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda talim olayotgan yoshlar xalqimizning kelajagi xisoblanadi. Bu sharaflı vazifani bajarish oqituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuqori malakali oqituvchilar taylorlash va ularning malakasini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda .

Hozirgi davrda oliv ta'lif o'quv yurtlarida va kasb hunar kollejlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va zamonaviy o'quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish muoammolariga qaratilgan bir necha diqqatga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Fan-texnika taraqiyoti natijasida sanoatning mashinasozlik va metallarga ishlov berish sohalarida yuz berayotgan chuqur sifat ozgarishlari ishlab chiqarish malakalariga oshirilgan talablar qoyadi. Shu munosabat bilan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zaruriyati tug`ildi.

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotining yangi yo`lida fan va ta'lif sohalariga innovatsiya g`oyalarni tatbiq etish zarurati 2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o`z aksini topgan. Jumladan, «Ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish»¹ ta'kidlangan .

Umumtalim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo`nalishlariga muvofiq malakali ishchi kadrlarni rejali ravishda yetishtirishning asosiy shakli sifatida kasb-hunar talimi tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlarga umumiy kasb ta'limi berishga o'tishni amalga oshirishda uning rolini oshirish vazifasi qo`yilgan .

Prezidentimiz SH. Mirziyoevning asarlarida “ta'lif va ma'rifat tizimini takomillashtirish mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yahshi anglaymiz” deya ta'kidlagan².

Maktab islohoti umumtalim va hunar maktablarining ishini sifat jihatidan

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi 4947-sod farmonining 1-ilovasida keltirilgan «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi».[Elektron resurs]. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>.

² SH.Mirziyoev “Milly taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz”. – Toshkent: O'zbekiston. – 2017. – B 31.

yangi pog'onaga ko'tarish, uning faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish, o'quvchilarning fan asoslarini chuqr egallashini ta'minlash, ularda chuqr vatanparvarlik e'tiqodni, texnologiyalarga qiziqishni, axloqiy soflikni shakllantirish, mustaqil vatanimizga muhabbat va uni himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

O'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil boyitish va ilmiy hamda siyosiy bilimlarning shiddatli oqimida mo'ljal bilan ish tutish uquvini singdirish muhimdir. Hozirgi ishchilarning faoliyati uning kasbiy mahoratiga aniq talablar qo'yadiki, ularning eng muhimlari quyidagilar: chuqr umumta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik; kasbiy faoliyatning to'xtovsiz ravishda takomillashib borishi va uning natijasi-texnologiya unumdorligining o'sishida va bajarilayotgan ishlarning sifatini oshirishda yuqori natijalarga erishish, o'z bilimini o'zi muntazam ravishda oshirib borishi, novatorlar va ishlab chiqarish ilg`orlarining ijobiy tajribalarini qidirish, o'rghanish va ulardan ijodiy foydalanishdir. Shu boisdan ishlab chiqarish faoliyati jarayonida bilimlarni to'xtovsiz chuqurlashtirib borish bizning davrimizning eng muhim, ajralmas belgilaridan biri bo'lib qoladi. Talabalarga bilimlarning biror minimumini berishgina zarur bo`lib qolmasdan, balki ularga yangi qiyin muammolarni mustaqil hal etishga o`rgatish, haqiqiy novator bo`lish, mustaqil bilim olishga o`rgatish ham zarurdir.

Shu nuqtai nazardan ushbu o'quv qo'llanmada Oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan texnologiya ta'limi yo'nalishi talabalariga texnologiya va dizayn fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'rghanishda texnologiya va dizayn fanining maqsadi va vazifalari, texnologiya va dizayn tushunchasi, texnologiya va dizayn fanining nazariy asoslari, ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg`or texnologiyalar bilan talabalarni tanishtirish, fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari, ishlab chiqarishda buyumlar tayyorlashning funksionl vazifalari haqida talabalarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollanitirish hamda talabalarda texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish, buyum turlari va tushunchalari, yog`och xomashyo tayyorlash to`g`risida asosiy tushunchalar, buyum yasash texnologiyasi va yasalgan buyumning sifati, ishlatilgan materialning xossalari bog`liqligi, konstruksion material sifatida qurilishda, mebel va duradgorlik buyumlarida, sport buyumlarida, musiqa asboblarida, ro`zg`or asbob-anjomlari ishlab chiqarishda buyumlarga xomashyo tanlash, Rossiya va uzoq sharq yerlarida o'stiriladigan daraxtdan tayyorlangan yog`och turlari va xomashyosi, ularning o`rnini bosadigan mahalliy daraxt turlari, yog`ochdan tayyorlanadigan buyumlar va mahsulotlarga xomashyo tanlash va tayyorlashda yog`och materiallarning xossalari va ishlatilishi, yog`och xomashyodagi nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, yog`och turlarini gruhlarga bo`lish. tanlangan xomashyoning har xil mixlarni ushlab turish xususiyatlari, yog`ochni quritish to`g`risida asosiy malumotlar,

yog`ochni quritishning asosiy maqsadi, yog`ochni ochiq joyda quritish, ochiq joyda quritishni tashkil etish va amalga oshirish, ochiq joyda quritish usullarining avzalligi va kamchiliklari, yog`ochni sun'iy quritish, sun'iy quritish turlari, quritish kameralarini va sushilkalarning xillari, ulardan foydalanish mexanizimlari, zamonaviy gidrotermik ishlov berish orqali ularni quritish, termoyog`och materialini olish texnologiyasi, cho`yan, po`lat va rangli metalldan tayyorlangan quymalar, bolg`alangan va shtamplangan xomashyo, po`latdan sovutilgan va qizdirilgan hollarda tayyorlangan prokatlar va rangli metall-prokatlari, bolg`alash yordamida egilishga, cho`zilishga buralishga ishlovchi va ko`ndalang kesimi bo`yicha o`lchamlarida farq bo`lgan metall xomashyolar, xomashyoning turilari, materialiga, shakliga, detalning xizmat vazifasiga va mashinalarda yig`ilgan holda ishlash shart-sharoitlariga bog`liqligi, shakldor detallar tayyorlash jarayonida cho`zilish va egilish ta`sirida ishlatiladigan cho`yanlar, katta o`lchamli detallar uchun donali va kichik seriyali ishlab chiqarish sharoitida yoki boshqa hollarda kichik detallar uchun xomashyo tanlash. shtamplangan xomashyo, tunika, aylana, kvadrat, olti burchakli prokatlardan tayyorlangan xomashyo tanlash, yuqori molekulyar kimyoviy birikmali polimerlar, sintetik smolalar, polimerlanish smolalari, termoplastik, termoreaktiv plastmassali buyumlar tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo, qurilishda va mebellar ishlab chiqarishda tabiiy holida yoki qayta ishlangan holida qo'llaniladigan smolalar, bakelitlangan fanerlar, yog`och-qatlamlili va qog`oz-qatlamlili plastiklar tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo (fenoplastlar) tayyorlashda ishlatiladigan polikondensatsiyalashgan sintetik smolalarni tanlash, rezorsin-formaldegid smola, karbomid smolalar, poliefir smolalar, epoksid smolalar tarkibi va xossalari, buyumlar tayyorlashda ularni ishlatilish sohalariga oid bilim ko`nikma va malakalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

I. BOB. Texnologiya dizyn fanining nazariy asoslari, ilg`or texnologiyalar, fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari.

I.1. Texnologiya va dizayn fanining maqsadi va vazifalari. Texnologiya va dizayn tushunchasi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu fanning maqsadi – bo`lajak mehnat ta’limi o`qituvchilarini o`z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalash, ularga yog`och va metallning xususiyatlari to`g`risida boshlang`ich bilimlarni, ularni rejlash, yo`nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari, qo`l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg`or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni hamda mustaqil o`zbekiston kelajagi bo`lgan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Ushbu fanning vazifasi – talabalarga yog`och va metallarni rejlash, yo`nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo`l va elektr asboblarining tuzilishini, ishlashini, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlarni, mashinalar elementlarini, texnologik xaritalarni tuzishni, dizayn talablari darajasidagi ro`zg`orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlashni, elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlashni, uy va xonadonlarni ta`mirlashda qo`llaniladigan zamonaviy qurilish materiallarini; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilishni, o`lchash va taqqoslash texnologiyalarini, mehnatni ilmiy tashkil etishni o`rgatishdan iborat. Ma’lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko`rinishini o`zining iste’moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnat faoliyatidan iboratdir. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o`zaro ma’lum munosabatda bo`ladilar.

Texnologiya tushunchasi ([yunon](#). “techno” - hunar, usta va “logos” — fan, ta’lim) - ilmiy-tajriba asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari.

Texnologiya - sanoat, qurilish, transport, qishloq xo`jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingen tizim, shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug’ullanadigan fan. Har bir sohaning o`ziga xos texnologiyasi bo`ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo`jaligi texnologiyasi va boshqa. Masalan qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig`indisidan tashkil topgan:

- yer ishlari (yerni tekislash, kotlovan va transheyalar qazish);
- poydevor yotqizish;
- devor tiklash (g`isht terish, panel o`rnatish);
- antiseysmik belbog`lar va temirbeton ustunlar ishlash;
- qavatlararo va tom yopmalarini montaj qilish, tom yopish;
- elektr, gaz va suv tarmoqlarini o`tkazish;
- pardoz ishlari va h. k.

Har qaysi operatsiyani o`ziga xos bajarish usullari bor. Masalan pardozlashda avval devor tekislanadi (mayaklar o`rnatiladi), qora suvoq, keyin toza suvoq qilinadi, so`ngra oqlanadi (bo`yoq beriladi) yoki gulqog`oz (oboy) yopishtiriladi.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo`lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino yoki inshoat va boshqalar) shunchalik sifatli bo`ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanib va o`zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipaviy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar va uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo`lishi lozim. Texnologiya mahsulot ishlab chiqarish uchun sanoat jarayonlarida foydalanuvchi materialning, xom-ashyonining yoki ayrim mahsulotning bichimini, o`lchamini, hususiyatini, shaklini o`zgartirish shartlaridan iborat. Hisoblanuvchi ishlab chiqarish, tashish, saqlamoq, nazorat qilish haqidagi ish-harakatlar ham umumiylashtirilishi bilan bir qatorda ishlab chiqarishning, xizmat ko`rsatishning, o`qitishning turli sohalariga innovatsiya texnologiyasi tushunchasi kiritilmoqda. Hozirgi vaqtida texnologiya:

- oldingi qatordagi texnologiya;
- qoldiqsiz texnologiya;
- ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi;
- xalqaro standartga mos texnologiyalarga bo`linadi.

Neft, gaz, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa texnologiyalar ishlab chiqarish talablariga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

“Texnologiya” - so`zi dastlab texnikaviy taraqqiyot bilan bog`liq holda amerikalik olimlar tomonidan 1872 yilda fanga olib kirilgan.

«Texnologiya» so`zi yunon tilidan olingan bo`lib, «techne» — san’at, mahorat, hunar «logos» — fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi

Pedagogik nuqtai nazaridan olib qaraganda texnologiya – bu shaxsni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o`zida mujassam qiladigan va yakuniy natijani ta`minlaydigan pedagogik faoliyatdir

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta`lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta`limda ko`zlangan natijalarga erishishni kafolatlaydigan pedagogikaning yo`nalishiga aytildi.

Aynan “texnologiya” atamasiga quyidagi “o`qitish texnologiyasi”, “ta`lim texnologiyasi”, “ta`limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta`riflar berilgan.

Ta`lim jarayonini “Texnologiyalash”- o`qituvchining shaxsiy mahoratiga bog`liq bo`lmagan holda universal tarzda loyihalanganligini bildiradi.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo`naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O`qitish texnologiyasi – o`quv mashg`ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarini oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo`llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o`qituvchi va talabaning vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Dizayn - (ing. design - loyiha, chizma, rasm) - narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi atamadir. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste`mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va o`rov materiallari, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi. Dizayn XX-asr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G`arbiy Yevropa va AQSHda shakllandi. 1980-yillarning 2-yarmidan dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizaynerlar rassom sezgisi bilan birga ilmiy fanlar (materialshunoslik, rangshunoslik va b.)ga tayanadi, ishlab chiqarish jarayoni va sharoitlari, sotsiologiya va boshqa bilimlarga ega bo`lishi lozim. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oliy o`quv yurtlarida tayyorlanadi. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ham interyerlar va sanoat grafikasi, libos dizayn bo`yicha mutaxassislar tayyorlanadi

I.2. Texnologiya va dizayn fanining nazariy asoslari, ishlab chiqarishda yangi texnika va ilg`or texnologiyalar bilan talabalarni tanishtirish. Fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbollari.

“Texnologiya va dizayn” fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar yog`ochlarning, metallarning texnologik xususiyatlari, to`g`risida boshlang`ich bilimlarini egallashi, ularni rejalash, yo`nish, kesish, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan asboblar, uskunalar, dastgohlar va qurilmalarning tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg`or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlari; elektr montaj ishlarida ish o`rnini tashkil qilish; elektr o`tkazish simlarining turlari; elektr o`tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlari; elektr asboblari; elektr o`tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishslash usullari; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi kerak, dizayn talablari darajasidagi ro`zg`orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlashni, ishlab chiqarish bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlari, uyushmalari va uning istiqbollari; buyum va mahsulotlarni tayyorlashda yig`ish va tayyor holga keltirish texnologiyasini, tayyorlangan buyum va mahsulotlarni bezash, pardozlash va dizayn berish texnologiyasi, buyum va mahsulotlarni tayyorlashda mehnat muxofazasi va texnika xavsizligi, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari va ulardan foydalanish texnologiyasi; nodir materiallar, asbob-uskuna, mahsulotlarini tashqi shakli uzbekligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko`ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg`unlashtirilgan mahsulot tayyorlash texnologiyasini ish usullarini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo`llay olishi kerak. Kishilar o`zlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o`zgartiradilar va iste`moli uchun zarur bo`lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat o`rtasida moddalar almashinuv bilan birga insonning o`zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya`ni kishilar o`zining mehnatga bo`lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo`llashni kengaytirib boradi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni iste`mol qiyatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakat, tabiat yaratgan narsalarni kishi iste`moli uchun o`zlashtirib olishi, kishi bilan tabiat o`rtasidagi modda almashuvining umumiyligi hamda kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan mahsulot turlari, takrorlanuvchanlik darjasasi va korxonani biror mahsulotni ishlab chiqarishiga

ixtisoslashtirilishiga ko`ra yakka, seriyali va ommaviy ishlab chiqarish turlariga bo`linadi.

Yakka ishlab chiqarish turida bir-biridan farq qiladigan buyumlar donalab tayyorlanadi. Ishlab chiqarishning bu turiga atelyelar va yakka tartibda buyurtma bilan kiyim tikuvchi ustaxonalar kiradi, ya`ni ishlab chiqariladigan mahsulot turi 1-2 donadan oshmaydi. Bunday ishlab chiqarish turida tayyorlanadigan buyumlar konstruktiv va texnologik jihatidan bir-biriga o`xshamaydi. Ularni tikishda qo`llaniladigan gazlama turlari, buyumni mavsumbopligi, o`lcham va bo`ylari, tashqi ko`rinishi boshqa modellardan farq qilib turadi.

Buyumni yakka tartibda ishlab chiqarish uchun quyidagi ishlar olib boriladi: buyurtmachidan o`lcham olish, unga mos modelni tanlash, asos konstruksiyasini tuzish, modellash, andoza tayyorlash, bichish, tikish usullarini tanlash va tartibini aniqlash, buyurtmachini gavdasiga moslash va ishlab chiqarish jarayoniga tushirish. Yakka ishlab chiqarishda texnologik jarayon ikki bosqichga ajratiladi: bichish va tikish. Bichish jarayonida buyum yakka holda donalab bichiladi. Bu usulni kamchiligi shundaki, andozalar orasidagi chiqindilar ko`p bo`lib, gazlamadan ratsional foydalanish imkoniyati bo`lmaydi. Bu esa buyumni tannarxiga ta`sir etadi. Yakka tartibda ishlab chiqariladigan buyumlarni tannarxi ommaviy ishlab chiqariladiganiga nisbatan ancha katta bo`ladi. Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining ikki katta sohasini – ishlab chiqarish (moddiy ishlab chiqarish) va noishlab chiqarish sohalarini o`z ichiga oladi. Ana shu sohalarning tarkibi, o`zaro munosabati va bir – biriga bog`liqligi mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasini tashkil etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining noishlab chiqarish sohasiga aholiga tibbiyot, madaniy – maishiy xizmat ko`rsatish, boshqarish, rejalashtirish va boshqa ijtimoiy zarur vazifalarni amalga oshiradigan tarmoqlar kiradi. Bu soha kishilarning mehnat sharoitini, turmushini yaxshilashga xalqning farovonligini yuksaltirishga katta ta`sir ko`rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining asosi og`ir sanoat bo`lib, u ishlab chiqarish vositalarining (materiallar, mashinalar, asbob – uskunalar, jihozlarning) ishlab chiqarilishini ta`minlaydi. Aholi uchun madaniy – maishiy va xo`jalikka mo`ljallangan xilma-xil tovarlarni tayyorlash bilan asosiy mahsulot chiqarishdan tashqari sanoatning istisnosiz barcha tarmoqlari shug`ullanadi.

Qishloq xo`jaligi sanoati aholini xom ashyo bilan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlaydi. U o`simlikshunoslik (dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, yem – xashak tayyorlash va hokazolar) hamda chorvachilik (qoramolchilik, qoychilik, parrandachilik, baliqchilik va hokazolar) ni o`z ichiga oladi.

Qurulishning vazifasi ishlab chiqarish binolari, inshoatlar, turar joylar, yo'llar, kasalxonalar, maktablar va boshqa ob'ektlarni qurish hamda qayta ta'mirlashdir. Transport, sanoat, qishloq xo`jaligi va boshqa qurilishlar bir-biridan farq qiladi.

Transport iqtisodiyot tarmoqlari va aholini xilma-xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz ravishda hamda o`z vaqtida ta'minlaydi.

Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish – xo`jalik faoliyatida, axolining madaniy – maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ro`l oynaydi. U axborotlarning uzatilishini ta'minlaydi va pochta, telefon, radio, televideniyeni o`z ichiga oladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasi to`xtovsiz takomillashmoqda. Masalan sanoatda energetika va mashinasozlikning yangi tarmoqlari vujudga kelmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning eng muhim yo`nalishi uning tarmoqlari strukturasini takomillashtirish – tarmoqlararo komplekslarni vujudga keltirishdir. Bunday komplekslarning bir necha turlari bor.

Mashinasozlik kompleksi mamlakat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini mehnat vositalari bilan ta'minlaydi, shunga ko`ra ularning rivojlanish sur`atini va ishlab chiqarish samaradorligini ham ko`p darajada belgilaydi. Bu kompleksga energetika, og`ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo`l va xizmat ko`rsatish mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elekrotexnika, elektron sanoat, asbobsozlik, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik kompleksini, birinchi navbatda dastgohsozlik, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarish, asbobsozlik kabi tarmoqlarni, elekrotexnika va elektron sanoatni jadal rivojlantirish ko`zda tutilgan. Fan-texnika taraqqiyoti eng avval mana shularning rivojlanish darajasida bog`liqdir.

Konstruksion materiallar ishlab chiqarish kompleksiga qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, o`rmon, selyuloza qog`oz va yog`ochni qayta ishslash qurilish materiallari sanoati kiradi.

Yoqilg`i – energetika kompleksi o`zaro bog`liq tarmoqlar (ko`mir, gaz, neft, neftni qayta ishslash sanoati, elektr energetika), korxonalar, qurulma va inshootlardan iborat bo`lib, ular yoqilg`i energetika resurslari (ko`mir, gaz, neft va boshqalar) ni qazib olish, tashish, qayta ishslash, elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni istemolchilarga yetkazish jarayonlarini o`z ichiga oladi.

Agrosanoat kompleksi – tarmoqlararo murakkab ishlab chiqarish – iqtisodiy tizim bo`lib, uchta asosiy sohani o`z ichiga oladi:

birinchisi – ishlab chiqarish vositalari unga traktor va qishloq xo`jalik mashinasozligi, chorvachilik va yem – xashak tayyorlash mashinasozligi, yengil va oziq – ovqat sanoati mashinasozligi, kombikorm va mikrobiologiya sanoati hamda sanoatning boshqa turlari kiradi;

ikkinchisi – bevosita qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi (o`simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlari, agrokimyo hamda veterinariya – sanitariya xizmati, mehnatkashlarning yordamchi xo`jaliklari);

uchunchisi – qishloq xo`jalik xom ashylolarini (oziq – ovqat, go`sht-sut, un-yorma va hokazolar) ni tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni ta'minlaydigan ishlab chiqarish tarmoqlari, shuningdek, maxsulotlarni realizatsiya qilish bilan bog`liq tashkilotlar.

Agrosanoat kompleksining asosiy vazifalari qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini uzlusiz o`stirishga erishish, mamlakatni oziq-ovqat maxsulotlari va qishloq xo`jalik xom ashylari bilan ishonchli ta'minlashdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarining o`zaro bog`liq hamda moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayiraboshlash va istemol qilish jarayonlarida o`zaro yordamlashadigan barcha tarmoqlari iqtisodiyot tarmoqlari kompleksiga birlashgan.

Yoqilg`i-energetika kompleksini samaraliroq rivojlantirish metallurgiyada va konstruksion materiallar ishlab chiqariladigan boshqa tarmoqlarda chuqur sifat o`zgarishlarini ta'minlash zarur.

Agrosanoat kompleksi tarmoqlarini jadal va mos holda rivojlantirish, qishloq xo`jaligining sanoat bazaga o`tishini tugallash, barcha qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini ancha o`stirishga erishish, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Yengil sanoatni va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlarni, transport va aloqani jadal rivojlantirish lozim.

Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan yoki istemolchilarga yetkazib beradigan hamma tarmoqlar kiradi. Sanoat, qishloq xo`jaligi va qurulishda jamiyat uchun zarur ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, materiallar, inshoot va hokazolar) hamda istemol mollari (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimlar, poyabzal va hokazolar) yaratiladi. Yuk transporti, ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish boyicha aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti tayyorlash va sotish ham moddiy ishlab chiqarish sohasiga kiradi, chunki bular mahsulotlarni yaratishga yordam beradi va ularni amaliy tadbiq qilinishini ta'minlaydi.

Rivojlantirish, qishloq xo`jaligining sanoatlashtirishni tugallash, barcha qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini oshirishga erishish, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashga mo`ljallangan.

Yengil sanoatni va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlar yani, transport va aloqani jadal rivojlantirish lozim.

Kapital qurilishni sifat jihatdan yangi industrial va tashkiliy darajaga ko`tarish rejalashtirilmoidagi, busiz iqtisodiyot tarmoqlarini texnik rekonstruksiyalash mumkin emas.

Mazkur mavzu yuzasidan quyidagi amaliy ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

1. O`quvchilar biladigan kasblarni va korxonalarda xizmat qiladigan muhandis-texnik xodimlar bajaradigan ishlarni: ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy-ma'rifiy, madaniy, texnik-texnologik, kasbiy-lavozimiylar jihatlarini maxsus topshiriq holatida bajarishlari lozim.

2. Tanlangan kasb yuzasidan korxonada, o`quv-ishlab chiqarish sohalari, mакtab ustaxonalarida, kasb-hunar kollejlar faoliyatlarida mavqeい, mazmuni, bajaradigan ishlari, mayjud ixtirolari, moddiy va ma`naviy asoslarini bitiruv ish holatida ishlab chiqish.

3. Korxonadagi ekskursiya vaqtida turli kasblardagi 3-4 toifali ishchi-mutaxassislar mehnatining mazmuni, malakasi va ma'lumot darajasi, bajarayotgan ishning turi, foydalanayotgan asbob-uskunalar, oladigan oyliklari, mehnatlarini qadrlaydigan mazmunini hamda boshqa ma'lumotlarini maxsus model yoki tizim holatiga keltirish zarur.

Tikish jarayoni bitta ishchi yoki bir-nechta ishchilar tomonidan bajariladi. Avval buyum birinchi o`lchab ko`rishga tayyorlanadi. Detallar ko`klab olinadi va buyurtmachi gavdasiga moslanadi, to`g`rulanadi va uning iltimosini hisobga olgan holda tayyorlanadi. Tikish jarayonida yuqori unumli mashinalar, avtomat va yarimavtomatlarni qo`llash chegaralanadi, chunki ularning quvvatlaridan ratsional foydalanish imkoniyati bo`lmaydi, qo`l mehnati ko`p ishlatiladi. Mehnatni mexanizasiyalashtirish darajasi past bo`ladi. Natijada buyumni yakka tartibda tikish vaqt omaviy tikish vaqtiga qaraganda 3-5 marta ko`p bo`ladi. Yakka tartibda ishlab chiqaradigan jarayonlarning texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari, mehnat unumdonorligi past bo`ladi.

Seriiali ishlab chiqarish turida ma'lum vaqt ichida bir necha xil bir turli buyumlarni kichik seriyalarda navbatma-navbat ishlab chiqariladi. Buyumlarni seriiali tayyorlashda avval bir kiyim to`pi ishlab chiqariladi, so`ng keyingi to`pga o`tiladi. Masalan, ayollar koylagi tikilgandan so`ng, ayollar kostyumi tikiladi. Bir to`p kiyimlarni tikib bo`lguncha texnologik jarayon o`zgarmaydi. Ishlab chiqarishning bu turida universal va maxsus mashinalar, presslar, moslamalar, zamonaviy asbob-uskunalar keng ishlatiladi, materiallardan va asbob-uskunalardan unumli foydalaniladi. Buyumlarni yakka tartibda ishlab chiqarishga nisbatan andozalar orasidagi va boshqa chiqindilar miqdori kamayadi, mehnat unumdonorligi oshadi. Bu esa mahsulotning tannarxini kamayishiga olib keladi va texnik-iqtisodiy

ko`rsatkichlari yuqoriroq bo`ladi. Bunday ishlab chiqarish turiga hozirgi kunda tashkil etilayotgan qo`shma korxonalar, xususiy tadbirkorlar tomonidan ochilayotgan kichik ishlab chiqarish korxonalari kiradi.

Ommaviy ishlab chiqarish turida doimiy ravishda ko`p miqdorda bir xil turdag'i buyumlar ishlab chiqariladi. Ommaviy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayoni ixtisoslashtiriladi. Bunda ishlab chiqarishni har bir bosqichi alohida sexlarda bajariladi: tajriba, tayyorlov, bichish, tikish va pardozlash sexlari. Bu esa barcha texnologik jarayonlarida yuqori unumli texnika va texnologiyadan keng foydalanish, avtomat va yarim avtomatlarni qo`llash, ishchilar orasida mehnatni ratsional taqsimlash, qo`l mehnatini qisqartirish, og`ir jismoniy mehnatni yengillashtirish, ishlab chiqarishni barcha bosqichlarini mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar yuqori darajada bo`ladi.

Hozirgi kunda O`zbekistonda ishlab chiqarishning seriyali turi ko`p qo`llanilmoqda. Chunki bunday ishlab chiqarish natijasida aholining zamonaviy buyumlarga bo`lgan ehtiyoji ko`proq qondiriladi hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlar savdo peshtaxtalarida ko`p turib qolmaydi.

“Ta’lim to`g`risida qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da uqtirib o`tilgandek, talabalarga zamonaviy politexnik ta’lim, mehnat tarbiyasini berish, kasb tanlashga yo`llash ishlarini o`rgatish, ularning bilim va kasbiy maxoratini hosil qilish muhimdir. Buning uchun maktablarda mehnat darslarini tashkil qilish uchun avvalo pedagogika oliy yurtlarida yaxshi jixozlangan o`quv jixozlari, laboratoriya va o`quv ustaxonalarini tashkil etishni va ulardan unumli foydalanishni o`rgatish kerak bo`ladi. Bo`lg`usi mehnat (Texnologiya) fanidan dars beruvchi o`qituvchi, oliy o`quv yurtlarida olgan tajribasi, bilim va ko`nikmalariga suyangan xolda dars beradilar.

Xozirgi vaqtida ish mehnat darsida ta’lim berish uchun darsliklar, o`quv qo`llanmalar yetishmaydi. Shularni nazarda tutib oliy pedagogik o`quv yurtlarida malakali mehnat o`qituvchisini tayyorlash uchun “Mehnat ta’limi praktikumi” darsining bir qismi bo`lgan “Tehnologiya va dizayn (Duradgorlik)” fanidan o`quv qo`llanma hamda Woodwork joints (The woodworker series) kitobidan foydalanildi.

Hamma joyda mehnatni ilmiy tashkil qilishni joriy qilish zarurligi ko`rsatib o`tiladi. Mehnatni ilmiy tashkil qilish yagona ishlab chiqarish jarayonida texnika bilan odamlarni eng yaxshi tarzda uyg`unlashtirishga va vaqt, kuch hamda mablag`larni eng kam sarflagan holda va mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanishga, yuqoriroq mehnat unumdorligiga erishishga imkon beradi. Ammo bunga talabalar mehnatni ilmiy tashkil qilishga oid bilimlarni nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan egallaganlaridan keyingina erishish mumkin.

Hozirgi vaqtida jismoniy va aqlin mehnatni tobora garmonik tarzda uyg`unlashtyrib olib boradigan yangi tipdagi ishlab chiqaruvchi odam o`sib etishmoqda; u kasbiy saviyasi keng va mahoratli, hozirgi ishlab chiqarishning

politexnik asoslarini chuqur biladigan, eng yangi mashinalar va texnologik jarayonlarni tez o`zlashtirib olishga qobiliyatli odamdir. YOshlar ishlab chiqarishga kelganlarida faqat ma'lum malakaga va fan asoslaridan bilimlar majmuiga ega bo`lib qolmasdan, balki mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirishda faol ishtirok qilishga, yuqori ish unumi va mahsulot sifati uchun kurashga yaxshi tayyorlangan bo`lishi kerak. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida sanoatning mashinasozlik va metallarga ishlov berish sohalarida yuz berayotgan chuqur sifat o`zgarishlari ishlab chiqarish malakalariga oshirilgan talablar qo`yadi. SHu munosabat bilan o`quv-tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zaruriyati tug`ildi, yoshlarga umumiy kasb ta'limi berishga o`tishni amalga oshirishda uning rolini oshirish vazifasi qo`yilgan, uning faoliyatida mavjud bo`lgan kamchiliklarni bartaraf etish, talabalarning fan asoslarini chuqur egallashini ta'minlash, ularda chuqur e'tiqodni, mehnatsevarlikni, axloqiy soflikni shakllantirish, vatanimizga muhabbat va uni himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Fan-texnika revolyusiyasi sharoitlarida ta'lim olayotganlarga ham, ta'lim berayotganlarga ham katta talablar qo`yiladi. Inson uchun zarur bo`lgan bilimlar hajmi keskin va tez o`sib borayotgan hozirgi sharoitlarda ma'lum bo`lgan narsalarnigina o`zlashtirib olishga suyanish kifoya qilmaydi. Talabalarga o`z bilimlarini mustaqil boyitish va ilmiy hamda siyosiy bilimlarning shiddatli oqimida mo`ljal bilan ish tutish o`quvini singdirish muhimdir.

Hozirgi yoshlarning faoliyati uning kasbiy mahoratiga aniq talablar qo`yadiki, ularning eng muhimlari quyidagilardir: chuqur umumta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik; kasbiy faoliyatning to`xtovsiz ravishda takomillashib borishi va uning natijasi – mehnat unumdorligining o'sishida va bajarilayotgan ishlarning sifatini oshirishda yuqori natijalarga erishish; o`z bilimini o`zi muntazam ravishda oshirib borishi, novatorlar va ishlab chiqarish ilg`orlarining ijobjiy tajribalarini qidirish, o`rganish va ulardan ijodiy foydalanish. SHu boisdan ishlab chiqarish faoliyati jarayonida bilimlarni to`xtovsiz chuqurlashtirib borish bizning davrimizning eng muhim, ajralmas belgilaridan biri bo`lib qoladi. YOshlarga bilimlarning biror minimumini berishgina zarur bo`lib qolmasdan, balki ularga yangi qiyin muammolarni mustaqil hal etishga o`rgatish, haqiqiy novator bo`lish, mustaqil bilim olishga o`rgatish ham zarurdir.

Yuqorida aytib o`tilgan talablarga muvofiq o`z kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan mustaqil ish qilish usulidir. To`la mustaqillik ko`rsatish asosida, ya'ni bilim va o`quvlarni tatbiq etish, o`z-o`zini o`qitish asosida, o`qituvchi yoki o`quv ustasining - bevosita rahbarligisiz amalga oshirilganidagina faol fikrlash faoliyati borligi to`g`risida so`z yuritish mumkin.

Talabalarni kasbiy bilimlar va ko`nikmalar bilan muvaffaqiyatli ravishda qurollantirish, ularda mehnat malakalarini shakllantirish zarur bo`lib qolmasdan,

balki ularning texnik fikrlashini o`stirish, ishda tashabbus ko`rsatishni va mehnatga ijodiy yondoshuvni tarbiyalash ham zarurdir.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslarini bilish hozirgi yoshlarning yuqori malakasiga qo`yiladigan eng muhim talablardan biridir, u kerakli kasbiy bilimlar, malaka va o`quvlarni, ratsional mehnat bilimlari va usullarini egallashga imkon beradi.

Bizning davrimizda faqat intizomli bo`lib, hafsala bilan ishlash kifoya qilmaydi, vijdon bilan, uddaburonlik bilan samarali, chiroyli ishlash kerak. Talabalar mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslarini o`rganar ekanlar, olingan bilim to`g`ri foydalanish malakalarini egallaydilar, o`zlarida ijodiy tashabbus ko`rsatish, ishda faol bo`lish xislatlarini hosil qiladilar. SHu bilan bir vaqtida ijodiy kamol topish uchun zarur bo`lgan o`z-o`zini tarbiyalash va o`z-o`zining ishini rejalashtirish borasida keng imkoniyatlar tug`iladi.

A. A. Inshin va V. M. Goldman ishlab chiqqan «talabalarga mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslaridan ta`lim berish» nomli metodik tavsiyalarda talabalar mehnatni ilmiy tashkil qilish bo`yicha olgan bilimlari hajmiga qo`yiladigan talablar keltirilgan.

- mehnatni ilmiy tashkil qilishning iqtisodiy ahamiyati to`g`risidagi masalalarni tushunishlari;
- o`z ish o`rinlarini ratsional, ilmiy jihatdan to`g`ri tashkil qilishlari;
- ishning gurux formasida o`z mehnatlarini to`g`ri tashkil qila bilishi;
- ma'lum ish va operatsiya turlarini bajarishda to`g`ri ish vaziyatini saqlashni;
- ishni optimal sur`atda va bir me'yorda bajarishni;
- ish harakatlarini bajarishda va mehnat qilishda tejash qoidalariga riosa qilishni;
- mehnat qilish, dam olish va ovqatlanishning ratsional rejimlariga riosa qilishni;
- ish o`rnida qulay mehnat qilish sharoitlari hosil qilishga nisbatan qo`yiladigan sanitariya-gigiena va estetik talablarni bajarishni;
- o`z ish o`rnida texnologik jarayonni to`g`ri rejalashtirishni;
- o`z ish vaqtini rejalashtirishi, ya`ni to`g`ri taqsimlash va hisobga olishni;
- o`z mehnatida novator talabalarning ilg`orlarining tajribasidan foydalanishni;
- mehnat va texnologik intizomga riosa qilishni;
- o`z ish o`rnida va guruxida mehnatning tashkil qilinishini tahlil qilishni, o`z-o`zini nazorat qilishni;
- mehnatni normalashga oid oddiy hisoblashlarni bajarishni;
- o`z kasbiy malakasini va madaniy-texnik saviyasini muntazam ravishda oshirib bajarishni;
- ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etishni takomillashtirishda ijodiy tashabbus va faollik ko`rsatishni;
- jamoasida me'yoriy psixologik muhitni saqlab turishni;

- o`z ish o`rnida mehnatni ilmiy tashkil etishning asoslangan rejalarini joriy etishni, ishlab chiqishni uddalay olishlari kerak.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish – davlatimiz iqtisodiy siyosatining tub masalasidir. Barcha ilg`or yangiliklarni tez va keng miqyosda o`zlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini sifat jihatdan yangilash eng muhim vazifadir. Shunga ko`ra resurslarni fan-texnika taraqqiyotining elektronikani, energetikani, kompleks avtomatlashtirishni, ishlab chiqarish texnologiyasi va yangi materiallar tayyorlashni rivojlantirish kabi eng muhim yo`nalishlarida mujassamlashtirish ko`zda tutilmoqda.

Prinsipial yangi texnologiyalar, masalan, plazma, lazer, impuls, radiatsiya, membrana texnologiyasi va boshqalar sanoatda sezilarli o`rin olmoqda.

Ulardan ko`zlangan maqsad mehnat unumdarligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, ishlab chiqarishda energiya va material sarfini kamaytirishdir. Qishloq xo`jaligida ham dehqonchilik va chorvachilikda industrial, intensiv texnologiyaga o`tishi, biotexnologiya metodlarini qo`llash amalga oshirilmoqda.

Xo`jalik faoliyatini turli sohalarda, avvalo, asbob-anjomlarni, texnologik jarayonlarni loyihalashtirishda hamda boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish lozim, kerakli mahsulotni tayyorlashga tez va isrofgarchiliksiz moslashadigan kompleks – avtomatlashgan ishlab chiqarishni barpo qilish mo`ljallanmoqda. Yuksak samarali texnikani yangi avlodlarini yaratish va joriy etishni jadallashtirish, mashinalar sistemalarini hamda texnologik asbob – uskunalar komplekslarini ishlab chiqarishga o`tish vazifasi qo`yilmoqda.

Xalq xo`jaligini kompyuterlashtirish keng tus olib borayotgani sababli ishlab chiqarishning barcha sohalarini yanada mukammal hisoblash texnikasi vositalari bilan ta'minlash zarur. Bu tadbir iqtisodiyot va boshqarishning axborot-texnik bazasini tubdan qayta qurishni amalga oshirish imkonini beradi.

Fan-texnika taraqqiyotining yo`nalishlaridan biri – oldindan belgilangan xossalarga, ayniqsa, istiqbolli konstruksion xossalarga ega bo`lgan, jumladan, sintetik, kompozitsion, o`ta toza va boshqa materiallar yaratishdir. Ularni ishlab chiqarishga joriy etish materiallar va qotishmalarni qimmatli tabiiy materiallarni tejash imkonini beradi.

Energiyani tejashga, uning yangi manbalaridan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Yuqori kategoriyadagi sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ancha ko`paytirish, texnikaning ishonchligini oshirish va ekspluatatsiya (qo`llash) muddatlarini uzaytirish ko`zda tutilmoqda. Shu maqsadda sifatni boshqarishning majmua tizimi joriy etilmoqda, fan - texnikaning istiqbol yutuqlari asosida detallar, uzellar va texnologiyalarni tarmoqlar hamda tarmoqlararo unifikatsiyalashtirish chuqurlashmoqda.

Fan-texnika taraqqiyotining yuqorida ko`rib chiqilgan yo`nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish fanning ishlab chiqarish bilan maksimal darajada yaqinlashuviga, «ilmiy g`oya – ishlab chiqish – joriy etish» jarayonning tezlashuviga yordam beradi, shunga ko`ra ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarining tarmoqlari kengaytirilmoqda, tarmoqlararo ilmiy - texnik majmular fan bilan ishlab chiqarish birlashuvining tamoyili, yangi shakli kengaytirilmoqda. Hozirgi kunda «Rotor» ilmiy – texnik majmuasi ishlamoqda va uning mahsuloti (rotor va rotor – konveyer liniyalari) texnologik jarayonlarni majmua mexanizatsiyalashtirishni va mehnat unumdarligini bir necha marta oshirishni ta'minlaydi.

Xo`jalik mexanizmini qayta qurmay inson omilini faollashtirmay, fan – texnikani taraqqiy ettirib bo`lmaydi, ishga ijodiy, qiziqish bilan yondoshish, kam sarflab eng yuqori natijalarga va mahsulotning yuksak sifatli bo`lishiga erishish uchun intilish – xalq farovonligini va mamlakatimiz qudratini oshirishning garovidir.

Sizlar balki kompozitsion materiallar haqida ko`p eshitgansiz va o`qigansiz. Bu sintetik materiallar moddalarning turlicha birikishi (kompozitsiyasi) dan iborat bo`ladi. Albatta ularni ayrim komponentlarini oddiygina aralashtirilishi deb tushunmaslik kerak. Kompozitlarning farqli xossalari: chidamliligi, yuqori darajada mustahkamligi, issiqqa bardosh berishi, korroziyalanmasligidir. Bunday materiallar tovushdan tez uchadigan samolyotlarda, dengiz texnikasida, qishloq xo`jaligida, yengil sanoat va hokazolarda foydalaniladi.

Yangi texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarishning turlaridan biri – detallarni metall kukunlaridan tayyorlash – kukunli metallurgiya bo`lib, bu usul ilgari minutlar, ba’zan soatlar sarflanadigan detallar tayyorlashni aniq forma va o`lchamlar bilan sekundlarda bajarish imkonini berayotir. Ana shu usulda metall poroshogi (yoki kukunlar aralashmasi) po`lat press – qolipga solinadi va katta bosim bilan presslanadi. Shunda metall zarralari bir – biriga jiplashadi, natijada geometrik parametrlari bo`yicha tayyor detallga mos zagotovka hosil bo`ladi. Keyin zagotovkani maxsus pechlarda juda yuqori temperaturada qizdiriladi (yaxlitlanadi) – metall zarralari birlashib, jips bir jinsli massaga aylanadi. Bu usul bilan tayyorlanadigan detallar uchun kerakli asbob – uskunalar ayrim hollarda odatdagagi metall qirqish stanoklariga qaraganda soddarroq va arzonroq bo`ladi. Kukunli metallurgiyadan issiqqa, korroziyaga chidamli yangi materiallar olishda ham foydalaniladi. Bu esa yangi texnologiyalar yangi materiallar yaratishga xizmat qilishining misolidir.

Ma’lumki metallarni bosim bilan ishslash metall qirqish stanoklarida detallar tayyorlashga nisbatan ancha tejamlidir. Mexanik shtampovka o`rmini asta – sekin suv zarbi, magnit maydoni, portlatish bilan shtampovkalash egallamoqda.

Sovuq va issiq holda hajmli shtampovkalash, aniq quyish, erigan suyuq materiallardan detallarni shtampovkalash va hokazolar ham nihoyatda tejamli texnologiyalardir.

So`nggi yillarda metallarni qirqish tezligini oshirish, ximiyaviy reaksiyalarni tezlashtirish va hokazolar hisobiga an'anaviy texnologik jarayonlarni intensivllashtirishdan ham keng foydalanilmoqda.

Ko`p operatsiyalarni birlashtiradigan uzluksiz texnologik jarayonlarni qo`llash katta samara beradi. Uzluksiz texnologiya texnologik operatsiyalarni qo`shish orqali zagotovkalarni detallar va materiallarni bir ish o`rnidan ikkinchi ish o`rniga tashish hamda boshqa qator yordamchi operatsiyalarni bartaraf etadi, masalan, kukunli metallurgiya usulida detallar tayyorlashda ko`pincha presslash va qizdirish jarayonlari qo`shiladi: metall kukunlari presslanadi va bir yo`la qizdiriladi.

Zamoanviy ishlab chiqarishga yangi materiallarni ilg`or texnologik jarayonlarni joriy etish, an'anaviy texnologik jarayonlarni intensivllashtirish, xalq xo`jaligning turli tarmoqlarida samaradorligini ishlab chiqarishni oshirishning asosiy yo`nalishidir. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosiy yo`nalishlari. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va mehnat ko`p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish kerak. Mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash vazifasi bugungi kunda dolzarb bo`lib turibdi. Texnika taraqqiyotini jadallashtirish-davlatimiz iqtisodiy siyosatining tub masalasidir Barcha ilg`or yangiliklarni tez va keng miqyosda o`zlashtirish, ishlab, chiqarish kuchlarini sifat jihatdan yangilash eng muhim vazifadir. Shunga ko`ra resurslarni fan-texnika taraqqiyotining barcha sohalarini kompleks avtomatlashtirishni, ishlab chiqarish texnologiyasi va yangi materiallar tayyorlashni rivojlantirish ko`zda tutilmoqda.

Yangi texnologiyalar masalan, plazma, lazer, impuls, radiatsiya, quyosh energiyasidan foydalanish, nanotexnologiya va boshqalar sanoatda sezilarli o`rin egallamoqda. Ulardan ko`zlangan maqsad mehnat unumdorligini ancha oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, ishlab chiqarishda energiya va material sarfini kamaytirishdir. Qishloq xo`jaligida, xususan dehqonchilik va chorvachilikda ham industrial, intensiv texnologiyaga o`tish, biotexnologiya metodlarini qo`llash amalga oshirilmoqda.

Xo`jalik faoliyatining turli sohalarida avvalo, asbob-anjomlarni, texnologik jarayonlarni loyihalashtirishda hamda boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish lozim, kerakli mahsulotni tayyorlashga tez va isrofgarchiliksiz moslashadigan kompleks-avtomatlashgan ishlab chiqarishni barpo qilish muhim rol o`ynaydi. Yuksak samarali texnikaning yangi avlodlarini yaratish va joriy etishni

jadallashtirish, mashinalar tizimlarini hamda texnologik asbob-uskunalar komplekslarini ishlab chiqarishga o`tish vazafasi qo`yilmoqda.

Xalq xo`jaligini kompyuterlashtirish keng tus olib borayotgani sababli ishlab chiqarishning barcha sohalarini yanada mukammal hisoblash texnikasi vositalari bilan ta'minlash zarur. Bu tadbir iqtisod va boshqarishning informasion-texnik bazasini tubdan qayta qurishni amalga oshirish imkonini beradi.

Fan-texnika teraqqiyotining yo`nalishlaridan biri-oldindan belgilangan xossalarga, ayniqsa, progressiv konstruksion xossalarga ega bo`lgan, jumladan, sintetik, kompozitsion, o`ta toza va boshqa materiallar yaratishdir. Ularni ishlab chiqarishga joriy etish metallar va qotishmalarni, qimmatli tabiiy materiallarni tejash imkonini beradi.

Energiyani tejashga, uning yangi manbalaridan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi ya boshqa muqobil energiya manbalaridan foydalanishni keng rivojlantirish mamlakatimiz energetika sanoatini sifat jihatdan yangi asosda qayta qurish organik yoqilg`ining, o`ta kamyob turlari sarflanishini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Yuqori kategoriyadagi sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ancha ko`paytirish, texnikaning ishonchligini oshirish va ekspluatatsiya muddatlarini uzaytirishni nazarda tutadi. Shu maqsadda boshqarishning kompleks tizimi joriy etilmoqda. Fan-texnikaning istiqboli yutuqlari asosida detallar, qismlar va texnologiyalarni tarmoqlar hamda tarmoqlararo unifikasiyalashtirish amalga oshirilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyotining yuqorida ko`rib chiqilgan va boshqa barcha turdag'i yo`nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ishlab chiqarish bilan maksimal darajada yaqinlashuviga, «llmiy g`oya ishlab chiqish - joriy etish» jarayonining tezlashuviga yordam berish, shunga ko`ra ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarining tarmoqlari rivojlantirilmoqda, tarmoqlararo ilmiy-texnik komplekslar, ya'ni fan bilan ishlab chiqarishni birlashuvining prinsipial yangi shakli kengaytirilmoqda

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, moddiy ishlab chiqarish sohasini rivojlanishi va murakkablashib borishi, fan-texnika taraqqiyoti omili rolining oshib borishi nomoddiy ne'matlarga bo`lgan talabning ko`payishiga olib keldi.

Fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishda, ko`p mehnat va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish talab qilinadigan zamонавиу yangi ishlab chiqarishlarni o`zlashtirishda tashabbuskor bo`lish, respublikamizning keljak yo`lini ochib borishi lozim. Shuning uchun biz tanlagan bosh yo`l – respublikaning barcha tabiiy boyliklarini — paxta, metallar, pilla, gaz, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni qayta ishlashni ko`paytirishdan iborat hisoblanadi. Bu vazifani fan-texnika yutuqlariga asoslangan sermehnat ishlab chiqarishni, malakali mutaxassis va mehnatkashlarning barcha tabaqa vakillari saviyasining o`sishini ta'minlamasdan bajarib bo`lmaydi. Bu esa o`z

navbatida ishga ijodiy, qiziqish bilan yondashish, kam sarflab eng yuqori natijalarga va mahsulotning yuksak sifatli bo`lishiga erishish uchun intilish – xalq farovonligini va mamlakatimiz qudratini oshirishning garovi hisoblanadi.

2. Yangi materiallar va zamonaviy texnologiyalar. Hozirgi texnika uchun oldindan belgilangan xossalarga ega bo`lgan xilma-xil materiallar kerak. Bunday materiallar, masalan, juda katta yuk yoki issiqlik va sovuqqa chidamli, muayyan fizik-kimyoviy xossalarga ega bo`lishi (turli muhitga, haddan tashqari yuqori yoki past elektr o`tkazuvchanlikka dosh bera olishi) lozim. Buning zarurligini texnika murakkab sharoitlarida ishlatilganida yuqori darajada mustahkamligi va ishslash qobiliyatini saqlash kerakligi bilan izohlash mumkin. Masalan, kosmik kema uchavotganida bosim va vibrasiyaga, temperaturaning keskin farqlanishiga, quyosh radiasiyanining ta`siri va hokazolarga duch keladi, Demak, bunday apparatlar uchun o`ta qattiq, issiqliq chidamli materiallar kerak. Aslida esa bunday materiallar tabiatda yo`q. Turli ximiyaviy elementlarni birlashtirib oldindan belgilangan xossalarga ega bo`lgani yangi materiallami hosil qilish mumkin.

Yangi materiallar faqat kosmosdagina zarur emas. Sanoat va qishloq xo`jalik texnikasini ishlatish sharoiti ko`pincha ana shu texnika tayyorlanadigan material bir necha xossalarga ega bo`lishini, masalan, ham vibrasiyaga chidamli, ham yuqori darajada mustahkam va oson ishlov beriladigan bo`lishini taqozo etadi. Lekin yangi materiallar yaratish zarurligi faqat murakkab ekspluatasiya sharoiti bilan bog`liq emas.

Ishlatib kelinayotgan qotishmalarning ayrim tarkibiy materiallari juda qimmat, ularning tabiiy zaxiralari cheklangandir.

Yangi materiallar yaratishda ularga ishlov berish imkoniyatlari ham hisobga olinadi. Masalan, juda qattiq qotishmalardan zagotovkalar ishlab chiqarishda ularga nisbatan qattiqroq materialdan yasalgan asbob-uskuna va moslamalar bo`lishi shart. Yangi materiallar (plastmassalar, sintetik kauchuklar, smolalar, sun’iy olmos va hokazolar) tufayli yangi texnologiyaiar vujudga keladi. Chunonchi mashinasozlikda sintetik olmoslardan foydalanish detallar prokat qilinganidan so`ng tokarlik ishlarisiz silliqlash yoki issiqligicha shlifovkalash imkonini berdi. Faqat yangi materiallar emas, balki energiyaning yangi turlari ham yangi texnologiyaiar yaratishga yordam beradi. Bu jihatdan lazer, elektron-may plazma texnologiyalari alohida e’tiborga loyiqidir.

Kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarni keng joriy qilish fan - texnika taraqqiyotini jadallashtirishning muhim yo`nalishidir. Sizlar metal qirqish stanoklarida ishlayotganingizda anchagina metall qirindiga aylanishini ko`rgansiz. Ko`p hollarda dastlabki materialning 70-80 foizini chiqindilar tashkil etadi. Xuddi shu sababli xususan mashinasozlikda metallarni qirqish bilan ishslash o`rniga chiqindisiz va kam chiqindili texnologik usullarni qo`llash nihoyatda muhim

ahmiyatga egadir. Bu esa yengil sanoat va tikuvchilik hamda to`qimachilikda ham juda muhim omillardan hisoblanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarishga yangi materiallarni, ilg`or texnologik jarayonlarni joriy etish, an'anaviy texnologik jarayonlarni intensivlashtirish xalq xo`jaligining turli tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo`lidir.

I.3. Ishlab chiqarishda buyumlar tayyorlashning funksionl vazifalari haqida talabalarni bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollantirish hamda talabalarda texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish. Buyum turlari va tushunchalari.

Ishlab chiqarish jarayonining konsepsiysi zamонавиy ishlab chiqarish - bu xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa mehnat ob`ektlarini jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan tayyor mahsulotga aylantirishning murakkab jarayoni. Muayyan turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarish bo`yicha korxonada amalga oshiriladigan odamlar va asboblarning barcha harakatlarining kombinatsiyasi ishlab chiqarish jarayoni deb ataladi. Ishlab chiqarish jarayonining asosiy qismi - bu mehnat ob`ektlarining holatini o`zgartirish va aniqlash bo`yicha maqsadli harakatlarni o`z ichiga olgan texnologik jarayonlardir. Texnologik jarayonlarni amalga oshirish jarayonida mehnat ob`ektlarining geometrik shakllari, o`lchamlari va fizik-kimyoviy xossalari o`zgaradi. Texnologik jarayonlar bilan bir qatorda, ishlab chiqarish jarayoni mehnat ob`ektlarining geometrik shakllarini, o`lchamlarini yoki fizik-kimyoviy xususiyatlarini o`zgartirish yoki ularning sifatini tekshirishni maqsad qilmaydigan texnologik bo`lmagan jarayonlarni ham o`z ichiga oladi. Bunday jarayonlar transport, saqlash, ishlov berish, yig`ish va boshqa ba`zi operatsiyalar va jarayonlarni o`z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat jarayonlari tabiiy jarayonlar bilan birlashadi, bunda mehnat ob`ektlarining o`zgarishi tabiiy kuchlar ta`siri ostida inson aralashuvizsiz sodir bo`ladi (masalan, bo`yalgan qismlarni havoda quritish, quyma quyish qismlari, eskirgan quyma qismlar va boshqalar).

Ishlab chiqarish jarayonlarining turlari. Ularning maqsadi va ishlab chiqarishdagi roliga ko`ra jarayonlar asosiy, yordamchi va xizmat ko`rsatish jarayonlariga bo`linadi. Ularning asosiyлари - bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayonlari hisoblanadi. Mashinasozlikda asosiy jarayonlarning natijasi korxonaning ishlab chiqarish dasturini tashkil etadigan va uning ixtisoslashuviga mos keladigan mashinalar, apparatlar va moslamalarni ishlab chiqarish, shuningdek iste`molchilarga yetkazib berish uchun ular uchun ehtiyyot qismlarni ishlab chiqarishdir. Ularning natijasi - korxonaning o`zida ishlataladigan mahsulotlar, uskunalarni ta`mirlash, asboblarni ishlab chiqarish, bug`li va siqilgan havo ishlab

chiqarish va boshqalar, xizmat ko`rsatuvchi jarayonlar - bu asosiy va yordamchi jarayonlarning normal ishlashi uchun zarur bo`lgan xizmatlar bajariladigan jarayonlardir. Bularga, masalan, transport, omborxona, qismlarni tanlash va yig`ish jarayonlari kiradi. Zamonaliv sharoitda, ayniqsa avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda asosiy va xizmat ko`rsatish jarayonlarini birlashtirish tendentsiyasi mavjud. Shunday qilib, moslashuvchan avtomatlashtirilgan komplekslarda asosiy, yig`ish, omborxona va transport operatsiyalari yagona jarayonga birlashtirilgan. Asosiy jarayonlar to`plami asosiy ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Mashinasozlik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish uch bosqichdan iborat: xarid qilish; qayta ishslash; yig`ish.

Ishlab chiqarish jarayonining bosqichi - bu amalga oshirish ishlab chiqarish jarayonining ma'lum bir qismini tugatilishini tavsiflovchi va mehnat predmetining mehnatga o`tish jarayoni bilan bog`liq bo`lgan jarayonlar va ishlar majmuasidir.

Xarid qilish bosqichida blankalarni olish jarayoni - materiallarni kesish, quyish, shtamplash. Ishlov berish bosqichi ish qismlarini tayyor qismlarga aylantirish jarayonlarini o`z ichiga oladi: ishlov berish, issiqlik bilan ishlov berish, bo`yash va qoplama va boshqalar. O`rnatish bosqichi ishlab chiqarish jarayonining yakuniy qismidir. Bu qismlarni va tayyor mahsulotlarni yig`ish, mashinalar va qurilmalarni sozlash va tuzatish, ularni sinovdan o`tkazish. Asosiy, yordamchi va xizmat ko`rsatuvchi jarayonlarning tarkibi va o`zaro munosabatlari ishlab chiqarish jarayonining tuzilishini tashkil qiladi. Tashkiliy jihatdan ishlab chiqarish jarayonlari oddiy va murakkabga bo`linadi.

Oddiy deb oddiy mehnat mavzusida ketma-ket bajariladigan harakatlardan tashkil topgan ishlab chiqarish jarayonlari deyiladi. Masalan, bitta qismni yoki bir xil qismlardan iborat to`plamni ishlab chiqarish jarayoni.

Murakkab jarayon - bu ko`plab mehnat ob`ektlarida amalga oshiriladigan oddiy jarayonlarning birikmasi. Masalan, yig`ish moslamasini yoki butun mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni. Sanoat mahsulotlari yaratiladigan turli xil ishlab chiqarish jarayonlari to`g`ri tashkil etilishi kerak, ular yuqori sifatli mahsulotlarning muayyan turlarini ishlab chiqarish uchun va xalq xo`jaligi va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondiradigan miqdorda ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish odamlarni, asboblar va mehnat ob`ektlarini moddiy tovarlarni ishlab chiqarishning yagona jarayoniga birlashtirishdan, shuningdek asosiy, yordamchi va xizmat ko`rsatuvchi jarayonlarning makon va vaqtidagi oqilona kombinatsiyani ta'minlashdan iborat. Ishlab chiqarish jarayoni elementlari va uning barcha navlarining fazoviy kombinatsiyasi korxona va uning bo`linmalarining ishlab chiqarish tarkibini shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, eng muhim tadbirlar korxonaning ishlab chiqarish tarkibini tanlash va asoslash, **ya`ni**, uning birliklari tarkibi va ixtisosligini aniqlash va ular o`rtasida ratsional aloqalarni

o`rnatish, ishlab chiqarish tuzilmasini ishlab chiqishda asbob-uskunalar parkini uning mahsuldarligi, o`zaro almashinuvchanligi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda aniqlash bilan bog`liq bo`lgan dizayn hisob-kitoblari olib boriladi. Bo`limlarni oqilona rejalashtirish, uskunalarini joylashtirish va ish joylari ham ishlab chiqilmoqda. Uskunalar va ishlab chiqarish jarayonining bevosita ishtirokchilari - ishchilar uzlusiz ishlashi uchun tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri ishlab chiqarish jarayonining barcha tarkibiy qismlarining o`zaro bog`liq ishlashini ta'minlash quyidagilarni o`z ichiga oladi: tayyorgarlik operatsiyalari, asosiy ishlab chiqarish jarayonlari, texnik xizmat. Muayyan ishlab chiqarish va texnik sharoitlar uchun muayyan jarayonlarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari va usullarini har tomonlama asoslab berish kerak.

Bo`limlar va ishlarning ixtisoslashuvi tabiat ko`p jihatdan bir xil nomdagagi qismlarni ishlab chiqarish hajmi bilan belgilanadi. Bir turdag'i mahsulotni ishlab chiqarishda ixtisoslashuv eng yuqori darajaga yetadi. Traktorlar, televizorlar va avtomobillar ishlab chiqaradigan zavodlar juda ixtisoslashgan ishlab chiqarishlarning eng namunali ko`rinishidir. Ishlab chiqarish turining ko`payishi ixtisoslashuv darajasini pasaytiradi. Bo`limlar va ish joylarining yuqori darajada ixtisoslashuvi ishchilarning mehnat ko`nikmalarini rivojlantirish, mehnatni texnik jihozlash imkoniyati va mashinalar va liniyalarni qayta o`rnatish xarajatlarini minimallashtirish orqali mehnat unumdarligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tor ixtisoslashuv ishchilarning zarur malakalarini pasaytiradi, mehnatning monotonligini belgilaydi va natijada ishchilarning tez charchashiga olib keladi va ularning tashabbusini cheklaydi. Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarishni universalizatsiya qilish tendensiyasi kuchaymoqda, bu esa mahsulot turlarini kengaytirish, ko`p funksiyali uskunalarning paydo bo`lishi va ishching mehnat funksiyalarini kengaytirish yo`nalishi bo`yicha mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish vazifalari bilan belgilanadigan ilmiy-texnik taraqqiyot talablari bilan belgilanadi. Mutanosiblik prinsipi ishlab chiqarish jarayonining individual elementlarining mantiqiy birikmasida yotadi, bu ularning bir-biri bilan ma'lum miqdoriy nisbatida ifodalanadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish hajmidagi mutanosiblik bo`limlar yoki uskunalarning yuk omillariga tengligini anglatadi. Bunday holda, sotib olish ustaxonalarining o`tkazish qobiliyati mexanik ustaxonalar blankalari uchun talablarga javob beradi va ushbu ustaxonalarning o`tkazuvchanligi yig`ish sexining zarur detallarga bo`lgan ehtiyojlariga mos keladi. Bu har bir ustaxonada korxonaning barcha bo`linmalarining normal ishlashini ta'minlaydigan shunday miqdordagi asbob-uskuna, maydon, ishchi kuchiga ega bo`lish zarurligini anglatadi. Bir tomondan, asosiy ishlab chiqarish va yordamchi va xizmat ko`rsatish bo`linmalari o`rtasida bir xil o`tkazish qobiliyati bo`lishi kerak.

Korxonaning ishlab chiqarish tarkibi. Ishlab chiqarish jarayonining qismlarini kosmosda kombinatsiyasi korxonaning ishlab chiqarish tarkibi tomonidan ta'minlanadi. Ishlab chiqarish tarkibi deganda uning tarkibiga kiritilgan korxonaning ishlab chiqarish birliklari, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro bog`liqlik turlari tushuniladi. Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish jarayonini uning ikkita turida ko`rib chiqish mumkin: yakuniy natija bilan moddiy ishlab chiqarish jarayoni sifatida - tijorat mahsulotlari; dizayn-ishlab chiqarish jarayoni sifatida yakuniy natija - ilmiy-texnik mahsulot. Korxonaning ishlab chiqarish tarkibining tabiatini uning faoliyat turlariga bog`liq bo`lib, ularning asosiyatlari quyidagilar:

- ilmiy-tadqiqot;
- ishlab chiqarish;
- ilmiy-ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish-texnik;
- menejment va biznes.

Tegishli faoliyatning ustuvorligi korxonaning tuzilishini, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish bo`linmalarining ulushini, ishchilar va muhandislar sonining nisbatlarini belgilaydi. Sanoat faoliyatiga ixtisoslashgan korxona bo`linmalarining tarkibi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning dizayn xususiyatlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarish ko`lami, korxonaning ixtisoslashuvi va o`rnatilgan kooperatsion aloqalar bilan belgilanadi.

Zamonaviy sharoitda korxona tarkibiga mulkchilik shakliga katta ta'sir ko`rsatiladi. Davlatdan mulkchilikning boshqa shakllariga o'tish - xususiy, aksiyadorlik, ijaraga berish - odatda keraksiz aloqalar va tuzilmalar, boshqaruв apparatlari sonining qisqarishiga olib keladi va ishlarning takrorlanishini kamaytiradi. Hozirgi vaqtda korxonalarни tashkil etishning turli shakllari keng tarqagan; kichik, o`rta va yirik korxonalar mavjud, ularning har birining ishlab chiqarish tarkibi mos xususiyatlarga ega. Kichik korxonaning ishlab chiqarish tarkibi oddiy. Qoida tariqasida, u minimal yoki umuman ichki tarkibiy ishlab chiqarish bo`linmalariga ega. Kichik korxonalarda boshqaruв apparati ahamiyatsiz, boshqaruв funksiyalarining kombinatsiyasi keng qo`llaniladi. O`rta korxonalarning tarkibi ustaxonalarни ularning tarkibiga va do`kondan tashqari tuzilishga ega bo`limlarni ajratishni o`z ichiga oladi. U allaqachon korxonaning ishlashini ta'minlash uchun zarur bo`lgan minimal boshqaruв va xizmat ko`rsatish bo`limlarini, boshqaruв apparati bo`limlarini va xizmatlarini yaratadi. Ishlab chiqarish sanoatidagi yirik korxonalar tarkibiga ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va boshqaruvning barcha to`plamlari kiradi. Ishlab chiqarish tuzilmasi asosida korxonaning bosh rejasi ishlab chiqiladi. Bosh rejaga binoan korxona hududidagi barcha do`konlar va xizmatlarning, shuningdek transport yo`nalishlari va kommunikatsiyalarning fazoviy joylashuvi

kiradi. Dastgohlar ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligiga muvofiq joylashtirilishi kerak. Bir-biri bilan bog`liq xizmatlar va ustaxonalar bir-biriga yaqin joylashgan bo`lishi kerak. Uyushmalarning ishlab chiqarish tarkibini rivojlantirish, birlashmalarning ishlab chiqarish tuzilmalari zamonaviy sharoitlarda jiddiy o`zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Har bir ishlab chiqarishda: dizayn va texnologik, asbob-uskunalar va jihozlarni tayyorlash, asbob-uskunalarni ta'mirlashni tahlil qilish va rejalashtirish bo`limlari tashkil etildi. Bu yerda tezkor va puxta rejalashtirish va jo`natish, logistika, mehnat va ish haqini tashkil qilish bo`yicha yagona xizmatlar tashkil etilgan. Ishlab chiqarish tarkibiga yirik ixtisoslashtirilgan ustaxonalar, uskunalarni ta'mirlash, ishlab chiqarish va ta'mirlash, transport va saqlash operatsiyalari, binolarni tozalash va boshqalar kiradi. Ishlab chiqarishda kuchli muhandislik xizmatlari va ishlab chiqarish bo`linmalarining tashkil etilishi, ularning har biri o`z oldiga qo`yilgan vazifalarni to`liq hal qiladi, asosiy ishlab chiqarish bo`linlarining samarali ishlashi uchun normal sharoitlarni yaratishga imkon berdi. Seminarlar va bo`limlarni tashkil etish konsestratsiya va ixtisoslashuv tamoyillariga asoslanadi. Dastgohlar va ishlab chiqarish maydonlarini ixtisoslash ish turlari bo`yicha - texnologik ixtisoslashuv yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi bo`yicha ixtisoslashuv bo`yicha amalga oshirilishi mumkin. Mashinasozlik korxonasida texnologik ixtisoslashuv bo`linmalarining ishlab chiqarish namunalari quyuv, termal yoki galvanik sexlar, mexanik ustaxonada torna va sillqlash bo`limlari; mavzu bo`yicha ixtisoslashuv - tana qismlari ustaxonasi, vallar bo`limi, vites qutilarini ishlab chiqarish ustaxonasi va boshqalar. Agar mahsulot yoki uning qismlarini ishlab chiqarishning to`liq sikli ustaxona yoki bo`lim ichida amalga oshirilsa, ushbu bo`lim "yopiq" deb nomlanadi. Seminarlar va bo`limlarni tashkil qilishda barcha turdag'i ixtisoslikning afzalliklari va kamchiliklarini sinchkovlik bilan tahlil qilish kerak. Texnologik ixtisoslashuv bilan jihozlarning yuqori yuklanishi ta'minlanadi, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishda va ishlab chiqarish quvvatlarini o`zgartirishda ishlab chiqarishning yuqori moslashuvchanligiga erishiladi. Shu bilan birga, operatsion va ishlab chiqarishni rejalashtirishga to`sinqil qilinadi, ishlab chiqarish aylanishi uzaytiriladi va mahsulot sifati uchun javobgarlik kamayadi. Barcha ishlarni ishlab chiqarishga jamlashga imkon beradigan fan ixtisosligini qo'llash kerak.


I.4. Yog`och xomashyo tayyorlash to`g`risida asosiy tushunchalar. Buyum yasash texnologiyasi va yasalgan buyumning sifati, ishlatilgan materialning xossalariga bog`liqligi.

Arralab yiqitilgan va ildiz hamda shox-shabbalaridan tozalangan daraxt tanasi yog`och deyiladi. Daraxt yog`ochligini ko`ndalangiga qirqib hosil qilish jarayoni

arralab saralash deyiladi. Yog`ochlikni saralashda ishga yaroqli va o`tinbop qismlar olinadi.

Ishga yaroqli yog`och deb dumaloq holatda yoki mexanikaviy va komyoviy ishslash uchun xom ashyo sifatida foydalaniladigan hamda ishga yaroqli sortimentlarga tegishli ГOCT yoki TY talablariga javob beradigan yog`och va uning bo`laklariga aytildi.

O`tinlik yog`och - yoqilg`i sifatida hamda pista ko`mir va quruq haydash uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan past sifatli yog`och. Yog`ochlik sifatiga va sortimentning vazifasiga qarab har xil uzunlikdagi xodalar hamda g`o`lalarga qirqiladi. Xodalar deb arralash materiallari ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladigan dumaloq, ishga yaroqli sortimentlarga aytildi. G`o`la deb maxsus (faner, chang`i, aviatsiya, g`altak, bochka taxtasi, randa-dasta, qalam, miltiq dastasi, idish, shpal paluba, gugurt va akkumulyatorda ishlatiladigan) mahsulot turlarini ishlab chiqarishga mo`ljallangan dumaloq, ishga yaroqli sortimentga aytildi.



1-rasm. Daraxt tanasini sortimentlarga ajratish sxemasi:

a-daraxt tanasini ishga yaroqli va o`tinga ajratish, b-ishga yaroqli qismini alohida sortimentlarga ajratish, v-bir daraxt tanasidan olingan sortimentlarning bo`ylama qirqimi;

1-yog`och qismi, 2-o`rta qismi, 3-uchki qismi, 4-cho`qqisi.

G`o`lacha deb yog`och ishslash stanoklarida ishlatish uchun zarur o`lchamlarga ega bo`lgan uzunlikdagi g`o`laga aytildi. G`o`lalar uzunligi odatda g`o`lacha uzunligining karrali soniga teng bo`ladi.

Yaproqli va nina bargli daraxtlarning dumaloq yog`och materiallariga qo`yiladigan talablar ГOCT 9462-91 va ГOCT 9463- 92 da belgilangan.

Dumaloq yog`och materiallarining standartlarida sortlarni belgilash daraxt tanasini uch zonaga: to`nkali, o`rta va cho`qqi zonaga ajratishni ko`zda tutadi. Daraxt tanasining to`nkali qismi yuqori fizik-mexanikaviy ko`rsatkichlarga ega va tananing yon sirtlarida teshib chiqqan ko`zlar bo`lmaydi. Daraxt tanasining o`rta qismida ko`p miqdorda o`sib turgan va qurib qolgan ko`zlar uchraydi. Cho`qqi qismida turli o`lchamdagagi butoqlar ko`p bo`ladi.

Yog`ochining sifatiga hamda ishlanish nuqsonlariga qarab dumaloq yog`och materiallari to`rt sortga ajratiladi. Sortni aniqlash uchun ГОCT da ko`rsatilgan yo`l qo`yiladigan nuqsonlar kattaligi, ularning miqdori, sortimentning qalinlik bo`yicha o`lchamlari hamda sortimentlarning vazifasiga bog`liq bo`lgan qator qo`shimcha talablarni hisobga olish lozim. Sortimentda uning sifatiga ta`sir etadigan bir necha xil nuqsonlar mavjud bo`lsa, yog`och sorti sortning eng pastini xarakterlaydigan nuqson bo`yicha belgilanadi. Dumaloq yog`och materiallari qalinligi (diametri) bo`yicha uch gruppaga: ingichka, o`rtacha va yo`g`on gruppalarga ajratiladi.

Nina bargli va yaproqli dumaloq yog`och materiallari vazifasiga ko`ra quyidagi gruppalarga ajratiladi:

Yog`och materiallarining qalinligi bo`yicha guruhanishi

Yog`och materiallari	Nina bargli	Yaproqli	Qalinlik bo`yicha gradatsiya, sm
	qalinligi, sm		
Ingichka	6-13	8-13	1
O`rtacha	14-24	14-24	2
Yo`g`on	26 dan katta	26 dan katta	

1. Sortimentlarni arralash va frezalash yo`li bilan ishlashga mo`ljallangan yog`och materiallari:

- arralangan materiallar - aviatsiya sanoatida, rezonans, qalam ishlab chiqarishda, mashinasozlikda, qurilishda, mebel ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda ishlatiladigan yog`ochlar. Bundan tashqari, nina bargli yog`och turlaridan paluba va shlyupka taxtalari hamda eksport arralash materiallari ishlab chiqaradi.

- zagotovkalar - lijalar, qo`ndoq, oyoq kiyimi qoliplari, g`altaklar, poshnalar, mokilar, vino va pivo bochkalari, bochkasimon idishlar, quruq idish bochkalari va yashiklar, protezlar kabi detallar uchun zagotovkalar;

- keng va tor izli (koleyali) temir yo`l shpallari hamda o`tkazish bruslari;

- kemasozlik va kemalarni remont qilish uchun sortimentlar;

- randalangan shponlar ishlab chiqarish uchun sortimentlar.

2. Shponlarni shilish yo`li bilan ishlab chiqarish uchun yog`och materiallari.

3. Sellyuloza va yog`och massasini (balansini) ishlab chiqarish uchun yog`och materiallari.

4. Turli maqsadlarga mo`ljallangan yordamchi va vaqtincha qurilishlarda dumaloq holatda foydalaniladigan yog`och materiallari.

Nina bargli yog`och materiallaridan kema machtalari gidrotexnika inshootlari uchui ustun qoziqlar va ko`prik elementlari, elektr uzatish liniyalari vint tayanchlari, konlarda ishlatiladigan ustunlar va h. k. lar tayyorlanadi.

Duradgorlik ishlarida sanoat va turar joy qurilnshida ishlatiladigan material sifatida xodalardan foydalaniladi va ular hamma nina bargli va yaproqli daraxt

turlaridan tayyorlanadi. Qurilishda ko`proq nina bargli daraxt xodasidan foydalaniladi, hamma yapraqli daraxt turlari yordamchi va vaqtincha qurilish uchun ishlataladi. Nina bargli daraxt xodasi uzunligi 3 metrdan 6,5 metrgacha, yaproqli daraxtniki esa 4 metrdan 6,5 metrgacha (0,5 metr gradatsiya bilan) bo`ladi.

Xodalar sifati bo`yicha 2- va 3-sort talablariga javob berishi kerak. Sortimeitlar yuqori sifatli ko`rinishga ega bo`lishi uchun uning yaxshi ishlanishiga alohida ahamiyat berish kerak, ya`ni ko`zlar xoda sirti bilan tekis qilib qirqilgan bo`lishi; daraxtlarni ag`darish vaqtida hosil bo`lgan notejis qirqim torsovkalanihi; tores tekisliklari xoda o`qiga perpendikulyar bo`lishi kerak.

Dumaloq yog`och materiallarini o`lchash, hisoblash va markalash.

Dumaloq yog`och materiallarining uzunligini o`lchashda o`lchash reykalari, o`lchash lentalari va ruletkalardan foydalaniladi.

Dumaloq yog`och materiallarning yo`g`onligi o`lchash vilkasi, o`lchash skobasi yoki taxlama metr bilan o`lchanadi. Xoda va g`o`la yo`g`onligi ГОСТ. 2292-84 ga muvofiq yuqori toresi chetidan o`lchanadi. Yuqorigi tores yo`g`onligini o`lchashda katta diametr bilan kichik diametr orasidagi o`rtacha qiymatni olish kerak. Ishga yaroqli dumaloq yog`och materiallarning diametri po`sloqsiz o`lchanadi-. po`sloq yog`och hajmiga kirmaydi.

1000 donadan ortiq xoda yog`och materiali partiyasi uchun hammasining eng katta va eng kichik diametrlarini o`lchash o`rniga butun partiyaning bir xil yo`nalishdagi bir diametrini o`lchashga ruxsat etiladi.

Yog`och miqdorini hajmi bo`yicha hisoblash qabul qilingan. Yog`ochni hajmi bo`yicha hisoblash birligi qilib kub metrdagi zinch yog`och massasi qabul qilingan. yog`och hajmini taxlangan o`lcham bilan ham o`lchash mumkin; keyinchalik u zichlikka aylantiriladi. Zichlik kub metrning taxlangan kub metrdan farqi shundaki, taxlangan kub metrda alohida elementlar orasidagi bo`shliqlar ham bo`ladi.

Dumaloq yog`och materiallarining hajmini hisoblashni osonlashtirish va tezlashtirish maqsadida maxsus jadvallar tuzilgan (ГОСТ 2708-85). Jadval bo`yicha hajmni aniqlash uchun sortimentning uzunligi va uning yo`g`onligini (cho`qqisidagi diametrini) bilish zarur.

Taxlangan o`lchamda o`lchanadigan yog`och materiallarining hajmini aniqlash. Yog`och materiallari shtabellarga taxlanib, ular kengligi, balandligi va uzunligi bo`yicha o`lchanadi. Shtabel¹ kengligi taxlangan yog`och materialining nominal kengligiga teng qilib olinadi (qo`yimlar hisobga kirmaydi). Shtabelning balandligi va uzunligi ikkinchi o`nlik darajagacha yiriklab olinadi. Ishga yaroqli yog`och materiallarini taxlaganda uning namligi 25% dan yuqori bo`lganida shtabellar


¹ Shtabel - g`aram, biror narsaning, masalan qurilish materiallari yog`och, g`isht kabilarning tekis taxlangani

balandligi bo`yicha qurib kichrayishi hisobga kirmaydigan ustama va shtabelning balandlik bo`yicha cho`kishi uchun 2% qo`shib hisoblanadi. Ishga yaroqli sortimentlarning (po`stloqsiz) shtabel qilib taxlangan, zinch o`lchami shtabelning taxlash o`lchamlarini keltirilgan tegishli koeffitsientga (to`la yog`ochlik koeffitsientiga) ko`paytirish yo`li bilan aniqlanadi.

Shtabellarning taxlanish zichligi va kubaturasi ishga yaroqli turli zichlikdagi yog`och turlaridan iborat bo`lsa, taxlash zichligi va kubaturasi diagonallar metodi bo`yicha aniqlanadi. Shu maqsadda shtabelning yuz tomoniga balandligi shtabel balandligiga teng bo`lgan, asosining uzunligi shtabel uzunligi bo`ylab kamida 8 m bo`lgan to`g`ri burchaklik belgilab olinadi. To`g`ri burchaklik tomonlari bor yoki bo`yoq bilan belgilab qo`yiladi. To`g`ri to`rtburchakdan o`tkazilgan diagonal shtabelga taxlangan dumaloq sortimentlarning kamida 60 tasining toresidan o`tishi kerak. Diagonal uzunligi 1 sm gacha aniqlik bilan o`lchanishi lozim (bunda 0,5 sm dan kichik qismlar hisobga olinmaydi, 0,5 sm dan oshiq qismlar esa 1 sm deb olinadi).



2-rasm. Xoda diametrini bir yo`nalishda o`lchash



3-rasm. Hajmiy kubmetr (a) va taxlangan kubmetr (b)

Yuzdan bir ulushlarda ifodalangan to`liq yog`och koeffitsienti yog`och materiallarining toreslaridan o`tgan diagonal uzunliklari yig`indisini diagonalning butun uzunligiga bo`lib topiladi.

Yog`och materiallarining sifatini aniqlashda va standartda ko`rsatilgan talablarga rioya qilishda, shuningdek, qabul qilish va topshirishni osonlashtirish

maqsadida yo`g`onligi 14 sm dan ortiq bo`lgan yog`och materiallari (xodalarga qirqish joyida) albatta donalab markalanadi. Uzunligi 2 m gacha bo`lgan dumaloq yog`och materiallari (yo`nish randalashga mo`ljallangan yog`och materiallari, shuningdek, qimmatbaho yog`och materiallaridan tashqari) markalanmaydi. Yog`och materiallarini sol qilib oqizishda va bog`lamasdan bittadan oqizishda har biri bittadan markalanmaydi. Markirovkada quyidagi rekvizitlar: yog`och materialining sorti va diametri ko`rsatiladi. Sortimentlarning vazifasini belgilaydigan belgilarni alohida harflar bilan ko`rsatish qabul qilingan. Uzunligidan qat`iy nazar yo`g`onligi 13 sm gacha bo`lgan yog`och materiallari markalanmaydi. Sortning shartli belgilari vazifasini ko`rsatuvchi belgi yoniga rimcha yoki arabcha raqamlar bilan qo`yiladi. Diametr arab raqamlari bilan quyidagicha belgilanadi:

Diametri	Diametr belgisi
20 30 40	0
22 32 42	2
14 24 34 44	4
16 26 36 46	6
18 28 38 48	8

Ko`plab ishlab chiqariladigan sortimentga - mashinasozlikda, qurilishda foydalaniladigan arralash materiali, shuningdek, bir qator boshqa yog`och materiallar (paluba va shlyupkaga qoqiladigan taxtachalar)ga belgi qo`yilmaydi.

Dumaloq yog`och materiallarning markalash belgilari yuqorigi toresning markaziy qismiga (markaziy qismi shikastlanganda periferiya qismiga) qo`yiladi; oqiziladigan yog`ochlarga suvga chidamli bo`yoqlar bilan, quruqlikda tashiladigan yog`ochlarga ham xuddi shu bo`yoq bilan yoki atmosfera ta'sirlariga chidamli bo`rlar bilan chizib qo`yiladi. Paketlarga joylangan, dastalarga biriktirilgan va boshqa biriktirilgan yog`och materiallarida paket yoki dastasiga biriktirib qo`yilgan birkasi bo`lishi lozim. Belgilarning balandligi 30-50 mm kattalikda bo`lishi kerak.

Dumaloq yog`ochni saqlash. Dumaloq yog`och materiallari ГOCT 9014. 0-85 ga ko`ra daraxt turlarining chidamliligi bo`yicha (saqlaganda hasharotlar zamburug`lar bilan shikastlanishi va yorilishga chidamligi bo`yicha) ikkita - chidamli va chidamsiz klasslarga ajratiladi.

Yilning issiq vaqtlarida yog`ochlar omborlarda hasharotlar, zamburug`lardan shikastlanmasligi hamda yorimasligi uchun saqlashning turli usullari va maxsus himoya vositalaridan foydalanib saqlanadi. Dumaloq yog`och materiallarni omborlarda shtabellar tarzida saqlashning (ГOCT 9014. 0-85) nam va quruq usullari mavjud. Nam usulda tilish, yo`nish hamda randalash, shuningdek, kon ustunlari va balanslar tayyorlash uchun mo`ljallangan dumaloq yog`och materiallari saqlanadi.

Nam usul yog`och namligini po`sloqda butun issiq davr mobaynida saqlashni ta'minlashi lozim. Nam usulda saqlash va himoya qilishga quyidagi:

- yog`och po`slog`ini shilmasdan;
- g`o`lalarni zich taxlab;
- toresini zamazka bilan himoyalab;
- toreslarini soyaga qaratib;
- shtabellar orasidagi intervalni berkitib;
- muzlatib va qor bostirib;
- yomg`irda va suv bostirib saqlash kiradi.

Saqlashning u yoki bu usuli ishlab chiqarish imkoniyatlariga qarab tanlanadi. Dumaloq yog`och materiallarni zich shtabellar tarzida saqlaganda mexanizatsiyalashtirilgan sun'iy yomg`ir qurilmasi yordamida yomg`ir yog`dirib (suv purkab) turiladi. Havo temperaturasi ko`tarilib, mo`tadil issiq sharoit vujudga kelishi bilan (havo temperaturasi 5°C va undan yuqori ko`tarilganida) yog`ochlar sun'iy yomg`ir bilan namlab turiladi. Nina bargli daraxt yog`ochlarini saqlashda purkaladigan suvning yarmidan ko`pini g`o`la va g`o`lachalarning toresiga qaratib purkash lozim.

Yog`och namligini saqlashning qo`shimcha usullaridan biri yog`och toresiga namlikka chidamli zamazka surkashdir. Namlikni saqlash zamazkasini surkashdan oldin yog`och materiallarining toreslari muzdan, qordan va loydan tozalanadi hamda quritiladi.

Yog`ochni namligini doim saqlash uchun suv bostirish usulidan foydalaniladi. Yog`och materiallari kemalar qatnaydigan va yog`ochlar oqiziladigan daryolarning suvli bo`shliqlarida, hovuzlarda, ko`lmaklarda hamda suv bilan sun'iy to`ldirib turiladigan havzalarda suvga cho`ktirib saqlanadi. Sun'iy hovuzlarga yogochlar suv quymasdan avval joylashtiriladi.

Quruq yo`llardan keltirilgan po`sti tozalangan va dumaloq holatda ishlatischga mo`ljallangan yog`och materiallari quruq usulda saqlanadi. Quruq usulda yog`och materiallari qator-qator qilib shtabellarga taxlanadi, toreslari bo`yoq bilan bo`yalib, soyada saqlanadi.

Yog`ochlarni saqlash va himoyalash vositalari yog`och materiallarining turiga qarab ularning zamburug`lar, hasharotlarga hamda yorilishiga chidamlilagini hisobga olib tanlanadi.

Arralangan materiallarning xarakteristikasi. Geometrik shakli hamda ko`ndalang kesimi bo`yicha arralangan materiallar bruslar, taxtalar, shpallar, pushtaxta, zagotovkalarga ajratiladi.

Bruslar - qalinligi va kengligi 100 mm dan ortiq bo`lgan arralalangan materiallardir. Arralangan (tilingan) tomonlariga qarab bruslar ikki kantli, uch kantli va to`rt kantli bo`lishi mumkin.

Brusoklar - qalinligi 100 mm gacha va kengligi qalinligidan ko`pi bilan ikki martadan ortiq bo`lmagan, yonlari tilingan arralangan materialdir.

Taxtalar kengligi qalinligidan ikki marta ortiq va qalinligi 100 mm gacha bo`lgan arralangan materiallardir.


Shpallar - temir yo`llarning relslari uchun tayanchlar sifatida ishlatiladigan arralangan materiallardir.

Shpallar yon chetlari olingan va yon chetlari olinmagan bo`lishi mumkin.

Pushtaxta g`o`lani bo`yiga tilganda chiqadigan yon qismi. Nina bargli daraxt turlarining pushtaxtalari tog` shaxtalarida va konlarida mahkamlash materiallari sifatida ishlatilib, obapol deb ataladi. Obapol taxtali va pushtaxtali xillarga ajratiladi. Taxtali obapol bo`yiga tilingan g`o`ladan, yon qismidan chiqqan arralangan mahsulot bo`lib, bir yog`i arralangan va ikkinchi tomoni arralanmagan yoki to`liq tilinmagan sirtga ega bo`ladi. Pushtaxtali obapolda faqat bir tomoni tilingan bo`ladi.

Umumiy ishlarga mo`ljallangan arralangan materiallar o`lchamlari bo`yicha yupqa (qalinligi ko`pi bilan 32 mm gacha bo`lgan) va qalin - qalinligi 35mm va undan ortiq (yaproqli daraxtlar), 40 mm va undan ortiq (nina bargli daraxt yog`ochida) xillarga ajratiladi. Yaproqli daraxt yog`ochining arralangan materiallar uzunligi bo`yicha kalta- 0, dan 0,9 m gacha; o`rtacha 1, 0-1,9 m uzun, 0,2-6,5 m xillarga ajratiladi; nina bargli daraxt arralangan materiallarning uzunligi (0,25 m gradatsiya bilan) 1-6,5 m bo`ladi. Arralangan materiallarning nominal o`lchamlari namligi 15% bo`lgan yog`och uchun belgilangan.

Arralangan materiallar ishlanish xarakteriga qarab yon chetlari olinmagan, ikkala yon chetlari olingan va bir yon cheti olingan taxtalarga ajratiladi. Yon chetlari olinmagan va yon chetlari olingan taxta uchun standartlarda yo`l qo`yilgan obzoldan katta obzolli arralangan materiallar yon chetlari olinmagan taxta deyiladi; to`rtala tomoni olingan va obzol qismi yo`l qo`yiladigan kattalikdan ortiq bo`lmasa, yon chetlari olingan taxta deb ataladi. Bir yon cheti olingan taxtada bitta arralangan qirra bo`ladi. yon chetlari olingan taxtalarda obzol (g`o`laning yon sirti) qismi to`mtoq yoki o`tkir qirrali bo`lishi mumkin. Arralangan materiallarda quyidagi elementlar: plastlar, qirra, qovurg`a, tores bo`ladi.



4-rasm. Tilingan materiallarning turlari.

a-ikki kanatli brus, b-uch kanatli brus, v-to`rt kanatli brus, g-yon chetlari olinmagan taxta, d-chetlari olingan taxta, e-chetlari olingan to`mtoq qirrali taxta, j-yon chetlari olingan o`tkir qirrali taxta, z-brusok, i-pushtaxta, k-gorbilli taxta, l-yon chetlari tilingan shpal, m-yon chetlari olingan shpal: taxta elementlari: 1-yuza, 2-yoni, 3-qirrasi, 4- toresi.

Plast – arralangan materialning bo`ylama keng tomoni, shuningdek, kvadrat kesimli arralangan materialning har qaysi tomoni. Arralangan materialning eng yaxshi plasti eng kam nuqsonli va eng yaxshi ishlov berilgan qismi hisoblanadi. Arralangan materialning o`zakka qaragan tomoni ichki, po`sloqostiga qaragan tomoni sirtqi plast deb ataladi.

Eni - arralangan materialning uzun ensiz tomoni.

Qirra - arralangan materialning ikki yonma-yon tomonining kesishish chizig`i.

Tores - arralangan materialning uchidagi ko`ndalang tomoni.

Ishlanish darajasiga qarab arralangan materiallar frezalanmagan va frezalangan xillarga ajratiladi. Vazifasiga ko`ra frezalangan arralangan materiallar turlicha ko`ndalang kesimli bo`lishi mumkin.

Taxta xodaning qaysi joyidan tilinganligiga qarab, o`zak taxta, markaziy taxta va yon taxtalarga bo`linadi.

O`zak taxtada o`zak va ko`p miqdorda har xil (sog`lom, berkilib ketgan va chirigan) ko`zlar bo`ladi. Usti po`sloq bilan berkilib ketgan, sog`lom, yorilgan oqish rangli ko`zlar ham yog`ochning sifatini va mexanikaviy xossalalarini pasaytiradi. O`sib


turgan daraxtlarning o`zagida ko`pincha yoriqlar paydo bo`ladi. Bunday taxtalar ko`pincha yorilib ketadi. O`zak taxtalar ko`pincha, yo`g`on xodalardan 40 mm va undan qalin qilib tilinadi.

Markaziy taxtalarda o`zak uning o`qi bo`yicha tilingan bo`ladi. Markaziy taxtalarni tilishda taxtaning ichki yuzida nuqsonlar yanada yaqqol ko`rinadi.

Markazii taxtalardagi hamma yillik qatlamlar qirqilgan bo`ladi, shu sababdan bu taxtalar o`zak taxtalariga nisbatan kamroq yoriladi. Yon taxtalar xodanining o`zak taxta bilan pushtaxta yoki markaziy taxtalar bilan pushtaxta orasidagi yon qismidan chiqadi, yon taxtalarda ko`zlar kam bo`ladi, tarmoqlangan ko`zlar bo`lmaydi va ko`p miqdorda po`stloq osti yog`ochidan iborat bo`ladi, shu sababdan yon taxtalar yadro taxtalariga nisbatan suvni yaxshi o`tkazadi. Yon taxtalar yaxshi ishlanadi va toza sirt hosil qiladi, yon taxtalarda jarohatlar kam bo`lganligi uchun o`zak va markaziy taxtalariga nisbatan yaxshi sifatliligi bilan xarakterlanadi.

Tilinish xiliga qarab arralash materiallari ikki gruppaga: gruppaviy hamda yakka tartibda tilingan taxtalarga ajratiladi (5-rasm).

Xodalarni gruppaviy tilish har bir xodanining alohida xususiyatlarini hisobga olmay, arralangan materiallarni ko`plab tayyorlashda qo`llaniladi. Xodani bunday tilishda taxtalar yillik qatlamga nisbatan plastlar yo`nalishi va yonlari hisobga olinmagan holatda tayyorlanadi. Bunday arralangan materiallarning sifati ishlanish nuqsonlari va jarohatlari bo`yicha baholanadi. Yakka tartibda tilingan arralangan materiallar radial, tangensial va tashkil etuvchilarga parallel tilingan taxtalarga ajratiladi.



5-rasm. Tilish turlari va taxta turlari

a-gruppaviy tilish; b-j-yakka tartibda tilish.

1-o`zak taxta, 2-markaziy taxta, 3-yon taxta.

Nina bargli daraxtlardan tayyorlangan arralangan materiallar (ГОСТ 8486-86) qarag`ay, archa, oq qarag`ay, tilog`och va kadr yog`ochidan tayyorlanadi.

O`lchamlari. Gradatsiyasi 0,25 m bo`lgan arralangan materiallarning uzunligi 1 dan 6,5 m gacha, taralar uchun 0,1 m gradatsiya bilan 0,5 m dan uzun bo`ladi. Shpallar tayyorlashda ishlatiladigan arralangan materiallarni 2,75 m uzunlikda chiqarishga ruxsat etiladi.

Nina bargli arralangan materiallardan 3 mm gradatsiya bilan 13-25 mm qalinlikdagi taxtalar; 5 mm gradatsiya bilan 32, 40 dan 45 mm gacha qalinlikdagi taxtalar; 50, 60, 70, 75 va 100 mm li brusoklar 130, 150, 180, 200, 220 va 250 mm li bruslar ishlab chiqariladi.

Arralangan materiallarning sifati nuqsonlariga, sirtining g`adir-budurligiga va boshqa sabablarga bog`liq. Taxta va brusoklar (ГОСТ 8486-86) beshta sortga (sara; 1; 2; 3; va 4-sortlarga); bruslar to`rt (1; 2; 3 va 4-sortlarga) sortga ajratiladi.

Yaproqli daraxtlardan tayyorlangan arralangan materiallar qattiq va yumshoq daraxt turlaridan tilinadi (ГОСТ 2695-91).

Yaproqli arralangan materiallar ko`ndalang kesimining o`lchamlari bo`yicha bruscha va taxtalarga ajratiladi. Taxtalar o`z navbatida yupqa (qalinligi 32 mm gacha bo`lgan) va qalin (qalinligi 35 mm dan ortiq bo`lgan) taxtalarga ajratiladi. Uzunlik bo`yicha arralangan materiallarning quyidagi o`lchamlari belgilangan: qattiq turdag'i yaproqli daraxtlardai 0,1 m gradatsiya bylan 0,5-6,5 m; yaproqli yumshoq daraxt turlaridan va qayindan 0,1 m gradatsiya bilan 0,5 dan 2,0 m gacha; 0,25 m gradatsiya bilan 2,0 dan 6,5 m gacha. Arralangan materiallar 13-35 mm qalinlikda 3 mm gradatsiya bilan, 40 dan 80 mm gacha bo`lganlari 5 mm gradatsiya bilan va 80 dan 100 mm gacha qalinlikdagilari esa 10 mm gradatsiya bilan tayyorlanadi. Yon chetlari olingan taxtalarning kengligi 60, 70, 80, 90, 100, 110, 130, 150, 180 va 200 mm; yon chetlari olinmagan va bir yoni olingan arralangan materiallarning kengligi 50 mm va undan ortiq (10 mm dan ortiq gradatsiyali) bo`ladi. Yonlari olinmagan va bir yoni olingan ensiz plastning kengligi kamida 40 mm bo`lishi kerak. Qalinlik, kenglik va uzunlik bo`yicha yo`l qo`yilzdigan chetga chiqishlar nina bargli arralangan materiallar uchun belgilanganga teng.

Ish joyiga yetkazib beriladigan arralangan materiallarning namligi 22% dan ortiq bo`lmasligi kerak. Namligi yuqori bo`lgan arralangan materiallar iste'molchining roziligi bilangina keltiriladi.

Arralangan materiallar sifati bo`yicha uch sortga ajratiladi.

Zagotovkalar. Ishlanmagan detallarning gabarit o`lchamlariga moslab, hamda quriganida hajmi kichrayishiga, randalanishiga va (qirqilgan uchining yo`nalishiga qo`ym qoldirib kesilgan taxta va bruslar zagotovkalar deb ataladi.

Umumiy ishlarga mo`ljallangan zagotovkalar qurilishda, vagon qurilishida, mebellar, qishloq xo`jalik mashinalarining detallarini tayyorlashda, kemasozlikda, samolyotsozlikda, parket qoplamlari tayyorlashda ishlatiladi.

Zagotovkalar hamma asosiy nina bargli va yaproqli daraxt turlaridan tayyorlanadi.

Zagotovkalar ishlanishiga ko`ra: arralangan - arralash yo`li bilan hosil qilingan; yelimlab yopishtirilgan - mayda zagotovkalarni bo`yiga, eniga va qalinligiga yopishtirish yo`li bilan tayyorlangan; kalibrangan - kerakli o`lchamgacha ishlov berilgan bo`lishi mumkin.

Yaproqli va nina bargli daraxtlardan tayyorlangan zagotovkalarning o`lchamlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Zagotovkalarning o`lchamlari, mm

Turi	Qalinligi	Eni
Nina bargli (ГОСТ 9685-91)	7, 10, 13, 16, 19, 22, 25, 32, 40, 50, 60, 75, 100	40, 50, 60, 70, 75, 80, 90, 100, 110, 130, 150, 180, 200
Yaproqli (ГОСТ 7897-91)	10, 13, 16, 19, 22, 25, 28, 32, 35, 40, 45, 50, 55, 60, 65, 70, 75	25, 28, 32, 35, 40, 45, 50, 55, 60, 65, 70, 75, 80, 90, 100, 110, 130, 150

Yaproqli daraxtlardan donali parket uchun kengligi 5 mm gradatsiya bilan (oralatib) 40 dan 70 mm gacha va uzunligi 50 mm gradatsiya bilan 0,17 dan 0,47 m gacha bo`lgan zagotovkalar tayyorlash mumkin.

Nina bargli daraxtlardan 7 dan 100 mm gacha qalinlikda va kengligi qalinligidan ikki marta ortiq bo`lgan zagotovkalar taxta-zagotovka deb, qalinligi 20 dan 100 mm gacha va kengligi qalinligidan ko`pi bilan ikki marta ortiq bo`lgan zagotovkalar brusok-zagotovka deb ataladi. Nina bargli daraxtdan tayyorlangan zagotovkaning 0,5 m, yaproqlilarining 0,3 dan 1 m gacha uzunligiga 50 mm gradatsiya to`g`ri keladi; zagotovka uzunligi 1 m dan ortiq bo`lganida gradatsiya 100 mm bo`ladi. Uzunligi karrali darajada bo`lgan zagotovkalarni yetkazib berishga ruxsat etiladi.

Nina bargli yog`och zagotovkalarini to`rt gruppada, yaproqli yog`och zagotovkalarini uch sortda ishlab chiqariladi. Nuqsonlarning yo`l qo`yiladigan o`lchamlari va miqdorlari ГОСТ 9685-91 va ГОСТ 7897-91 da ko`rsatilgan.

Zagotovkalar sirtining g`adir-budurligi 2-sinfdan past bo`lmasligi, kalibrangan zagotovkalarniki esa 4-sinfdan past bo`lmasligi kerak. Zagotovkalarni torsovkalash zagotovkaning bo`ylama o`qiga perpendikulyar bajarilishi lozim. Toreslarning perpendikulyarlikdan og`ishi zagotovkalarning qalinlik va kenglik o`lchamlariga muvrfiq 5% dan ortmasligi kerak. Kalibrangan va yelimlangan zagotovkalar berk quruq xonalarda saqlanadi.


Randalash stanoklarida ishlov berilgan kalibrangan zagotovkalar frezalangan zagotovkalar deb ataladi. Frezalangan materiallarga bo`lgan ehtiyoj arralangan materiallarni ishlab chiqarishning umumiy miqdorining 1/4 qismiga yaqinini tashkil qiladi. Frezalangan zagotovkalar oliy, 1- va 2-sortdagi nina bargli va yaproqli

daraxtlar yog`ochidan tayyorlanadi. Frezalangan zagotovkalar quyidagi afzalliklarga ega:


- ishlangan sirtdagи nuqsonlar yaqqol ko`rinib turadi, bu esa zagotovkaning sifatini to`g`ri baholashga va vazifasini belgilashga yordam beradi.
- zagotovka sirtdagи dog`lar, obzollar va boshqa nuqsonlar ishlov berib ketkazilsa, uning sorti ko`tariladi;
- tashishda egallaydigan hajmi kichik bo`ladi.

Frezalangan zagotovkalar tores qirqimi bo`yicha: tekis profilli, o`yiq va taroqli; zakrovli, shakldor profilli o`yiq va taroqli turlarga bo`linadi.

Toreslari yelimlab biriktirilgan zagotovkalar (ГОСТ 17168-91) uchma-uch, yarmi yo`nilgan ustma-ust, yarmi kertilgan bosqichli ustma-ust, yarmigacha kertib, uchlari to`mtoqlashtirib ustma-ust, tishli yelimlab biriktirish, vertikal tishli yelimlab biriktirish, gorizontal tishli yelimlab biriktirish, bosqichli yelimlab biriktirish, shuningdek shipli yelimlab biriktirish yo`li bilan bajariladi.



6-rasm. Frezalangan zagotovkalarining kesimi bo`yicha asosiy profillari:
a-yassi profilli; b-ariqcha va taroqli; v-zakovli; g-shakldor profilli.



7-rasm. Zagotovkalarining toreslarini yelimlab yopishtirish
a - uchma-uch, b - qiya uchlari yo`nib, v - qiya uchlari yo`nib, bosqichli qilib, g - qiya uchlari to`mtoqlashtirib, bosqichli qilib, d, e, z - tish chiqarib, yelimalab yopishtirib, j - vertikal tishli yelimalab biriktirish, i - bosqichli yelimalab biriktirish; α - qiyalik burchagi, L - yo`nish uzunligi.

I.5. Konstruksion material sifatida qurilishda, mebel va duradgorlik buyumlarida, musiqa asboblari, ro`zg`or asbob-anjomlari ishlab chiqarishda buyumlarga xomashyo tanlash.

Musiqiy asboblarni ishlab chiqarish uchun yog` och turlari – an'anaga ko`ra, musiqa asboblari yuqori sifatli rezonans xususiyatlari ega materiallardan tayyorlanadi, ular tabiiy muhitda ko`p yillar davomida akustik fazilatlarni va barqaror tuzilmani saqlab qolish uchun eskirgan. Rezonansli daraxt faqat sovuq mavsumda yig`ib olinadi. Qoraqarag`ay va archa musiqli xususiyatlari ko`ra noyobdir. Ovoz pultini yaratish uchun deyarli barcha musiqa asboblari uchun xomashyo archadan olinadi. Mutaxassislar rezonansli o`tin deb ataladigan narsalarga alohida e'tibor berishadi. Daraxt tanasida kamchiliklar bo`lmasligi va bir xil ko`p yillik halqalarga ega bo`lishi kerak. Musiqli asboblarni ishlab chiqarishda yog`ochning rezonans xususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Bunday holda, Kavkaz va Sibir sadrining archa magistrali, boshqa archalarga qaraganda ko`proq mos keladi, chunki ularning radiatsiya kuchi eng katta. Shuning uchun ushbu turdag'i yog`och turlari GOSTga kiritilgan. Musiqli asboblarni yaratishda zarur talablardan biri daraxt tanlashdir. Ko`p asrlar davomida ustalar uchun katta qiziqish bu qoraqarag`aylarning rezonansli turlari edi. Kerakli sifatli xom ashyni sotib olish juda qiyin edi, shuning uchun hunarmandlar asboblarni tayyorlashda mustaqil ravishda yog`och yig`ish bilan shug`ullanishlari kerak edi. Ko`p vaqt oldin, kerakli xususiyatlarga ega bo`lgan archa o`sadigan joylar ma'lum bo`ldi. Yigirmanchi asrning rus yo`nalishidagi asosiy skripka ustasi E. F. Vitachek o`z asarlarida archa o`sadigan hududlarni belgilab bergan. Sakson va Bogemiya turlarida ko`p miqdordagi smolalar iste'mol qilindi, uni yuqori darajadagi asboblarni ishlab chiqarishda ishlatib bo`lmaydi... Italiya va Tirolidan olingan archa eng yaxshi xom ashyo hisoblanardi. Italiyadagi Fume yaqinidagi tog`larda o`rmonlar zo`rg`a o`sadi. Shuning uchun, qoraqarag`ay Italiyadan emas, balki Xorvatiya yoki Bosniyadan kelgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Shuningdek, qoraqarag`ay Italiyadan kelgan usta uchun olib kelingan qo`shimcha hudud - bu Qora dengiz port shaharlari - Rossiya, Kavkaz va Karpatning qoraqarag`aylari bo`lgan. Vitachek yozganidek, N. Amati ishlaganligi sababli, qoraqarag`aylar og`irroq, zichroq va qo`pol vositalar ko`pincha asboblarning haddan tashqari ustunlarida ishlatiladi va zarang, aksincha, past zichlikka ega. Bu juda yaxshi kombinatsiya: ovoz inson ovoziga o`xshaydi. Italiyalik hunarmandlar har doim shunchaki zarang va archa daraxtining bunday kombinatsiyasidan foydalanishgan.

Biroq, qoraqarag`ay bunday xususiyatlarga ega bo`lishi mumkin, agar u dengiz sathiga nisbatan to`g`ri darajada o`ssa, ya'ni Alp tog`lari yoki Kavkazda. Kavkaz va Kichik Osiyoning baland tog`larida bir kilometrdan ikki yarimgacha balandlikda o`sadigan "Picea orientalis" zoti, o`zining sifati bilan Yevropa tog`laridagi eng yaxshi archa turlariga o`xshaydi. Yigirmanchi asrning boshlarida taniqli rus skripkalari

ishlab chiqaruvchilari asboblarni yaratish uchun ko`p hollarda Kavkazdan archa olib ketishgan.

Musiqiy asboblarni ishlab chiqarishda ishlatalidigan yog`och turlari – arzon narxlardagi kesilgan asboblarni yaratishda, yog`ochni qayta ishslash zavodlari, uylarning yog`och va taxtalari, mebel qismlari va chiqindilarni qadoqlash chiqindilaridan foydalanish mumkin. Ammo bu materiallar maxsus quritish va tanlovga muhtoj. Yuqori sifatli vositalarni yaratishda noyob daraxt turlaridan foydalanish lozimdir.

Archa – instrumental pastki va boshqa qismlar rezonans xususiyatlariga ega bo`lgan qoraqarag`aylardan qilingan. Qoraqarag`ayning har xil turlari, Rossiyaning deyarli hamma joylarida o`sadi, asosan Rossiyaning markaziy qismida archa aks sado sifatida qabul qilinadi. Rossiyaning shimolidagi archa daraxtlari ko`proq mashhur bo`lib, ular fizik va mexanik xususiyatlariga ko`ra yaxshiroqdir. Eng yaxshi afzalliklardan biri - daraxtni bahorli va rezonansli qiladigan kichik o`sish halqalarining mavjudligi. Rezonansli daraxtlar o`rmon xo`jaligining omborlarida tayyorlangan yog`ochning asosiy qismidan tanlanadi. Ushbu loglar arra maydalagichlariga boradi, u erda ular 16 mm taxtalarga o`raladi. Ko`proq yog`och sotib olish uchun loglar oltita bosqichda kesiladi. Musiqiy asboblarni uchun yog`ochda tugunlar, smolalar bo`lgan tugunlar, yoriqlar va boshqa kamchiliklar bo`lmasligi kerak. Bu qat’iy sifat talabidir. Qoraqarag`ay o`ti oq rangga va xira sariq rangga ega bo`lib, ochiq havo bilan aloqa qilganda vaqt o`tishi bilan u sarg`ayadi. Qoraqarag`ayni tekislash va maydalash, toza kesish muammosiz amalga oshiriladi. Silliqlash(pardozlash) yog`och yuzasiga baxmal rang beradi va xira matoviy rangini beradi.

Pixta – qarag`aydan tashqari, rezonansli xomashyo ishlab chiqarish uchun Kavkazda ham archa o`sadi. Tashqi tomondan ham, fizik-mexanik parametrlaridan ham boshqa archa turlaridan unchalik farq qilmaydi.

Qayin(beryoz) daraxti – qayin o`rmonlari Rossiya o`rmonlarining umumiy sonining uchdan ikki qismini tashkil qiladi, sanoat ishlab chiqarishida esa qayinli va qayinli qayin ishlatalidi. Qayin daraxti oq rangga ega, ba`zida sarg`ish yoki qizg`ish rangga ega va oson ishlov berilishi mumkin. Tonlama paytida bo`yoq teng ravishda so`riladi va ohang bir tekis bo`ladi. Agar qayin daraxti bir tekis quritilsa va yetarli vaqtga bardosh bermasa, unda u cho`l va perchlar kabi cholg`u asboblarni ishlab chiqarishda ishlatalishi mumkin. Bundan tashqari, gitara korpuslarini tayyorlash uchun qayindan faneralar tayyorlanadi. Asboblarni toza yoki rangli qayin shpon bilan bezatiladi.

Olxa (buk) daraxti – ko`pincha musiqa asboblarni ishlab chiqarishda ishlatalidi. Musiqa sanoatidagi burmalarning qismlari, ustunlar, g`ovaklar va boshqa kesilgan qismlar olxa daraxtidan qilingan. Olxa Rossiyaning janubi-sharqiy qismida

o`sadi. Mo`ylovli yog`ochning rangi naqshinkor naqsh bilan pushti rangga ega. Olxaning yaxshi rezonans xususiyatlari uni asboblarni yaratishga moslashtiradi. Olxa daraxti yog`ochiga qo`lda ishlov beriladi. Sirtda bo`yash paytida, shaffof lak bilan ishlov berilganidan keyin ko`rinadigan chiziqlar qoladi.

Zarang daraxti – rezonansli archa kabi qimmatbaho musiqa asboblarni yaratishda talab ancha katta. Oqartiruvchi simli cholg`ular yaxshi ovoz beradi. Oqartiruvchi chinor va qobiq turlari eng keng tarqalgan. Ushbu turlar Qrim yarim orolida, Kavkaz etaklarida va Ukrainada o`sadi. Zarang daraxti mukammal egilib, uning yog`och pulsasi sezilarli zichlik va yopishqoqlikka ega. To`qima pushti-kulrang tusda quyuq rangdagi chiziqlardir. Lakni zarang zARBIGA qo`llashda chiroyli marvarid yuzasi olinadi. Agar rang berish to`g`ri bajarilgan bo`lsa, zarangning bu xususiyati yaxshilandi.

Qizil daraxti – ushbu nom turli xil qizil soyalarga ega bo`lgan bir nechta yog`och turlarini o`z ichiga oladi. Bu asosan Markaziy Amerikada o`sadigan mahganya deb nomlanadigan daraxtdir. Ushbu daraxt turi shuningdek mexanik xususiyatlarga ega bo`lganligi sababli, ko`katlar uchun ham ishlatiladi. Agar magistralni kesib o`tsangiz va shaffof qoplama qilsangiz, u juda chiroyli ko`rinadi, ammo ishlov berish uchun noqulay.

Palisandr daraxti- Janubiy Amerikada o`sadigan bir nechta zotlar. Palisandr yog`ochlari kesish va qoplashga yordam beradi. Qayta ishslash jarayonida maxsus shirin hid paydo bo`ladi. Palisandr juda qattiq va kuchli tolalarga ega, binafsha rangdan shokoladgacha rangi bor, u torli asboblarni yaratishda ishlatiladi.

Qora daraxti (черное дерева) – janubiy Hindistonda o`sadigan ebony turi. Eng yaxshi xashak va holatlar qora daraxtdan qilingan. Yog`ochning eng yuqori mexanik fazilatlari asboblarni kerakli quvvat va qattiqlik bilan ta'minlaydi. Qora yog`ochdan foydalanganda bo`yining og`irligi oshganda, asbobning og`irlik markazi bo`yin tomon siljiydi va bu professional ijrochilar tomonidan juda qadrlanadi. Tegishli parlatma bilan qorejagan karapas, mediator ipdan sakrab chiqsa, ortiqcha ohanglardan qochish imkonini beradi.

Zamonaviy an'anaviy kamon tayyorlash – zamonaviy dunyoda an'anaviy kamonlar dam olish va ko`ngil ochish sohasida, ochiq havoda va bino ichida tortishish uchun ishlatiladi; tarixiy qayta qurish elementi sifatida, rol harakatlarida, navbatli bilan turli tortishish sport klublari tashkil etilgan. Musobaqalar, ov va baliq ovlash uchun ishlatiladi. Ushbu turdagи faoliyatning ommaviyligi ishlab chiqarishda soddaligi har qanday maxsus cheklovlar (jismoniy, tashkiliy, qonunchilik) yo`qligi, ushbu faoliyat sohasidagi insoniyatning boy va keng tarixiy merosi va ochiqligi bilan ishlab chiqarish jarayonini yengillashtiradi.



8-rasm. O`q yoy

Kamon har doim urush paytida va oziq-ovqat olish paytida odam bilan birga edi. Bugungi kunda kamondan o`q otish klublari MDH, Evropa, Amerika va Osiyoning deyarli barcha shaharlarida mavjud. Zamonaliv an'anaviy kamonlar (agar siz tabiiy materiallarning tarixiy rekonstruktsiyasini amalga oshirmsangiz) ko`pincha tashqi ko`rinish va shaklda o`zlarining tarixiy ajdodlariga o`xshaydi. Yangi materiallar va texnologiyalar sizga kamonni yanada ishonchli, tezroq, bardoshli va ko`pincha yaxshiroq ishlashga imkon beradi.

Uy-ro`zg`or anjomlari – endi plastmassa buyumlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo iqtisodiyotning barcha sohalarida va sanoatning zaruriy qismiga aylanmoqda, chunki bu material asbob-uskunalar, uy-ro`zg`or buyumlari, mebel va boshqa uy-ro`zg`or buyumlarini yaratishda keng foydalanimoqda.

Plastik – bu sintetik yoki tabiiy polimer birikmalariga asoslangan organik material. Ushbu materialning o`ziga xos xususiyati shundaki, u ta'sirga tushadi, osongina eriydi va bosim yoki yuqori harorat ta'sirida sovutgandan keyin saqlanib qoladigan yangi shaklga ega bo`ladi.

Plastmassa komponentlari – har qanday plastik mahsulotda polimer ajralmas qismdir. Biroq, ushbu materialning juda oz qismi faqat polimerlardan iborat, odatda unga turli xil aralashmalar qo`shiladi - plomba moddalari, bo`yoqlar va stabilizatorlar. Polimer birlashtiruvchidir, polimer molekulalari fazoviy panjara bilan bog`langan. Polimerlar sintetik va tabiiy bo`lishi mumkin. Kraxmal, oqsil va sellyuloza kabi polimerlar tabiiydir, ammo ular sintetik materiallarga qaraganda kamroq qo`llaniladi.

Qayta ishslash turiga qarab ikki xil polimer mavjud:

- Termoplastik - muqobil sovutish va isitish vaqtida ko`p marta yumshatadigan va qotib qoladigan polimerlar. Odatda, bunday materiallar organik suyuqliklarda oson eriydi. Termoplastik polimerlarga polistirol va polietilen kiradi.

•Termosetting. Ushbu polimerlar haroratga sezgir, ammo ular faqat 1 marta ishlataladi. Ular organik moddalarda erimaydi va bardoshlidir. Ushbu turga karbid va fenol-formaldegid polimerlari kiradi.

Uy-ro`zg`or buyumlarini qurish va ishlab chiqarishda termoset xom ashylari ko`proq ishlataladi, chunki ular eng yaxshi operatsion xususiyatlariga ega. Ishlab chiqarishda faol ishlataladigan polimerlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

•Polimerizatsiya – yuqori haroratli ishlov berish mahsulotlaridan olingan polietilen. Material egiluvchanlikni yaxshi saqlaydi va turli xil kislotalar va erituvchilarga chidamli.

•Polivinilxlorid – qurilish sohasida keng tarqalgan polimer. Yuqori haroratga bardosh beradi, faqat 200 daraja haroratda eriydi. Linolyum, har qanday pardozlash plyonkalari, quvurlar, plintuslar, sun'iy teri ushbu xom ashyodan olinadi.

•Poliistirol kuchli, ammo mo`rt materialdir. Undan issiqlik izolatsiyasi va qoplamlali plitkalar tayyorlanadi.

•Fenol formaldegid polimerlari qurilishda ishlataladigan birinchi sintetik materiallardir. Ular yelim, lak va bo`yoqlarni ishlab chiqarishda faol qo`llaniladi.

•Karbamid – formaldegid polimerlari eng arzon plastik xom ashyo turidir. Ular juda bardoshli bo`lishiga qaramay, suvgaga tushganda tezda muvaffaqiyatsiz bo`ladi va yomonlashadi.

•Poliefir polimerlar – laklar va bo`yoqlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo. Guruhga tor doiradagi epoksid polimerlar kiradi, ular yuqori narxga ega va hamma joyda ishlatalishi mumkin emas.

•Organosilikon moddalar – barcha kremniy asosidagi polimerlar. Moddalar kimyoviy va termal qarshilikka ega, turli xil silikatlar bilan yaxshi ishlaydi. Ular bo`yoqlar va himoya qoplamlarini ishlab chiqarishda, shuningdek yuz qoplamlali buyumlarni ishlab chiqarishda qo`llaniladi.

Plastik buyumlar ishlab chiqarish texnologiyalari

Plastmassa quyidagi usulda ishlab chiqariladi:

•Quyish – bu texnologik jarayon, uni amalga oshirish jarayonida plastmassa uchun xom ashyo suyuq holatga aylanadi. Shundan so`ng, u maxsus shakllarga quyiladi. Ish yuritish buyumlari, idishlar va har qanday uy-ro`zg`or buyumlarini yaratish uchun foydalilanadi.

•Puflash – suyuq holatda qizdirilgan material ochiq shaklda beriladi, shundan so`ng darhol yopiladi. Bundan tashqari, havo devorlar bo`ylab mog`orni yuqtirish uchun qolipa kiradi.

•Vakuum shakllanishi. Jarayon list materiallarini havo bosimiga ta'sir qilishni o`z ichiga oladi.

•Ekstruziya eng keng tarqalgan usul. Plastik yumshatiladi va hosil qiluvchi vositaning teshigi orqali itariladi.

Plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasidan qat'iy nazar, xom ashyolardan eng yuqori sifatli foydalanish kerak. Yaxshi xom ashyo bir yildan ko`proq davom etadigan sifatli narsalarni olishning kalitidir.

II. BOB. Yog`ochga ishlov berish texnologiyasi, yog`ochdan tayyorlanadigan xomashyolar.

II. 1. Rossiya va uzoq sharq yerlarida o`s stiriladigan daraxtdan tayyorlangan yog`och turlari va xomashyosi, ularning o`rnini bosadigan mahalliy daraxt turlari.

Daraxt turlari – daraxt turlarining ikkita katta guruhi bor: ignabargli va bargli. Qarag`ay, qoraqarag`ay, sadr, listvennitsa, archa, archa ignabargli turlarga kiradi. Qattiq daraxtlar qatoriga eman, qayrag`och, qayin, oqsoqol, alder, jo`ka, olxa, yong`oq, shox, chinor va boshqalar kiradi.



Qarag`ay daraxti

Qarag`ay – eng keng tarqalgan ignabargli daraxt. Yog`ochining rangi jigarrang, qizg`ish, sarg`ish va yengil oq rangga ega bo`lishi mumkin. Eng yaxshi material tepaliklarda, quruq adirlarda, qumtoshlarda o`sadigan daraxtlardan olinadi; yillik qatlamlar bir-biriga yaqin joylashgan va yog`och zikh tuzilishga ega.

Nam joylarda o`sadigan qarag`ay daraxtining tuzilishi yumshoqroq. Quruq qarag`ay - bu duradgorlik uchun yengil va moslashuvchan zotdir. Qarag`ay yog`ochlari yaxshi yopishadi. Undan mebellar tayyorlanadi, buning uchun chiroyli ko`rinishga ega tabiiy qimmatbaho yog`och tanlangan. Qarag`ay eshik, deraza, pol va boshqalarni ishlab chiqarishda keng qo`llaniladi. Yog`dan tozalashdan keyin yog`och bo`yoqlar va laklar bilan yaxshi ishlanadi. Qarag`ay mozaika va o`ymakorlik uchun ham ishlatiladi.



Listvennitsa

Listvennitsa boshqa ignabargli daraxtlar orasida alohida o`rin tutadi. U o`ta qizg`ish-jigarrang, ba'zan jigarrang tusga ega va yuqori quvvat (emandan kuchli) va namlikka chidamliligi bilan ajralib turadi. Uning kuchi qarag`ayning kuchidan taxminan uchdan bir qismidir. Shu sababli, bu qurilishda ajralmas materialdir. Listvennitsa taxta ko`p yillar davomida xizmat qilishi mumkin va lichinkadan ustun bo`lgan yog`ochni topish qiyin. Bundan tashqari, lichinka parchalanishga juda kam sezgir. Listvennitsa mebel ishlab chiqarishda ham qo`llaniladi, chunki u juda chiroyli tuzilishga ega. Listvennitsa daraxti lak urilgandan song teksturasi yaxshi ko`rinadi.



Yasen

Yasen yog`ochi emanga o`xshaydi, ammo u aniq yadro nurlariga ega emas. Rangsizlanish bilan u kulrang sochlarning soyasini oladi. Yasen yog`ochi yuqori kuchga va qattiqlikka ega, yorilishga moyil emas va chiroyli tuzilishga ega. Yadrosi ochiq

jigarrang rangga ega. Yillik qatlamlar yaxshi ajralib turadi. Ishlov berish qulayligi va shuningdek, egilish qobiliyati yuqori bo`lganligi sababli, mebel va mebel ishlab chiqarishda keng qo`llaniladi. Eshiklarni ishlab chiqarishda Yasendan foydalanish yaxshi. Bundan tashqari, Yasen daraxti rang bo`yashga yaxshi yordam beradi.



Qayrag`och
ishlatiladigan qobiqlar paydo bo`ladi.

Qayrag`och - bu qattiq, kuchli va zich daraxtdir, u yaxshi tugatilgan va sayqallangan. Chiroyli to`qimasi tufayli uning yog`ochidan mozaik ishlarida va duradgorlikda, ayniqsa oqlangan mebel ishlab chiqarishda foydalaniladi. Daraxtning tanasida ko`pincha mozaik to`plamlarida shpon sifatida



Grek yong`oqi

Grek yong`oqi daraxtlari chiroyli rang va tuzilishga ega, juda og`ir, kuchli va qattiq. Bu ayniqsa faner va mebel ishlab chiqarishda juda qadrlanadi, chunki u osonlikcha qayta ishlanadi va yaxshi polirofka qilinadi. Yangi kesilgan yong`oq daraxtlari yengil, ammo keyin asta-sekin qorayib, jigar rangga aylanadi. Binolarni, mebellarni, o`yma buyumlarni bezashda keng qo`llaniladi. Daraxt qancha katta bo`lsa, shunchalik chiroyli yog`och bo`ladi.



Eman daraxti

Eman – kuchli va zich yog`ochgaga ega, qarag`ayga nisbatan kamroq parchalanishga moyil va chiroyli tuzilishi va rangiga ega. Yadro sarg`ish jigarrang yoki to`q jigarrang. Eman daraxti to`q, rangi jihatidan yadrodan keskin farq qiladi. Kesishdagি yillik qatlamlar juda yaxshi ko`rinadi. Eman yog`ochlari osonlikcha yorilib ketadi. Ko`pincha, eman bezashda (parket, eshiklar, deraza romlari), shuningdek, duradgorlik, mebel va fanera ishlab chiqarishda qo`llaniladi.

Eman daraxti yomon polirovka qilinadi, ammo yaxshi laklanadi va kraska qilinadi. Emanni qayta ishlash ko`p harakat talab etmaydi. Suvda uzoq vaqt tursa quyuq rangga ega bo`ladi bu esa botqoq eman daraxtini qiymatini yaxshilaydi. Botqoq emanining qiymati shunchaki tasodifan aniqlanishi mumkinligi bilan belgilanadi va emanning o`zi qorayishi juda sekin, bu esa uni maqsadli ravishda suvga tushirishni axamiyatini yo`qatadi.

O`zbekistondagi o`rmonlar Sibirning tog` tizmalarini va Rossiya etaklariga o`xshamaydi. Bizning o`rmon o`simliklari asosan baland tog` yon bag`irlari va tog` daryolari vodiylari bo`ylab joylashgan. Faqatgina joylarda u tekisliklar tomon siljiydi, bu yerda odamlar bilan bo`lgan janglarda muntazam ravishda mag`lubiyatlar mavjud.

Katta daryolar bo`yidagi bir vaqtlar boy toshgan tekis to`qay o`rmonlari qoldiqlarini ba`zi joylarda siz hali ham mayda yashil orollarini topishingiz mumkin.



9-rasm. O`rta Osiyo tog` yon bag`irlaridagi butazorlar

O`rta Osiyoda archa deb ataladigan archa daraxti o`rta chiziq aholisi tushunchasida o`rmonlarga juda o`xshash. Ba`zi joylarda tog` yon bag`irlari archa bilan shunchalik zinch qoplanganki, yaqin atrofdagi daraxtlar novdalar bilan bog`lanib, o`tib bo`lmaydigan chakalaklarni hosil qiladi. Zinch archa o`rmonlari aholi yashsh joylaridan uzoq bo`lgan baland tog`larga xosdir. Mayda toshbaqalar yoki alohida archa daraxtlari ancha keng. Ba`zan bular tozalanmagan tanasi va yoyilgan tojlari bo`lgan gigantlar bo`lib, janubda juda qadrlanadigan soyani beradi. Archa o`rmonlarining havosi o`ziga xosdir - uchuvchi smolalarining boyligi tog` o`rmonining ta'riflab bo`lmaydigan hidini yaratadi, ayniqsa yoz jaziramasida, xushbo`y moddalar issiqlik tufayli yanada qiziydi.



10-rasm. Zomin dam olish maskani.

Pastki tog` zonasida o`rmon daraxti boshqa daraxt turlarini hosil qiladi. Ular orasida zarang, do`lana, olcha olxo`ri, bodom va boshqa turdag'i daraxtlarni uchratishimiz mumkin. Ko`pincha, daraxtlar yovvoyi atirgul, zirk va olcha daraxtlari

bilan chatishadi, ular o`tib bo`lmaydigan chakalakzorlarni hosil qiladi, ayniqsa suv yaqinida.




11-rasm. G`arbiy Tyan-Shan, Chotqol tizmasi. Aksakata darasi.

To`qaylar asosan cho`ldan yashash uchun mos bo`lgan tor yerlarni egallagan butalardan iborat. Shunga o`xshash o`rmonlar bizning mintaqamizga xosdir va asosan O`rta Osiyoning Sirdaryo va Amudaryoning o`rta oqimlari bo`ylab joylashgan bo`lib, u erda tog`larda to`plangan suv cho`l tekisliklaridan oqib o`tadi. Bir necha gumbazlardan tashqari butun Qizilqum cho`llari o`simplik bilan qoplangan. Ufqqa cho`zilgan shuvoqli dashtlar o`rmonlar va hatto doimiy daraxtzor va butazor o`simpliklar bilan almashtirilmoqda. Cho`l o`simpliklari o`ziga xosdir. Ular doimiy kuchli shamollarga dosh berishga, yuqori harorat va uning keskin o`zgarishiga dosh berishga, minimal suv bilan qoniqishga va namlikni har jihatdan tejashga majbur bo`lmoqdalar. Bularning barchasi cho`l daraxtlarining paydo bo`lishiga va ularning yog`och xususiyatlariiga ta'sir qiladi.



12-rasm. Oddiy cho`l o`rmoni. Qizilqum cho`lining markaziy qismi.

O`zbekistonda sanoat ehtiyojlari uchun daraxt o`stirilmaydi. Mahalliy ravishda terak va boshqa daraxt turlarini ekishdan tashqari, an'anaviy ravishda xususiy qurilish asosida qurilish uchun ekiladi. O`rmonlarimizda ommaviy ishlov berish uchun mos daraxt yo`q. O`zbekiston o`rmon vakolatlariga kirmaydi. Shunga qaramay, daraxt turlarining boyligi va xilma-xilligi hayratlanarli! Sababi shundaki, deyarli barcha o`stiriladigan va yovvoyi daraxtlarning barchasi chiroyli va qimmatbaho yog`ochni qayta ishlashga yaroqlidir. Bizda o`sadigan asosiy mevali daraxtlar - olma, olxo`ri, o`rik, anjir, nok, shirin gilos, olcha, olxo`ri. Yovvoyi daraxtlardan: yong`oq, zarang, do`lana, echki (gid), qarag`ay, bodom, gilos olxo`ri, archa va agar siz mahalliy bo`lmagan, ammo dekorativ maqsadlar va ko`kalamzorlashtirish uchun keng qo`llaniladigan ro`yxatni kengaytirsangiz, ro`yxat yuzdan oshadi. Yog`ochni ommaviy ishlab chiqarish uchun mos keladigan miqdorda qimmatbaho yog`ochni olish qiyin bo`lsa-da, lekin mayda plastmassa buyumlar, yog`och o`ymakorliklar, qutilar, uy-ro`zg`or buyumlari uchun har doim yetarli miqdordagi xom ashyni topish mumkin. Bundan tashqari, tabiatda o`tin to`plash mumkin. Shahar tashqarisida, o`rmonli tog`larda siz doimo quritilgan va mintaqalarimizda o`sadigan deyarli barcha daraxtlar va butalarning shoxlarini qayta ishlash uchun mos bo`lgan daraxtlarni topishingiz mumkin. Masalan, Toshkentliklar uchun eng sevimli dam olish maskani bo`lgan Beldersoy darasi deyarli butunlay yovvoyi va o`stiriladigan daraxtlar bilan qoplangan.



13-rasm. Texnogen o`rmon - yovvoyi daraxtlar qatoriga ekilgan olma daraxtlari. Chotqol tog' tizmasi, Beldersoy trassasi.

II.2. Yog`ochdan tayyorlanadigan buyumlar va mahsulotlarga xomashyo tanlash va tayyorlashda yog`och materiallarning xossalari va ishlatilishi.

Yog`ochning mexanikaviy xossalari uning tashqi kuchlar (nagruckalar) ta'siriga qarshilik ko`rsatish xususiyatini xarakterlaydi. Kuchlar ta'sir etish xarakteri bo'yicha statik, dinamik, vibratsion va uzoq vaqt ta'sir etadigan nagruzkalarga ajratiladi. Asta-

sekin va bir tekisda ortib boradigan nagruzkalar statik nagruzkalar deb ataladi. Dinamik yoki zarbiy nagruzkalar jismga birdaniga va zerb bilan ta'sir etadi. Qattaligi va yo`nalishi o`zgarib turadigan nagruzkalar vibratsion nagruzkalar deb ataladi. Uzok muddatli nagruzkalar uzoq vaqt ta'sir etib turadi. Tashqi kuchlar ta'siri ostida, yog`ochning ayrim zarralari orasidagi bog`lanish buziladi va uning shakli o`zgaradi. Yog`och tashqi nagruzkalarga qarshilik ko`rsatganligi uchun yog`ochda ichki kuchlar vujudga keladi: agar bu kuchlarni qirqim maydoni birligiga bo`lsak, kuchlanish kelib chiqadi.

Kuchlanish kvadrat santimetrga kilogrammlarda ifodalanadi (kgk/sm^2). Deformatsiya deb tashqi kuchlar ta'siri ostida yog`ochning shakli va o`lchamlarining o`zgarishiga aytildi. Kuch olinishi bilan yo`qoladigan deformatsiya elastik deformatsiya, nagruzka olinganidan keyin ham saqlanib qoladigan deformatsiya qoldiq deformatsiya deyiladi.

Yog`ochning mexanikaviy xossalariiga mustahkamligi, qattiqligi, deformatsiyalanishi, zarbiy qovushoqligi kiradi.

Yog`ochning mustahkamligi

Nagruzkalar va boshqa faktorlar ta'sirida vujudga keladigan kuchlanishlar ta'siridan yemirilishga materialning qarshilik ko`rsatish xususiyati mustahkamlik deb ataladi.

Yog`ochning mustahkamligi ta'sir etuvchi nagruzka yo`nalishiga, yog`ochning turiga, zichligiga, namligiga va x. k. ga bog`liq.

Yog`ochning mustahkamlik chegarasi laboratoriyalarda uncha katta bo`lmagan namunalarda aniqlanadi. Sinash usullari, shuningdek, sinaladigan namunalarning shakli va o`lchamlari GOST larda ko`rsatilgan.

Yog`ochning mustahkamligiga hujayra qobiqlaridagi bog`langan namlikkina jiddiy ta'sir ko`rsatadi. Bog`langan namlik ortishi bilan yog`ochning mustahkamligi pasayadi (ayniqsa 20 – 25% namlikda). Namlikning gigroskopiklik chegarasidan (30% dan) ortishi yog`ochning mustahkamligiga ta'sir etmaydi. Mustahkamlik chegarasi ko`rsatkichlarini faqat bir xil namlikdagi yog`ochlardagina solishtirish mumkin.

Yog`ochning mexanikaviy xossalari ko`rsatkichlari, namlikdan tashqari nagruzkaning ta'siri hamda davomiyligiga ham bog`liq. Shu sababdan yog`ochni sinash vaqtida har bir sinov uchun belgilangan nagruzka berish tezligiga amal qilinadi.

Mexanikaviy kuchlar ta'siriga ko`ra, yog`ochning mustahkamligi cho`zilishga, siqilishga, egilishga, yorilishga mustahkamlikka ajratiladi.

CHO`ZILISHDAGI mustahkamlik chegarasi. Tolalar bo`yicha cho`zilishdagi mustahkamlik chegarasining o`rtacha kattaligi hamma daraxt turlari uchun 1300 kgk/sm^2 ni tashkil etadi. Tolalar bo`yicha cho`zilishdagi mustahkamlik yog`och

tuzilishiga katta ta'sir ko`rsatadi. Tolalarning to`g`ri joylashishdan bir oz bo`lsa xam og`ishi mustahkamlikni pasaytiradi.

Yog`ochning tolalarga ko`ndalang cho`zilishdagi mustahkamligi juda kichik bo`lib, tolalar bo`yicha cho`zilish mustahkamlik chegarasining taxminan 1/20 qismiga, ya'ni 65 kgk/sm² ga to`g`ri keladi. Shuning uchun tolalariga ko`ndalang cho`zilishga ishlaydigan detallar yog`ochdan tayyorlanmaydi.

Yog`ochning tolalarga ko`ndalang mustahkamligi yog`ochni kesib ishslash va quritish rejimlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

Yog`ochning siqilishga chidamlilik chegarasi. Siqish tolalar bo`yicha va ko`ndalang siqilishga farq qilinadi. Tolalar bo`yicha siqilishdagi deformatsiya namuna bo`yining bir oz qisqarishida namoyon bo`ladi. Siqilishdagi yemirilish nam namunalarda ayrim tolalarning bo`ylama egilishidan boshlanadi va yumshoq hamda qovushoq yog`och turlari namunalarida toreslari ezilishi hamda yonlarining shishishida, quruq va qattiq yog`och turlarida namuna bir qismining ikkinchi qismiga nisbatan surilishida namoyon bo`ladi.

Tolalar bo`yicha siqilishda yog`ochning siqilishga mustahkamlik chegarasining o`rtacha kattaligi hamma tur yog`ochlar uchun 500 kgk/sm² ni tashkil qiladi. Tolalarga ko`ndalang siqilishida yog`ochning mustahkamligi tolalar bo`yicha siqilishga nisbatan taxminan 8 marta kam. Tolalarga ko`ndalang siqilishda yog`ochning yemirilish momentini aniq belgilash va yemiruvchi kuch kattaligini aniqlash qiyin.

Yog`ochning texnologik xossalari

Yog`ochning metall mahkamlagichlarni ushlab turish xususiyati, Mixlarni yog`och tolalariga perpendikulyar qoqqanda, ular tolalarni qisman qirqadi, qisman egadi, yog`och tolalari suriladi va mixning yon sirtlarini siqadi, bu ishqalanish kuchi mixni yog`ochda ushlab turadi.

Yog`ochni sinashda berilgan o`lchamdagisi mix yoki shurupni sug`urib olish uchun kerak bo`ladigan kuch kgk da yoki solishtirma kuch kgk/sm² da aniqlanadi.

Sug`urib olishga qarshilik kattaligi tolalarga nisbatan yo`nalishga, yog`ochning turi va zichligiga bog`liq, yog`ochning toresiga qoqilgan mixni sug`urib olish uchun tolalarga ko`ndalang qoqilgan mixni sug`urib olishga karaganda kam (10—50%) kuch kerak bo`ladi. Yog`och qancha zich bo`lsa, mix yoki shurupni sug`urib olganda shuncha ko`p qarshilik ko`rsatadi.

Masalan, zichligi 800 kg/m³ bo`lgan grab yog`ochiga mix qoqish va sug`urib olish uchun zichliti 500 kg/m³ bo`lgan qarag`ay yog`ochiga nisbatan to`rt marta katta kuch kerak bo`ladi.

Nam yog`ochga mix qoqish oson, biroq yog`och quriganidan keyin mixni ushlab turish susayadi. Yog`ochlardan shurupni sug`urib olishga qarshilik mixga nisbatan ikki marta ortiq bo`ladi.

Yog`ochning mix va shurupni sug`urib olishga ko`rsatadigan qarshiligi GOST 13395 – 67 ga muvofiq aniqlanadi.

Yog`ochning egilishga chidamlilik xossasi.

Yog`ochning egilishga chidamliliqi quyidagicha sinaladi. O`lchamlari 10x30x500 mm bo`lgan bruscha shaklidati yog`och namunasi almashtiriladigan andazalarda ketma-ket egiladi; andazaning dastlabki radiusi 50 sm va namuna andazaning qavariq sirtiga tekkuncha egiladi. Keyin namuna qavariq tomonining radiusi 45 sm bo`lgan andazada egiladi. Keyin andaza radiusining kattaligi namunalarda yemirilish (sinish, bukilish) belgilari paydo bo`lguncha kamaytira boriladi. Namunada yemirilish boshlangan andaza radiusi yog`ochning egilishga chidamlilik xossasini xarakterlaydi, Yaproqli halqasimon naychali daraxt (eman, shumtol) va tarqoq nayli (qayin) daraxtlar yog`ochi eng ko`p egiladi. Nina bargli daraxt yog`ochi ko`p egilmaydi. Nam yog`och quruq yog`ochga nisbatan ko`proq egiladi.

Yog`ochning yeyilishga chidamliligi.

Yog`ochning yeyilishga chidamliligi uning ishqalanish jarayonida yeyilishga (siyqalanishga) qarshilik ko`rsatish xossasi bilan xarakterlanadi. Sinash usulida (GOST 14347 – 69) pollar va to`shamalarda haqiqiy yemirilish sharoitlari yaratilib sinaladi. Bunday sinashlar uchun yog`ochning ilgarilama-qaytma harakat qilishi bilan bir vaqtida namunaning buriladigan yemirilishini ham ta'minlaydigan maxsus mashinadan foydalilanadi.

Yog`och tores tekisligiga nisbatan yon sirtida ko`proq yediriladi. Yog`ochning qattiqligi va zichligi ortishi bilan yeyilishi kamayadi. Nam yog`och ko`p yeyiladi.

Yog`ochning yoriluvchanligi.

Yoriluvchanlik deganda yog`ochning kuch ta'sirida tolalari bo`ylab darz ketish xossasi tushuniladi. Yog`ochning yorilishi kuchning ta'sir etishi va xarakteriga ko`ra tolalarga ko`ndalang cho`zilishi eslatadi hamda yog`och uzunligi bo`yicha tolalarning bo`sish birikishi kabi tushuntiriladi. Yog`ochning bu xususiyati amaliy ahamiyatga ega, chunki bir qator yog`ochlarning sortimenti (bochka taxtasi, gardish, kegay, rezgi taxta) yorib tayyorlanadi. Sinash uchun kir kisqichga o`xshash namunadan foydalilanadi.

Yog`och radil va tangensial tekisliklarda yorilishi mumkin. Yaproqli daraxt turlarida radial tekislik bo`yicha yorilishga qarshilik tangensialga nisbatan kamroq. Bunga sabab (eman, shamshod, grabdag) o`zak nurlarining ta'siridir. Nina bargli daraxtlarda, aksincha, radial tekislikka qaraganda tangensial tekislikda yorilish qiyinroq. Nina bargli daraxt turlarida tangensial tekislikda yorilganda ajralish mustahkamligi kech yetilgan yog`ochlik mustahkamligidan ancha kichik bo`lgan erta yetilgan yog`ochlikdan boshlanadi.

Hozirgi vaqtda yorib sinash o`z mohiyatini yo`qotmoqda, chunki yorilgan sortimentlarning ko`p qismi arralash bilan almashtirilmoxda. Yog`ochning yorilish xususiyatini yog`och elementlari mix, bolt va hokazolar bilan biriktirishda xisobga olish kerak.

Yog`ochning yorilishga qarshiligi GOST 16483. 22 – 73 ga binoan aniqlanadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo`jaligi va sanoatning barcha tarmoqlarida xomashyo, yarim tayyor mahsulot sifatida yog`ochning roli kundan-kunga oshib bormoqda. Yog`ochdan asosan tabiiy yoki qayta ishlangan holda foydalaniladi. Shu bilan ayrim turli-tuman buyumlarning asosi yog`och hisoblanadi. Xalq xo`jaligida ishlatilish hajmi va turli-tumanligi bilan yog`och boshqa materiallarga nisbatan ko`proq ishlatiladi. Yog`och deganda, biz arralab yiqitilgan va ildiz hamda shox-shabbalardan tozalangan daraxt tanasini tushunamiz. Yog`ochdan qurilishda rom, eshik, pollar qurishda keng foydalaniladi. Undan shuningdek, mebel, idishlar, shpallar, sport inventari ko`prik va kemalarning elementlari, musiqa asboblari va hokazolar yasashda foydalaniladi. Tabiiy va presslangan yog`ochdan mashinasozlikda foydalaniladi. U kon sanoatida mahkamlash materiali sifatida ishlatiladi. Yog`och sellyuloza-qog`oz sanoatida, oziq achitqilar olishda, kord (shina sanoatida), viskoza tolasi (to`qimachilik sanoatida), furfurol (plastmassa, sintetik tolalar) ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bo`lib xizmat qiladi.

Respublikamizda mavjud bo`lgan tabiiy va sun’iy o`rmonzorlar yog`ochninig qimmatbaho xomashyo bazasi hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda yog`ochning bir qismi chetdan, masalan, Rossiyadan keltirilardi.

Yog`ochning ko`p ishlatilishiga sabab, uning yuqori fizika-kimyoviy xossalari, yaxshi ishlanuvchanligi, shuningdek, kimyoviy va mexanikaviy ishlov berish yo`li bilan yog`ochning ayrim xossalarni samarali o`zgartirishning usullari mavjudligidir. Yog`och oson ishlanadi va issiqlik o`tkazuvchanligi past, yetarli darajada mustahkam, zarba hamda tebranish nagruzkalariga yaxshi qarshilik ko`rsatadi. Yog`och quruq sharoitda uzoq vaqt chidaydi, shu bilan birgalikda yog`ochning kamchiliklari ham mavjud, u yonadi, chiriydi, hashorat va zamburug`lar ta’sirida yemiriladi. Gikroskopligi sababli shishadi va quriydi egiladi va yoriladi.

Yog`ochdan buyumlar tayyorlashda yelimlar, lak, bo`yoqlar, pardozlash plyonkalari, plasmassalar va boshqa materiallardan ham foydalaniladi. Yog`ochning xossalari hisobga olingan holda undan qishloq xo`jaligi va sanoatning turli sohalarida foydalaniladi.

Yog`ochlarning turlari, ularning tuzilishi va xossalari.

Yog`ochga yuqorida ta’rif berib o’tan edik. Daraxt yog`ochligini ko`ndalanggiga qirqib hosil qilish jarayoni saralab arralash deyiladi. Yog`ochni saralashda ishga yaroqli va o`tinbob qismlari olinadi. Ishga yaroqli yog`och dumaloq holatda va mexanikaviy va kimyoviy ishlash uchun xomashyo sifatida ishlatiladigan

hamda ishga yaroqli assortimentlarga tegishli, GOST yoki TU talablariga javob beradigan yog`och va uning bo`laklariga aytildi. O`tinli yog`och yoqilgi sifatida hamda pista ko`mir va quruq haydash uchun xomashyo sifatida ishlatiladigan past sifatlari yog`och. Xodalar deb, arralash materiallar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlatiladigan dumaloq ishga yaroqli assortimentlarga aytildi. G`o`la deb, maxsus (faner, chang`i, aviatsiya, g`altak) mahsulot turlarini ishlab chiqarishga mo`ljallangan dumaloq assortimentlarga aytildi.

G`o`la deb, yog`och ishslash dastgohlarida ishlatish uchun zarur bo`lgan o`lchamlarga ega bo`lgan uzunlikdagi g`o`laga aytildi.

Yog`och materiallariga qo`yiladigan talablar daraxtlarning turiga bog`liq bo`ladi. Masalan, yaproq va nina bargli daraxtlarning dumaloq yog`och materiallariga qo`yiladigan talablar GOST 9462 – 71 va GOST 9463 – 72 da dumaloq yog`och materiallarining standartlarida belgilangan daraxt tanasini 3 zonaga, to`nkali, o`rta va cho`qqi zonaga ajratishni ko`zda tutadi.

Daraxt tanasining to`nkasi yuqori fizik ko`rsatkichlarga ega va tananing yon sirtlarda teshib chiqqan ko`zlar bo`lmaydi. Daraxt tanasining o`rta qismida ko`p miqdorda o`sib turgan va qurib qolgan ko`zlar uchraydi, cho`qqi qismida turli o`lchamdagagi butoqlar uchraydi.


Yog`ochning sifatiga hamda ishlanish nuqsonlariga qarab dumaloq yog`och materiallari 4 navga ajratiladi va bu navlarga qo`yiladigan talablar GOST da ko`rsatilgan. Dumaloq yog`och materiallarining qalinligi o`rtacha (14-24 sm va yo`g`onligi 26 sm dan katta) guruhlarga ajratiladi.

Daraxtlarning turiga qarab ulardan olinadigan yog`ochlar har xil maqsadlarda ishlatiladi. Masalan: nina bargli va yaproqli daraxtlardan olingan yog`och materiallari vazifasiga ko`ra 4 guruhgaga ajratiladi:

1. Sortimentlarni arralash va frezalash yo`li bilan ishslashga mo`ljallangan yog`och materiallari (avia sanoat, mashinasozlikda, qurilishda) qo`llaniladi.
2. Shponlarni yo`nish yo`li bilan ishlab chiqarish uchun yog`och materiallari.
3. Sellyuloza va qog`oz massasini ishlab chiqarish uchun yog`och materiallar.
4. Turli maqsadlarga mo`ljallangan yordamchi va muvaqqat qurilishlarda dumaloq holatda foydalilaniladigan yog`och materiallari.


Nina bargli daraxtlarga tilog`och, qarag`ay, oq qarag`aylar kiradi.

O`sayotgan daraxt ildiz, tana va shoxlardan tuzilgan. Daraxt tanasi esa o`zak, po`stloq va yillik qatlamlardan tuzilgan. Yog`ochlarning tuzilishi asosan ikki xil bo`ladi: makroskopik va mikroskopik. Daraxt tanasini ko`ndalang qirqib olib qaralsa uning mikroskop tuzilishi: 1-o`zak, 2-o`zak nurlari, 3-yadro, 4-po`kak qatlami, 5-lub qatlami, 6-po`stlog`i, 7-kambiy va 8 yillik qatlamlardan iborat.



14-rasm. Yog`ochning ko`ndalang kesimi.

1-o`zak, 2-o`zak nurlari, 3-yadro, 4-po`stloq (po`kak qatlami), 5-lub qatlami, 6-po`stloq osti, 7-kambiy va 8 - yillik qatlamlar



15 – Qarag`ay daraxtining kesimlardagi yillik qatlamlari.

a – ko`ndalang, b – radial, v – tangensial; 1 – dastlabki qatlamlar, 2-keyingi qatlamlar.

Bundan tashqari, nina bargli daraxtlarda smola yo`llari ham mavjud va ular gorizonttal yoki vertikal o`qlar bo`yicha o`tadi. Makroskopik tuzilishini biz oddiy ko`z bilan ko`ra olamiz.

Mikroskop tuzilishini ko`rganimizda yillik qatlamlar ancha qiziqish orttirishi mumkin. O`zak atrofida kontsentrik qatlamlar joylashadi. Bu aylanalar daraxtning yillik o`sishini ko`rsatadi va ularga yillik qatlamlar deyiladi.

Radial qirqimda yillik qatlamlar bo`ylama polosa ko`rinishida, tangentsial qirqimda egri-bugri chiziqlar ko`rinishida bo`ladi.

Yog`ochning mikroskopik tuzilishiga mikroskop ostida ko`rinadigan tuzilishi kiradi. Yog`ochning mikroskopik tuzilishida daraxtlarning turiga qarab bir-biridan farq bo`lishi mumkin. Biz misol sifatida nina bargli daraxtlarning yog`ochini tuzilishini ko`rib o`tamiz. Shuni ta`kidlash kerakki, yog`och asosan yog`och hujayralari va to`qimalaridan iborat bo`lib, ular yana kichik guruhlarga bo`linadi. Nina bargli daraxt yog`ochining tuzilishi oddiyligi va to`g`riliqi bilan farq qiladi. Uning asosiy massasi (90-95%) qiyshiq kesimli uchli radial qatorlar bo`yicha joylashgan cho`ziq to`qimalar -traxendlardan iborat. O`zak nurlari kambar, ko`z bilan bir ko`rinadigan yoki umuman ko`rinmaydigan, ammo juda ko`p bo`ladi va ular parexim hujayralaridan tuzilgan.

Yog`ochning asosiy qismini o`simlik hujayralari tashkil etadi va ularni faqat mikroskopda ko`rish mumkin. Hujayralar Yog`ochning turli qismida shakl va kattaligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Protoplazma organik va mineral moddalardan iborat bo`lib, uning asosini oqsil moddalari tashkil etadi. Yadro protoplazmada zichligining kattaligi va tarkibida fosfor bo`lishi bilan farq qiladi. Yadro yumaloq yoki pila shaklida bo`lib, hujayra markazida joylashgan bo`ladi. Protoplazma va yadrodan tashqari yumaloq yoki do`ng ko`rinishiga ega bo`lgan plastiklar 2 guruhga bo`linadi:

1. Xloro plastlar yoki florov donachalari ko`k rangda.
2. Leykoplastlar rangsiz ularda qand zaxirasi kraxmalga aylnadi.

O`sayotgan daraxtlardagi hujayralar vazifasiga ko`ra oziqlantiruvchi, o`tkazuvchi va tayanch hujayralarga bo`linadi. Hujayralar o`sib bir-biriga chirmashib to`qima deb ataluvchi ingichka tolalar hosil qiladi va yog`ochga mos bo`lgan tus beradi. To`qimalar ham huddi hujayralardek to`plovchi, oziqlantiruvchi, o`tkazuvchi va tayanch yoki mexanik to`qimalarga bo`linadi. To`plovchi to`qimalarni tashkil qilgan hujayralar uzunligi 0,01 dan 0,1 mm gacha bo`ladi. O`tkazuvchi to`qimalarni tashkil qilgan hujayralar qator naychalar hosil qiladi va ularning uzunligi o`rtacha 100 mm bo`ladi. Tayanch yoki mexanikaviy to`qimalarni uzunligi 0,7 dan 1,6 mm gacha, eni 0,2 dan 0,05 mm gacha bo`ladi.

Yog`ochlarning tuzilishi uning fizik-mexanik xossalariiga ta`sir qilib, bu xossalari belgilaydi. Masalan: nina bargli daraxt tolalari to`g`ri chiziqli bo`lib, yaproq bargli daraxtlarniki egri-bugri bo`ladi. SHuning uchun nina bargli daraxtlar mustahkamroq bo`lsa, yaproqli daraxtlar yog`ochining zarbiy qovushqoqligi esa yuqoriq bo`ladi.

Yog`ochning xossalari 3 ta guruhga bo`lish mumkin: 1) fizikaviy; 2) mexanikaviy; 3) texnologik.

Yog`ochning fizik xossalari deb, sanaladigan namunaning yaxlitligi va uning kimyoviy tarkibini buzmay ko`zdan kechirish, tarozida tortish, o`lchash, quritish yo`li bilan aniqlanadigan xossalariга aytildi.

Yog`ochning fizikaviy xossalariiga: tashqi ko`rinishi, hidi, zichligi, namligi va u bilan bog`liq bo`lgan o`zgarishlar – qurishi, shishishi va tob tashlashi kiradi. Yog`ochning fizikaviy xossalariiga, shuningdek, elektr, tovush va issiqlik o`tkazuvchanligi va makrostruktura ko`rsatkichlari ham kiradi.

Yog`ochlarning fizikaviy xossalari kichik guruhlarga bo`linadi. Masalan, Yog`och namlik darajasiga qarab quydagi xillarga ajratiladi:

1. ho`l yog`och – namligi 100 % dan ortiq va suvda turgan;
Shunday «yagona paket» sistemasi qo`llanilganda transport vositalaridan va ko`taruvchi mexanizmlardan samarali foydalilanadi, mehnat sarfi kamayadi, chunki sarkillash maydonchyasida paket qilib joylangan yog`och-taxtalar bu maydonchadan ombordagi shtabelgacha, so`ngra sushilkagacha (yog`och quritgich), undan esa stanokkacha bo`lgan yo`lni qayta tahlamasdan o`tadi.

Quruq, randalangan yog`och-taxtalarni, shuningdek, qattiq yogoch materiallarni, eng yaxshisi, yog`och panjarali (jalyuzali) hamda ventilyatsiyali yopiq omborlarda saqlash ma`qul. Bunday omborlar bo`lmagan hollarda randalangan (namligi 18%li va undan oshmaydigan) yog`och materiallarni shtabellarga dasta-dasta qilib zikh joylash lozim.

Dastalar 1 metrdan baland bo`lmasin. Shtabelda dastalar orasida 20 – 25 mm li vertikal oraliqlar qoldiriladi, gorizontal yo`nalishda esa shtabelning turg`unligini oshirish maqsadida, quruq qistirmalar qo`yiladi.


Quruq materiallarni shtabel qilib taxlash va shtabelni buzib olish ishlarining hammasi havo quruq paytda bajarilishi shart. Qor va yomg`ir yoqqan paytlarda bunday shtabellar brezent bilan bekitiladi.

Ochiq havoda quritilgan yog`och-taxtalarning namlik darajasi 22% ga yetkazilishi kerak. Shtabedagi taxtalarning qurish darajasi oddiy yo`l bilan: shtabelning taxminiy 1/4 balandligiga nazorat namunalar qo`yish yo`li bilan aniqlanadi.

Ochiq havoda quritilganida yog`och-taxtalar tob tashlashi, ko`k doglar paydo bo`lishi va material uchidan yorilishi mumkin. Buning oldini olish uchun taxtalarni shtabelga to`g`ri taxlash kerak. CHunonchi, taxtalar uzunasiga tob tashlamasligi (salqilikning oldini olish) uchun qistirmalar to`gri joylanishi shart. Odatda zaxira yog`och-taxtalar saqlanadigan omborlari katta bo`lmagan yog`ochsozlik korxonalarida yog`och-taxtalarning qirqilgan uchlari oqlanadi va bo`yaladi, shunday qilinsa, namning yog`och uchidan bug`lanishi kamayadi.

Amalda yog`och-taxtalarning uchlari bekilib turishi uchun ba`zan shtabel atrofi taxtalar va maxsus shchitlar bilan to`siladi. Natijada shtabellar tagi kamroq shamollanadi, binobarin, yog`ochning qurishi sekinlashadi. Qurigan yog`och-taxtalar shtabelini hamda qattiq yog`och materiallar shtabelini shchitlar bilan bekitish mumkin.

Ninabargli yog`och-taxtalarni va yaproqli yog`ochning qattiq turlarini ochiq havoda quritish qoidalari standartlarda bayon qilingan.



30-rasm. Uchburchak prizma shaklidagi taxta materiallari taxlami:
a-b – gorizontal, v – egilgan

II.5. Yog`ochni sun’iy quritish, sun’iy quritish turlari, quritish kamerelari va quritgichlarning xillari, ulardan foydalanish mexanizmlari.

Quritish kameralari yog`och materiallarni har qanday iqlim sharoitida, yilning istagan faslida va har qanday ob-havoda juda tez quritish imkonini beradi. Quritish kameralarida yog`ochning namligini istagan darajaga tushirish va quritish jarayonini belgilangan rejimga muvofiq to`la boshqarib turish hamda yog`ochdagi zamburug` kasalliklarini zararli xasharotlarni va ularning qurtlarini mutlaqo yo`qotish mumkin.

Kamerada quritish usulining birdan-bir kamchiligi shuki, kameralar qurishga va ularni asbob uskunalar bilan ta’minlashga hamda yoqilg`iga ko`p mablag` ketadi.

Quritish kameralari va sushilkalarning xillari. Issiqlik bilan ta’minlanishi munosabati bilan gaz kameralari va bug` kameralari bo`ladi. Ular havoning kamerada harakatlanishiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

- havo tabiiy harakatlanadigan kamera;
- havo sun’iy harakatlantiriladigan kamera;
- havo reversiv harakatlanadigan kamera;
- ejektorlikamera.

Kamerada havoning tabiiy harakatlanishiga uning quritilayotgan materialga tegib namlanishi natijasida og`irligining o`zgarishi sabab bo`ladi. Havoni sun’iy harakatlantirish uchun ventilyatordan foydalilanildi.

Reversiv harakat deganda, materialni quritish jarayonida havoning o`z harakat yo`nalishini vaqt – vaqt bilan o`zgartirib, qarama-qarshi tomonga harakatlanishi

tushuniladi. Buning uchun ventilyatorlar kamera ichiga o`rnatiladi hamda havo yo`llari almashib bekitiladi.

Havo teshik 1 orqali kalorifer 3 ga kirib, undak havo yo`li 4 ga haydab chiqariladi. Qizigan havo sopro 6 dan katta tezlikda otilib chiqar ekan, ishlatilgan havoni qisman ishlattirib oladi va shtabeldagagi material 7 lar orasidan o`tib, ularning namini o`ziga tortadi. 81-rasmida ekran 8 lar ham ko`rsatilgan. Ular barcha havo oqimini shtabel ichiga yo`naltiradi.

Ishlatilgan havoning bir qismi tortuvchi trubaga yo`naladi, asosiy qismini esa ventilyator 2 so`rib oladi.

Sushilkalar ishlash prinsipiga qarab, davriy ishlaydigan hamda uzluksiz ishlaydigan sushilkalarga ajratiladi. Davriy ishlaydigan sushilkaning har qaysi kamerasidagi material quritilib bo`lganidan keyin kameradan butunlay bo`shatib olinadi-da, kameraga nam material to`ldiriladi.

Material bo`shatish-to`ldirish paytida kamera ishlamay turadi.

Uzluksiz ishlaydigan sushilkaning kamerasi ikkala tomonidan jips bekiladigan qopqoqlari bo`lgan tunnelga o`xshaydi.

Quritish jarayonida material shtabellari kamera bo`ylab vagonchalarda sekin-asta suriladi. Ventilyator qizigan havoni materialning harakat tomoniga qarshi yo`naltiradi. Quritish rejimi kameraning hamma joyida bir xilda emas. Tunneling vagonetkalarda material kirib boradigan uchida rejim ancha sust, qurigan material tushiriladigan uchiga yaqinlashgan sari quritish rejimi zo`rayadi.

Material qurigandan keyin shtabel sushilkaning uchidan chiqariladi, kameraning bo`shagan uchiga yangi, nam material shtabeli kiritiladi.

Gaz sushilkalari. Bu xildagi sushilkalar o`txona gazlari (yoqish natijasida hosil bo`lgan gazlar) bilan isitiladi. Gaz sushilkalari kaloriferli, kalorifersiz va ejektorli xillarga ajratiladi. Kalorifersiz gaz sushilkalarida o`txona gazi alohida aralashtirgichda havo bilan aralashib quritish kamerasiga o`tadi.

Kaloriferli (dudbo`ronli) gaz sushilkalarida issiq gaz kameraning yerto`la qismidagi g`ishtdan qurilgan maxsus dudbo`ron (gorizontal truba) dan o`tadi, kameradagi havo dudburonning qizigan devorlariga tegib isiydi.

Bu sushilkalarni ishga solish uchun bug` ham, elektr energiya ham talab qilinmaydi, lekin bu sushilkaning ishini boshqarish, rostlash juda qiyin. Shu bilan birga, sushilka yong`in chiqishi jihatidan ham xavflidir.

Vaqti-vaqt bilan ishlaydigan, ejektorli reversiv gaz sushilkasi eng mukammal hisoblanadi. Kamerada gaz haydaladigan ikkita kanal bor, bu kanallardan navbat bilan foydalilanadi. Ventilyator kameradan tashqarida gaz ejektor nasadoklarining tumshug`idan 20 – 30 m/sek tezlik bilan otilib chiqadi.

Ventilyator orqasidagi gaz yo`li qopqog`ining holatini o`zgartirish yo`li bilan gazning harakat yo`nalishini o`zgartirish mumkin.

Hozirgi vaqtda tabiiy gazda ishlaydigan sushilkalar bor. Bug` sushilkalari eng ko`p tarqalgan. Havo bu sushilkalarda bug` bilan isitiladigan trubalarga tegib isiydi, ana shunday trubalar sistemasi bug` kaloriferi deb ataladi. Quritishning turli bosqichlarida havoning namligini rostlab turish uchun kameraga alohida bug` trubasi o`rnatilgan.

Bug` sushilkasining ishlashi doimo qozonxonaning ishiga bog`liq.

Havoning ventilyatorlar harakatga keltiradigan uzluksiz ishlovchi hamda vaqt vaqt bilan ishlovchi bug` sushilkalarining bir necha xili bor. Bularning ko`pchiligidagi havoning reversiv harakatidan foydalaniladi.

Yog`och-taxtalarni kamerada quritish uchun taxlash. Kamerada quritiladigan yog`och-taxtalar aravachalarga (yoki panjarali polga) gorizontal qatorlar qilib va bo`yiga ko`ndalang qilib bir necha joyda oralariga qistirmalar qo`yib taxlanadi. Qistirmalarning qalinligi quritiladigan yog`ochning turiga hamda qalin (yo`g`on) ligiga qarab, 25 dan 40 mm gacha, eni 35 – 45 mm bo`ladi, uzunligi esa shtabel (kamera) ning kengligiga bog`liq. Qistirmalarning hammasi quruq va bir xil o`lchamda bo`lishi lozim.

Bir shtabelga taxlangan taxtalar yoki zagotovkalarning qalinligi ham, yog`ochning turi ham bir xilda bo`lmog`i kerak. Yonmayon taxtalar orasidagi shpatsiyalar quritish paytida shtabel orasida havoning yo`nalishiga va tezligiga mos bo`lishi lozim.

Enli va ensiz taxtalarni bir shtabel qilib taxlashga to`g`ri kelsa, enlilarini shtabelning chetiga va ensizlarini o`rtasiga joylash kerak.

Chetlari arralanmagan (olinmagan) taxtalarni taxlashda ularning enli uchlari navbat bilan goh u, goh bu tomonga joylash kerak, taxtalar oralig`i shtabelning boshidan oxirigacha mumkin qadar baravar kenglikda bo`lishi lozim.

Quritishda zagotovkalar ham taxtalar singari taxlanadi, shu bilan birga qisqa zagotonkalar bir-biriga uchma-uch taqab qo`yiladi, shunda ularning uchlari yorilmaydi. Qistirmalarni zagotovkalarning uchma-uch taqalgan joylariga qo`yish ma`qul.

Qistirmalarning bir-biridan yaqinuzoqligi zagotovka (detal)larning uzunligiga bog`liq bo`lib, 35 sm dan ham kam bo`lmasin detallarni kengligi bo`yicha juft-juft va uchta-uchtadan taxlash mumkin, lekin umumiy eni (kengligi) 180 mm dan oshmasligi lozim.

Yog`ochlarni yuqori chastotali tok maydonida quritish ko`pgina jismlar, shu jumladan yog`och ham yuqori chastotali tok maydonida isiydi. Bu holda ular juda tez va bir tekisda qiziydi. Masalan, yuqori chastotali generatorning quvvati yetarlicha bo`lsa, ko`ndalang kesimi 100X100 mm bo`lgan yog`och to`sini 5 – 10 minutda 100°C gacha qiziydi. Har qanday issiklik ta`sir etgandagi singari, elektr energiyasi issiqligi ta`siridan ham yog`ochning nami bug`lanib, yog`och quriydi.

Yg`och kamerada quritishdagiga karaganda elektr sushilkada 10 – 15 marta tezroq quriydi.

Elektr bilan quritishda yog`ochlar jez to`rdan iborat elektrodlar orasiga joylanadi. Elektrodlar yuqori chastotali generatorga ulanadi; shu tufayli to`rsimon elektrodlar orasida elektr maydoni hosil bo`ladi, quritilayotgan yog`pchlар ayni shu maydondadir.

Yog`ochlar elektr bilan quritiladigan kameralarda havoni ventilyatorlar harakatga keltiradi. Kamerada havoning sekundiga 1-5 metr tezlikda aylanib turishini ta'mnnlash lozim, ana shundagina yog`ochdan bug`lanayotgan nam kameradan tez chiqib ketadi. Elektr energiya ko`p sarflanishi sababli bu usuldan hozircha keng foydalanimayotir.

Yog`ochni petrolatumda quritish. Petrolatum jigar rangdagi moysimon suyuqlik bo`lib, neftni qayta ishlashda ikkinchi darajali mahsulot sifatida hosil bo`ladi. U suvda erimaydi.

Quritiladigan yog`och materiallar 130°S gacha isitilgan petrolatumga botiriladi (petrolatum 260°S da yonib ketadi).

Bu suyuqlikka solingan yog`och tez qizib, undagi havo kengayadi va nami bug`lanadi. Ana shu havo-bug` aralashmasi yog`och botirilgan petrolatumga chiqib, uni ko`piklantiradi (pufaklar hosil qiladi). Quritilayotgan taxta yoki zagotovkalarning belgilangan namlik darajasiga muvofiq, qurish jarayoni tugaganligini ko`piklanish qancha davom etganligiga va ko`pik miqdoriga qarab bilsa bo`ladi.

Yog`ochlar gaz va bug` kameralaridagiga qaraganda petrolatumda tezroq va sifatiroq quriydi. Odatda quritish vaqtida yuz beradigan yorilish va tob tashlash kabi nuqsonlar petrolatumda quritilgan yog`ochlarda bo`lmaydi. Petrolatum yog`ochga 2 mm chuqurlikda singiydi. 1 m[kub] yog`ochni quritishga 8 – 20 kg petrolatum sarflanadi, xolos.

Quritish vaqtida yog`ochga singgan petrolatum antiseptik vazifasini ham o`taydi va yogoch bo`kishining oldini oladi. Petrolatumda quritilgan yog`ochning sirtqi, petrolatum shimilgan qatlami butunlay randalab tashlanmasa, yelimni yaxshi ushlamaydi, pardozlaganda esa lok va bo`yoqlar yaxshi yuqmaydi. SHu sababli bu usulda quritilgan yog`ochlar faqat qurilishda, ayniqsa binolarni remont qilishda ishlatiladi.

II.6. Zamonaviy gidrotermik ishlov berish orqali ularni quritish, termoyog`och materialini olish texnologiyasi.

Yog`ochni gidrotermik qayta ishlash Yog`ochni gidrotermik qayta ishlash deganda o`tin harorati va namligini o`zgartirish yoki uning texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydigan moddalarni kiritish uchun mo`ljallangan issiqlik, namlik, gaz yoki suyuqlikka ta`sir qilish jarayonlari

tushuniladi. Xususiyatlari va maqsadiga ko`ra GTO jarayonlari uch guruhga bo`linadi:

1. Yog`ochni isitish va uning haroratini ma'lum darajada ushlab turish bilan bog`liq issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari. Ular quyidagilarni ta'minlaydi:

a) yuqori haroratda yog`ochning qattiqligi pasayishi tufayli kesish kuchi kamayadi va sifatini yaxshilaydi, buning uchun yumaloq loglarni quritish yoki qizdirish jarayonlari arralash yoki kesishdan oldin, shuningdek shponni taxlashdan oldin qo`llaniladi;

b) yog`ochning egilishi va bosilishi uchun ishlatiladigan, uning harorati ko`tarilishi bilan egiluvchanligi (egiluvchanligi) oshishi tufayli mexanik kuchlar ta'siri ostida qismlar yoki blankalar shaklini o`zgartirish imkoniyatini yaratish;

v) o`tin harorati oshishi bilan yopishqoq moddalarini quritish va quritishning kuchayishi tufayli yelimlash jarayonlarining tezlashishi.

2. Yog`ochga uning xususiyatlarini o`zgartiradigan moddalar kiritilishi bilan bog`liq emdirish jarayonlari. Emdirilayotganda quyidagilar ro`y beradi:

a) yog`ochni himoya qilish - himoya qiluvchi moddalar o`rmonga kiritiladi, bu esa yog`ochni yo`q qiladigan zamburug`lar va hasharotlar tomonidan uning zararga chidamlilagini oshiradi; masalan, emdirishsiz shpallarning xizmat qilish muddati taxminan 7 yil va 25 marta singdirish bilan;

b) o`tin, o`tin ishlatiladigan tuzilmalarni himoya qiluvchi o`t o`chiruvchi moddalar bilan singdirilganda yong`indan himoya qilish.

3. Yog`och namligining pasayishi bilan bog`liq quritish jarayonlari. Xom qotishma yog`ochida suv va yog`och xamiri ($W = 100\%$) ham mavjud. Uzoq vaqt davomida suvda bo`lgan yengil daraxt turlarida (qoraqarag`ay, aspen va boshqalar) namlik 150-200% bo`lishi mumkin. Yog`och pulpasidan bir yarim baravar, ikki baravar ko`p. Ushbu namlikni olib tashlash bilan taxtalarning massasi kamayadi.

Ishlov berilmagan yog`ochdan yasalgan yog`och buyumlar va tuzilmalar qisqa umrga ega va tezda yomonlashadi. Masalan, ishlov berilmagan yog`ochdan yasalgan o`tirish uchun mebel (panjara) 2 – 4 yil ichida yaroqsiz bo`lib qoladi, shunga o`xhash, yaxshi quritilgan materialdan 20 – 40 yil va undan ko`proq davom etadi. Uy-joy qurilishida panelli taxta deraza oynalari uchun taxta ishlatiladi, agar ular nam, quritilmagan yoki notekis quritilgan yog`ochdan yasalgan bo`lsa, unda 1-2 yil o`tgach, ushbu mahsulotlar quriydi va yoriqlar paydo bo`ladi. Eshik va deraza romlari eskirgan, taxta plitalari va zamin elementlari chirishi mumkin, qo`ziqorinlar yog`och qismlarga zarar yetkazishi mumkin. Qishda bunday uygaga shamol esib kiradi, ko`p miqdordagi issiqlik iste'mol qilinadi va xonalardagi sanitariya-gigiyena sharoiti yomonlashadi. Uyda zamburug`paydo bo`lganda, yog`och tuzilmalarni saralash va shikastlangan qismlarni, ba'zan esa butun binoni quritish juda muhimdir. Shunday qilib, quritishdan asosiy maqsad yog`ochni tabiiy materialdan biologik, fizik,

mexanik, texnologik va iste'mol xususiyatlarini tubdan yaxshilash bilan sanoat materialiga aylantirishdir. Quritish natijasida yog`och parchalanishga qarshilik ko`rsata boshlaydi, uning kuchi va qattiqligi oshadi va qismlar va butun mahsulot hajmi va shakli barqaror bo`ladi. Yog`och yaxshiroq yopishtiriladi, parlatiladi, uning issiqlik sig`imi, issiqlik va elektr o`tkazuvchanligi pasayadi, boshqa ijobiy xususiyatlar namoyon bo`ladi (tirnoqlari yaxshi saqlanadi, sirt qoplamasи yanada toza va boshqalar).

Yog`ochni quritish usullari

Quritish - bu materialdan namlikni bug` yoki bug`lanish bilan olish jarayoni. Quritishning asosiy usullari yog`ochdan namlikni bug` shaklida olib tashlashga asoslanadi va issiqlik uzatish usuliga ko`ra 4 turga bo`linadi:

1. Konvektiv quritish - gazga yoki suyuq muhitga konveksiya orqali materialga issiqlik uzatish. Konveksiya - bu suyuq yoki gazsimon moddalarning harakatlanuvchi qatlamlari orqali issiqliknini o`tkazish. Konvektiv quritishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

a) atmosferada quritish - bu ochiq omborlarda kanop orqali havoni isitmasdan quritish. Havo materialga issiqliknini olib keladi va kerakli miqdorda namlikni materialdan oladi va tashiydi;

b) gaz va bug`- o`tinni isitiladigan gaz muhitida quritish (bug`, nam havo, atmosfera bosimidagi tutun gazlari) maxsus qurilmalarda - quritish kameralarida;

v) suyuqlik - hidrofobik suyuqliklarda va sho`r suvli eritmalarda quritish;

d) aylanish - markazdan qochiruvchi effektni ishlatib, isitiladigan gaz muhitida aylanadigan karusellarda yog`ochni quritish.

e) vakuum - atmosfera bosimidan past bo`lgan gaz bug` bilan quritish.

2. Supero`tkazuvchilar quritish - issiqliknini o`tinga o`tishi isitiladigan yuzalar bilan aloqa qilishda issiqlik o`tkazuvchanligi orqali sodir bo`ladi (quritish vositasi havo).

3. Radiatsiyaviy quritish - quritish issiqlik energiyasini (radiatsiya, infraqizil), (quritish vositasi havo) nurlanish orqali materialga issiqlik uzatish orqali amalga oshiriladi.

4. Elektr - (havo quritish vositasi):

a) dielektrik quritish (mikroto`lqinli va yuqori chastotali quritish) - dielektrik yo`qolishi sababli materialga issiqlik o`tkazuvchanligi bilan elektromagnit maydonda quritish.

b) induksion quritish bu induktsiya oqimi bilan qizdirilgan ferromagnit qistirmalardan materialga issiqlik uzatish bilan sanoat chastotasining elektromagnit maydonida quritish. Yog`ochni qayta ishlash sanoatida yog`och asosan taxta (taxtalar, blankalar) shaklida, kontrplak va taxtalar ishlab chiqarishda - tozalangan va

rejalashtirilgan shpon shaklida, shuningdek mayda zarralar shaklida (qirg`ichlar, yog`och chiplari) quritiladi.

Quritish agentlari haqida asosiy ma'lumotlar Suyuq va gazsimon muhitga ishlov berish jarayonida unga ta'sir qiluvchi moddalar ishlov berish agenti deb ataladi. Yog`och uchun gidrotermal ishlov berish vositasi havo, ba'zida u tutun gazlari, qizib ketgan bug`, suv, shuningdek suvli eritmalar yoki organik suyuqliklar aralashmasida ishlatiladi.

Yog`och gazlari yog`och chiqindilaridan va yog`ochni qayta ishlash sanoatidan chiqindilarni yoqishda maxsus pechlarda olinadi, ba'zida tabiiy gazdan foydalanish mumkin. Flue gazlari asosan uchta gazning aralashmasidir: azot, kislorod va uglerodning karbonat angidrid aralashmasi. Yoqilg`i yoqilg`isi yoqilganda, hosil bo`lgan gazlar havo kabi shaffofdir. Tutun gazlarida yonish rejimi buzilgan taqdirda tutun ham bo`lishi mumkin.

Ko`pgina hollarda, kamerani quritish jarayonida quritish vositasi sifatida namlik darajasi har xil bo`lgan havo ishlatiladi. Atmosfera havosini ikki qismdan iborat deb hisoblash mumkin: quruq qism, tarkibidagi doimiy (azot, kislorod, argon va boshqa gazlar) va ma'lum miqdordagi suv bug`lari.


Quritish moslamalarini tasniflash. Qo'llaniladigan quritish usuliga qarab quritish moslamalari yoki quritgichlar bir nechta sinflarga bo`linadi:

- 1 - oddiygina konvektiv deb nomlangan gaz bug` konvektivi;
- 2 - suyuq;
- 3 - supero`tkazuvchilar;
- 4 - dielektrik;
- 5 - nurlanish.

Yog`ochni quritishning asosiy sanoat usuli konvektivdir. Konvektiv quritgichlar bir qator belgilarga ko`ra tasniflanadi. Yog`ochni qayta ishlash sanoatida dizaynga binoan quyidagilar qo'llaniladi:

- maxsus xonalar (kameralar) shaklidagi kamerali quritgichlar, bu yerda quritilgan o`tin, asosan yog`och ko`rinishidagi aravachalar qoziqlariga yig`iladi;
- rolikli quritgichlar, quritish joyi orqali material silindrli konveyerlar orqali o`tadi, ular tekis yog`och materiallarini (shpon, taxtalarni) quritish uchun ishlatiladi;
- havo yoki gaz oqimida suspenziya holatida materialni quritish prinsipi bo`yicha ishlaydigan pnevmatik quritgichlar;
- baraban quritgichi, uning asosiy qismi baraban (aylanadigan rotor bilan jihozlangan yoki o`zi aylanadigan) bo`lib, uning ichida material aralashtiriladi va quriydi;

- tasma quritgichlari, bu orqali material tasmali konveyer orqali yetkaziladi.



31-rasm. SPLK-2 davriy kamerasi sxemasi

Xonalarda material statsionar bo`lib, quritish jarayoni yog`ochning vaqtiga namligi bilan tartibga solinadi. Quritish rejimlari ko`p bosqichli. Paket quritish moslamalari vaqtiga-vaqtiga bilan o`zgarib turadigan quritish sikllari prinsipi asosida ishlaydi, ularning har biri quritgichning material bilan to`liq yuklanishidan, quritishning o`zi va quritgichning to`liq tushirishidan iborat. Uzluksiz xonalarda - ular quritish tunnellari deb nomlanadi, xom ashyo vaqtiga-vaqtiga bilan bir uchida qoziqlar bilan to`ldiriladi, yuqori qismi esa amaldagi quritish agentining xususiyatiga ko`ra konvektiv quritgichlar quyidagilarga bo`linadi:

- nam havo quritish vositasi sifatida ishlaydigan havo quritgichlari;
- gaz, havo bilan aralashtirilgan tutun gazlari quritish vositasi sifatida ishlatiladi;

•qizdirilgan bug`da ishlaydigan quritgichlar.

Quritilishi kerak bo`lgan material orqali havo aylanishini qo`zg`atish prinsipi bo`yicha tabiiy va ogohlantiruvchi aylanishga ega kameralarga bo`linadi. Birinchi holda, havo materialdan namlikni bug`laganda, soviydi, zichroq bo`ladi va stakandagi taxtalarning qirralari orasidagi vertikal kanallar bo`ylab tushishga moyil bo`ladi.

Quritish rejimlari, ularning harorat toifalari. Quritish rejimini tanlash.

Kamera ichidagi o`tning namligiga qarab o`zgaradigan bu holat odatda harorat t, psixrometrik farq Δt bilan tavsiflanadi, bu psixrometrning quruq va ho`l termometrlari ko`rsatkichlarining farqi sifatida aniqlanadi. $\Delta t = ts - tm$, shuningdek to`yinganlik darajasi. Havoning harorati namlikning o`tkazuvchanligiga va yog`ochning fizik-mexanik xususiyatlariga, quritilgan materialda sodir bo`ladigan jarayonlarga ta`sir qiladi. Psixrometrik farq havo oqimidan nam materialgacha bo`lgan issiqlik oqimining kattaligini va shuning uchun namlikning bug`lanish tezligini aniqlaydi. Psixrometrik farq materialning yuzidagi jarayonni tavsiflaydi. Havo tezligi qoziq hajmida materialni quritishning bir xilligiga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadi, quritish sifatini aniqlaydi. Havo tezligining oshishi bilan quritish vaqtini kamayadi. Past haroratlari va yuqori haroratlari jarayonlarni farqlang. Birinchilari qurituvchi vosita sifatida $100^{\circ} C$ dan past bo`lgan nam havoni (yoki uning tutun gazlari bilan aralashmasini) ishlatishni nazarda tutadi. Ba`zi hollarda $100^{\circ} C$ dan yuqori haroratga quritishning oxirgi bosqichida, o`tin ichida bepul suv bo`lmaganida ruxsat beriladi. Ikkinchisi atmosfera bosimining yuqori qizigan suv bug`lari bilan $100^{\circ} C$ dan yuqori haroratda quritishni o`z ichiga oladi. O`z navbatida, past haroratlari jarayonning rejimlari istalgan jarayonning intensivligiga qarab har xil harorat darajasiga ega bo`lishi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, haroratning ko`tarilishi ish kuchining pasayishiga va yog`ochning rangsizlanishiga olib kelishi mumkin. Past harorat rejimlarining uchta toifasi ularning yog`och xususiyatlariga ta`siri bilan belgilanadi. Yumshoq - yog`ochning tabiiy fizik va mexanik xususiyatlarini saqlab, yog`ochni qusursiz quritish.

Yog`ochni quritishning toifalari va sifat ko`rsatkichlari. Yog`ochni quritish jarayonida yuzaga keladigan nuqsonlar va ularni bartaraf qilish usullari ishlab chiqarishning teng bo`lmagan talablari va turli maqsadlarda yog`ochni mexanik qayta ishlash texnologiyasi hisobga olinsa, yog`ochni qayta ishlash ustaxonasiga yetkazib beriladigan yog`ochni quritish uchun 4 ta sifatli toifalar belgilanadi. Sifatning birinchi toifasi (I) - bu yuqori malakali mahsulot (musiqa asboblari, sifatli asboblari, sport anjomlari, modellar ishlab chiqarish va boshqalar) qismlarini va yig`ilishlarini aniq ishlov berish va yig`ishni ta`minlaydigan ishlaydigan namlikni yuqori sifatli quritish. Bunday material $60\dots 70^{\circ} C$ dan yuqori haroratga duch kelmasligi kerak ($60^{\circ} C$ - qalinroq materiallar uchun). Sifatning ikkinchi toifasi (II) tezkor namlik uchun quritishdir, bu malakali mahsulot (mebel, yog`och, yo`lovchi va yuk kemalari ichki

jihozlari, avtoulov qurilishi, qishloq xo`jaligi texnikasi va boshqalar) qismlarini va birikmalarini aniq qayta ishlashni ta'minlaydi. Quritishning ruxsat etilgan harorati 75... 85° C gacha (75° C - yumshoq jinslarning qalin assortimenti va qattiq jinslarning ingichka turlari uchun). Sifatning uchinchi toifasi (III) - bu kam malakali yog`ochni qayta ishlash mahsulotlari (konteynerlar, yuk vagonlari, qurilish, derazalar va yog`och brusslar bundan mustasno) uchun ishlov berilgan yog`ochning ish namligiga qadar quritishning o`rtacha sifati, agar montaj paytida o`zaro almashtirish talab qilinmasa. Nolinchi sifat kategoriyasi (0) - namlikni tashish uchun tijorat materiallarini quritish (16... 20%, bu erda 16% - ingichka) va eksport materiallarini quritish. Quritish sifati ko`rinadigan nuqsonlar, yoriqlar, burish va hokazolar mavjudligi bilan belgilanadi. Yog`ochni ish sharoitida namlik darajasiga qadar quritish kerak.

III. BOB. Metal, plastmassa va polimerlarga ishlov berish texnologiyasi

III.1. Cho`yan, po`lat va rangli metalldan tayyorlangan quymalar, bolg`alangan va shtamplangan xomashyo

Quymakorlik detal va buyumlar xomaki (zagotovkalari) ko`rinishida turli-tuman quymalar olish jarayonlaridan iboratdir.

Quymakorlik jarayonida qolip (qum-tuproqdan yoki metalldan yasalgan) suyultirilgan metall bilan to`ldiriladi, u qotgach, quyma detal, quyma hosil bo`ladi. Zarur bo`lsa, quymalarga keyingi ishlov berish jarayonida aniq o`lcham va shakl beriladi. Ko`pgina hollarda kerakli detallar faqat quyish usuli bilangina olinadi. Bu, ayniqsa katta o`lcham va vaznga ega bo`lgan, shuningdek, murakkab shaklli detallarni tayyorlashda yoki qotishmaning plastikligi kichik (masalan, cho`yan) bolib, bosim ostida ishlov berish (bolg`alash, shtamplash) mumkin bo`lmagan hollarda juda muhimdir. Mashinasozlikda barcha detallaming taxminan 50 % quymakorlik usuli bilan olinadi.

Quymakorlik sanoati texnologiyasi. Ma'lumki, quymakorlik sanoati sexlarida u yoki bu quyma buyum (detal) ni hosil qilish uchun ma'lum bir tizimdagi ishlab chiqarish texnologiyasini amalga oshirish talab qilinadi. Shuning uchun quymalar ishlab chiqarish texnologiyasini vtulka quymasini hosil qilish misolida ko`rib chiqamiz.

Vtulka quymasi hosil qilinishi uchun dastavval shu quymaning nusxasi va quymada teshik hosil qilish uchun zarur bo`lgan sterjenning qolipi (sterjen qutisi) yasaladi, so`ngra nusxa yordamida qolip, sterjen qutisida esa sterjen tayyorlanadi. Qolipa quyish kanallari ochiladi, sterjen o`rnataladi va qolip suyuq metall bilan to`ldiriladi. Metall qotgach, qolipni buzib, undan quyma olinadi, quymaning ortiqcha joylari kesib tashlanadi va tozalanadi, natijada quyma tayyor holga keladi.

Shunday qilib, quymakorlik sexlarida turli quyma buyumlar(detallar) ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagi jarayonlarni o`z ichiga oladi:

- a) metall qolip yuzasiga o`tga chidamli qatlama qoplash va uning ustidan yupqa qilib maxsus bo`yoqlar berish;
- b) qolipni yig`ish;
- d) qolipa metallni quyish;
- e) quymani qolipdan ajratish;
- f) qolip yuzalarini siqilgan havo bilan yoki boshqa usulda tozalash.

Quyma olishning maxsus usullari


Sanoat miqyosida quymalar olishning maxsus usullariga: suyuqlantirilgan metall yo qotishmalarini qoliqlar (kokillar)ga quyish, markazdan qochirma quyish, bosim ostida quyish, suyuqlanuvchan nusxalardan foydalanib quyish va qobiq qoliqlarga quyish kabilar kiradi. Ana shu usullarni qisqacha ko`rib o`tamiz.

Kokillarga quyish yo`li bilan olinadigan cho`yan va po`lat quymalarda ichki bo`shliqlar (teshiklar yoki chuqurchalar) hosil qilish zarur bo`lsa, odatdagи qoliplarda ishlatiladigan sterjenlardan, aluminiy qotishmalari va magniy qotishmalari uchun esa ajraluvchi metal sterjenlardan foydalaniladi. Suyuq metall kokillar ustidan, yonidan yoki ostidan quyilishi mumkin. Kokillarning ichki yuzalari o`tga chidamli material va bo`yoqlar bilan qoplanadi.

Kokillarga suyuq metall yaxshi to`lishi uchun ular oldindan qizdirib olinadi.

Kokillarga quyish usuli mehnat unumdorlini oshirishga, quyma sirtining sifatini hamda uning mexanik xossalarni yaxshilashga, kesib ishslash uchun qoldiriladigan qo`yimni kamaytirishga imkon beradi.

Markazdan qochirma quyish usuli silindrsimon jismlar shaklidagi quymalar, masalan, quvur, vtulka, shkiv, g`ildirak, shesternya, mufti diskalarning tayyorlanmalarini olish uchun qo`llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, suyuq metall gorizontal yoki vertikal o`q atrofida 1000 ayl/min tezlik bilan aylanuvchi qolipga quyiladi. Qolipning va unga quyilgan suyuq metallning aylanishi natijasida hosil bo`ladigan markazdan qochma kuchlar metallni qolip devoriga siqadi, natijada metall darrov qotib, qolip shakliga kiradi.



32-rasm. Markazdan qochirma quyish qurilmasining sxemasi.

a- gorizontal o`qda aylanuvchi; b-vertikal o`qda aylanuvchi

1- tarnov, 2- qisqich, 3- qopqoq, 4- maxsus qolip, 5- val, 6- shkiv, 7- elektrodvigatel, 8- tasmali uzatma, 9- qurilma korpusi, 10- eshikcha, 11- eritmali maxsus qozon

Bosim ostida quyish usulining asosiy mohiyati shundaki, suyuq metall (qotishma) po`lat qolipga katta bosim ostida quyiladi.

Tayyorlangan quyma g`ovaksiz, sirtqi nuqsonlarsiz, toza va aniq bo`ladi. Oson suyulanuvchi rangli qotishmalardan (aynisa aluminiy, rux, magniy qotishmalaridan)

murakkab shaklli, yupqa devorli, aniq o`lchamli, toza yuzali va og`irligi 50 kg gacha bo`lgan quymalar (samolyot, avtomobil va boshqa mexanizmlarning detallari uchun quymalar) olishda bu usuldan keng foydalaniladi.

Suyuqlanuvchi nusxa yordamida quyma olish usulida quyma olish uchun oson suyuqlanuvchi materialdan-parafin, stearin, mum (bitum)va boshqalardan turli quymalarning nusxalari tayyorlanadi. Buning uchun esa polat, bronza yoki jezdan nusxa etalonini yasalib, bu etalonni oson suyuqlanuvchi qotishmaga botirish yo`li bilan press-qolip tayyorlanadi. Ana shu press-qolip suyuqlantirilgan parafin, stearin, mum (bitum) bilan 3-6 atm (303-606 kN/m²) bosim ostida to`ldirilib, juda aniq nusxa hosil qilinadi. Shu usulda tayyorlangan bir necha nusxa blok qilib yig`iladi va quyish tizimiga tutashtiriladi. Keyin bu yig`ilgan nusxalar bloki suyuq shisha yoki gidrolizlangan etil silikat(**C₂ 5O₄**) Si eritmasi bilan kvarts kukuni qorishmasiga 2-3 marta botirib olinadi, shunda nusxalar blok sirtida 2-3 mm qalinlikdagi o`tga chidamli silliq qoplama hosil bo`ladi. Nusxalar bloki zavodda 2-3 soat davomida quritilgandan keyin opoka ichida atrofi qolip aralashmasi bilan zinch qilib to`ldiriladi. Opoka ichidagilari bilan birga mufelli pechda qizdiriladi, bunda nusxalar va quyish tizimi suyuqlanadi hamda tashqariga olib chiqadi, natijada nusxalar va quyish tizimi o`rni bo`shab qoladi, qolip hosil bo`ladi. Bu qolip 800-900 °C gacha qizdiriladi, bunda qolip puxtalanadi va metall quyish uchun tayyor holga keladi. Bunday qolipga suyuq metall odatdagি usul bilan ham, markazdan qochirma usul bilan ham quyilishi mumkin. Bu usul bilan quyib hosil qilinadigan quyma zinch bo`ladi, demak, uning mexanik xossasi yaxshilanadi.

Qoliplar yordamida quymalar olish uchun ko`pincha qotishmalardan, masalan, cho`yandan quymaning ikki pallali nusxasi (qolip ikki simmetrik qismidan iborat qilib tayyorlanadi, avval qolipning birinchi yarmi, keyin ikkinchi yarmi bir har xil texnologik jarayonda bajariladi) yasaladi, nusxaning har bir pallasi metall plitaga mahkamlanadi. Ana shu nusxa asosida qobiq qolip (qolipning yarmi) tayyorlanadi. Qolip materiali sifatida kvarts qumi kukuni bilan bakelit (fenol-formaldegid smolasи) kukuni (pulver-bakelit) aralashmasidan foydalaniladi. Ma'lum bir texnologik jarayon orqali tayyorlangan kabilar (ikkita yarimqolip) o`zaro birlashtiriladi va tayyor qobiq qolip hosil boladi. Bu qolipga suyuq metall kiradigan teshik ochiladi, quti tik holatda o`rnatilib, atrofi qum bilan zinch qilib toldiriladi va shundan keyin suyuq metall yoki qotishma quyiladi.

Quymalarda ichki bo`shliqlar hosil qilish zarur bo`lgan hollarda qobiq (qolipning yarmi qoliplarga maxsus mashinalar yordamida tayyorlangan qobiq stejenlar o`rnatiladi. Bunday qoliplar istalgan quymakorlik qotishmasidan quymalar olishga imkon beradi. Bunday qoliplarda olingan quymalarning olchamlari aniq chiqadi.

Quymaning tannarxi korxonaning turi, quymaning materialiga, murakkabligiga, olchamlari, og`irligiga va boshqa ko`rsatkichlarga bog`liq bo`ladi.

Quyma olish uchun suyuq metall va qotishmalarni tayyorlash.

Ma'lumki, quymakorlik sexlarida quyma buyumlar turli shakllardagi qoliplarga suyuq metall va qotishmalar quyish orqali hosil qilinadi. Bu maqsadda quymakorlik sexlarida metall va qotishmalarni suyuqlantirish uchun ishlatiladigan tegishli tuzilishdagi pechlardan foydalaniladi.

Qanday pechlardan foydalanish metall va qotishmalarning xiliga bog`liq boiadi. Masalan, cho`yanni suyuqlantirish uchun asosan vagrankadan, po`lat suyuqlantirish uchun kichik konvertor, kichik marten pechi, elektr yoy pechlari, induksion pechlardan, rangdor qotishmalar suyuqlantirish uchun esa elektr yoy pechlari, qarshilik pechlari, induksion pechlar va boshqalardan foydalaniladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, quymakorlik cho`yani, odatda, vagranka deb ataladigan pechda suyuqlantiriladi. Vagranksa domna pechi kabi ishlaydi. Gilofi po`lat taxtalarini (listiarini) parchinlash yoki payvandlash yo`li bilan tayyorlanadi. Ichki qoplamasni shamot gishtidan teriladi. Vagranksining furmalar teshigidan shixta tushirish darchasigacha bo`lgan qismi shaxta deb, furmalar teshigidan pastki qismi esa gorn deb ataladi. Hozirgi vagrankalarning bo`yi 9-10 m ga, shaxtasining diametri esa 3 m gacha yetadi. Vagranksalaming ish unumi 1 soatda suyuqlantirib olinadigan cho`yan miqdori bilan belgilanadi va pechning diametriga qarab 25 tonnagacha suyuq cho`yan olish mumkin.

Bunday vagrankada cho`yan quyidagicha suyuqlantiriladi. Cho`yan suyuqlantirishda shixtaning metall qismi – quymakorlik cho`yani korxona chiqindisi, mashina siniqlari va ozroq miqdorda temir-tersakdan iborat boiadi. Yoqilgi sifatida, asosan, koks ishlatiladi. Flyus sifatida ohaktosh, dolomit, asosli marten shlaklari va boshqa materiallardan foydalaniladi. Vagranksaga koks, metall shixta va flyus maxsus darcha orqali tushiriladi. Koksning yonishi uchun zarur bolgan havo (ba`zan kislorod bilan boyitilgan havo) bosim ostida halqasimon quvurga va undan furmalar orqali gomga beriladi.

Hosil bo`lgan suyuq cho`yan gomning qiya tubidan maxsus nov orqali cho`michlarga tushiriladi, cho`michlardan esa qoliplarga quyib chiqiladi va tegishli shakldagi quyma buyum hosil qilinadi.

Quymakorlik korxonalarida po`lat suyuqlantirishda kichik konvertor (kichik bessemerlash deyilib, hozir sanoat miqyosida deyarli ishlatilmaydi), kichik marten pechlari va boshqa pechlardan foydalaniladi.

Yuqori sifatli cho`yan va quymalar olishda ikki-uch agregatda suyuqlantirish usulidan foydalaniladi. Masalan, po`lat dastlab konvertorda, so`ngra elektr pechda suyuqlantiriladi va bu jarayon dupleks deb ataladi.

Agar metall ketma-ket uch agaragatda, masalan, vagranka, konvertor va elektr pechda suyuqlantirilsa, bunday jarayon tripleks deyiladi. Bronza elektr yoy pechlarida, aluminiy qotishmalari esa qarshilik pechlarida suyuqlantiriladi.

Metallarni suyuqlantirishda ba'zan tigelli pechlardan ham foydalaniadi. Tigellarning sig`imi 50 kg dan 300 kg gacha bo`ladi. Yuqoridagi pechlarda suyuqlantirilgan metallar cho`michlarga, ulardan esa qoliplarga quyiladi. Suyuq metall qoliplarga ikki usulda quyilishi mumkin: a) suyuq metall cho`michlarda qoliplar oldiga keltiriladi; b) cho`mich o`zgarmas holatda bo`lib, qoliplar maxsus konveyerda cho`mich ostiga surib turiladi.

Qoliplarga quyilgan metall sovigach, qoliplar maxsus mashinalar yordamida sindirilib, quymalar ajratib olinadi, quyish tizimida qotgan metall qirib tashlanadi va quymalar turli usullarda, masalan, zoldirli tegirmon, pitra purkash mashinada qum donalari, yopishgan kuyundi va boshqalardan tozalanadi. Tozalangan quymalar texnik nazoratdan o`tkaziladi va nuqsoni bo`lgan quymalar ajratib olinadi.

Quymakorlik materiallari. Ma'lumki, har qanday qotishmadan quymalar hosil qilish mumkin. Ammo quymalarning sifati texnik standart talablariga javob berishi uchun quymalar olishda bir qator talablar qo`yiladi, qotishmalar suyuq holatda oquvchan, kam kirishuvchan, bir strukturali, metallmas aralashmalardan xoli bo`lishi va suyuqlanish harorati juda yuqori bo`lmasligi lozim.

Ayniqsa, quymakorlikda eng ko`p ishlatiladigan qotishmalardan po`lat va cho`yanning suyuq holatda oquvchanligi uglerod, kremniy va fosfor miqdoriga bog`liq, bu elementlarning miqdorlari bilan suyuq holatda qoluvchanligi to`g`ri mutanosib holda o`zgarib boradi.

Hozirgi quymakorlik sanoatida turli quymalar olishda rangli qotishmalar va cho`yan, po`latlardan tashqari, ba`zi cho`yan qotishmalaridan ham foydalaniadi. Masalan, SCH12, SCH 15, SCH 18 cho`yanlari puxtaligi pastroq va o`rtacha detallar, masalan, metall kesish dastgohlarining tayanchlari, asosi, g`ilofi, qutisi va qopqoqlari, supporti, karetkasi va shu kabi detallarni quyish uchun, KCH 21-40, KCH 24-44, KCH 28-48 cho`yanlari esa mashinalarning muhim detallari, masalan, stanina, korpus, bug` mashinasi silindrлari, tormoz barabanlari, friksion mufta disklari va shu kabilar uchun ishlatiladi. Juda yuqori sifatli cho`yandan quymalar olish uchun, suyuqlantirish vaqtida cho`yanga po`lat siniqlari yoki maxsus elementlar qo`shiladi, shuningdek, quymalar maxsus tarzda termik ishlanadi. Puxtaligi, yeylishga chidamliligi va korroziyaga bardoshliligi yuqori bo`lishi talab qilinadigan quymalar legirlangan cho`yandan quyiladi.

Quymalaming sifati cho`yanni modifikatsiyalash yo`li bilan amalga oshiriladi. Cho`yanni modifikatsiyalash uchun suyuq cho`yanni qoliplarga quyish oldidan unga ozroq silikokalsiy, magniy, aluminiy, titan yoki boshqa maxsus elementlar qo`shiladi,

cho`yan tarkibidagi grafit va perlit donalari maydalashadi, natijada juda puxta cho`yan hosil bo`ladi va quymalarning mexanik xossalari yaxshilanadi.

Modifikatsiyalanishi lozim bolgan cho`yan kam uglerodli (C 2,8 -3,2%) va kam kremniyli (Si 1-1,5%) bolishi hamda 0,15-0,3% modifikatorlar albatta qo`shilishi zarur.

Turli quymalar olish uchun asosan kam va o`rtacha uglerodli po`latlar ishlatiladi. Bunday polatlarning quylish xossalari cho`yannikidan pastroq boidi, lekin mexanik xossalari (ayniqsa, plastikligi va zarbiy qovushqoqligi) jihatidan cho`yan quymalardan ustun turadi. Quymakorlik polatida uglerod miqdori 0,6 % dan ortmasligi, kremniy miqdori 0,37 % gacha, marganes miqdori esa 0,8 % gacha bolishi kerak. Fosfor bilan oltingugurt po`lat quymalarning mexanik xossalarni pasaytiradi, quymakorlik po`latida iloji boricha bu elementlarning bolmasligi maqsadga muvofiqdir.

Standartga ko`ra, quymakorlik polatlari vakillariga 15Q, 20Q, 25Q,... 55Q polatlari kiradi. Bunda Q harfi quymakorlik polati ekanligini, raqamlar yuzga bolinsa po`lat tarkibidagi o`rtacha uglerod miqdorini bildiradi. Bu polatlarning cho`zilishdagi mustahkamlik chegaralari har xil, masalan, 15Q markali polat uchun $G_b=400\text{mN/m}^2$, nisbiy uzayishi 8=8-24 %, zarbiy qovushqoqligi $aH=0,5\text{mJ/m}^2$; 55Q uchun esa $G_b=600\text{ mN/m}^2$, 8 =5-10 % va $aH=0,25\text{ mJ/m}^2$ ga teng.

Quymalar olishda Cr, Ni, Mo, V va boshqa elementlar bilan legirlangan po`latlar ham keng ishlatiladi.

Quymakorlikda eng ko`p ishlatiladigan rangli qotishmalar jumlasiga mis, aluminiy, magniy va boshqa rangli metallarning quymabop qotishmalari kiradi. Masalan, mis qotishmalaridan bronza va jez, aluminiy qotishmalaridan siluminlar, Al-Cu, Al-Cu-Si, Al-Mg qotishmalari, magniy qotishmalaridan esa Mg-Al-Zn, Mg-Al qotishmalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Quymakorlik korxonalarida ishlatiladigan bronzalar ikki guruhga bo`linadi:

- a) qalayli,
- b) qalaysiz bronzalar.

Jezlar oddiy quymalar olishda kam ishlatiladi, chunki ulaming texnologik va mexanik xossalari ancha past bo`ladi. Quyma buyum (detal) lar olish uchun oddiy va maxsus jezlar guruhidan, asosan, maxsus jezlardan foydalilanadi. Bunday maxsus jezlar olish uchun oddiy jezlarga qalay, aluminiy, kremniy, nikel, marganes, temir, qo`rg`oshin kabi elementlar ma'lum miqdorda qo`shilgan bo`ladi. Jezlarga qo`shiluvchi elementlarning turi va miqdori qotishmadan kutilgan xossalarga ko`ra belgilanadi. Shunday qilib, turli statistik ma'lumotlarga ko`ra, quyma buyum (detal) larning 75 % ga yaqini kulrang cho`yanlardan, 20 % chasi po`latlardan, 2-3% chasi bog`lanuvchan cho`yanlardan va juda oz qismi rangli metall qotishmalaridan olinmoqda.

Quymalarda uchraydigan nuqsonlar. Ma'lumki, quymakorlik sanoatida olinadigan quymalarda ba'zan turli nuqsonlar, kimiyoiy tarkibi va strukturasining notekisligi, cho`kish bo`shlig`i, kovaklik, gaz pufaklari, likvatsiya kabi nuqsonlar uchraydi. Bunday nuqsonlar quyidagicha hosil bo`ladi, quyma soviyotganda uning hajmi ma'lum darajada kichrayadi, natijada quymaning yuqorigi qismida cho`kish boshlig`i deb ataladigan bo`shliq paydo bo`ladi.

Bundan tashqari, suyuq eritmada erigan gazlar metall qotayotganda ajralib chiqib, o`rnida g`ovaklar yuzaga keladi va ushbu quymalar nuqsonlari sharoitga qarab, quymaning ustki qismiga yoki butun sig`imga taralgan holda bo`lishi mumkin.

Kimyoiy jihatdan turli jinslilik, eritmadiagi yoki qotishmadagi qo`shimchalarning quymada notekis taqsimlanish hollari ham bo`ladiki, bu hodisa likvatsiya deyiladi va u tegishli qotishmaning mexanik xossalarni pasaytiradi. Likvatsiya hodisasi suyuq qotishmaning (masalan, po`latning) notekis kristallanishidan kelib chiqadi.

Ayniqsa, po`lat quymalarda uchraydigan yana bir nuqson g`uddalardir. G`uddalar suyuq po`lat qolipga quyilayotganda sachrashi va tomchilar tarzida quymaga yopishib qolishidan hosil bo`ladigan notekislikdir.

Endi yuqorida keltirilgan quymalardagi ba'zi nuqsonlarning oldini olish uchun sanoat miqyosida qo`llaniladigan chora-tadbirlar bilan tanishishni zarur deb hisoblaymiz.

Quymada cho`kish bo`shlig`i hosil bo`lmasligi uchun qolipda pribil deb ataladigan maxsus bo`shliqlar qilinadi. Qolipga suyuq metall quyilganda u qolipni to`ldirib, pribilga o`tadi va cho`kish bo`shlig`i quymada emas, balki pribilda hosil bo`ladi, pribil esa quymadan kesib tashlanadi.

Quymada gaz pufakchalari hosil bo`lmasligi uchun suyuq metallni qolipga quyishdan oldin unga maxsus qaytargichlar, masalan, ferrosilitsiy, ferromarganes, ferroalyuminiy, silikokalsiy qo`shiladi, qolipda gaz chiqish kanallari soni ko`paytiladi, quyish yo`llari to`g`ri tanlanadi, metallning qolipga quyish vaqtidagi harorati to`g`ri belgilanadi.

Quymalarda uchraydigan nuqsonlardan darzlar hamda yoriqlar ko`pincha quymaning notekis sovishidan kelib chiqadi.

Mayda darzlar, yoriqlar, sirti kovakliklar va shu kabilar metallizator yordamida suyuq metall purkash yo`li bilan tuzatilishi mumkin.

Bundan tashqari, quymada ko`p miqdorda metallmas qo `shilmalar shlak, qolip aralashmasi, shuningdek, pech va cho`michning o`tga chidamli qoplamlaridan o`tadigan qo`shilmalar quymaning tuzatib bo`lmaydigan nuqsonlari jumlasiga kiradi.

III.2. Po`latdan sovutilgan va qizdirilgan hollarda tayyorlangan prokatlar va rangli metall-prokatlari. Bolg`alash yordamida egilishga, cho`zilishga buralishga ishlovchi va ko`ndalang kesimi bo`yicha o`lchamlarida farq bo`lgan metall xomashyolar

Shtamplash deb, maxsus shtamplar yordamida bosim bilan ishlov berib murakkab shaklli buyumlar olish usuli tushuniladi. U quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Qizdirib shtamplash. Tanavorni qizdirib, maxsus shtamplarda shtamplab pokovkalar deb yuritiladigan buyumlar olinadi.

2. Portlatib shtamplash. Bunday shtamplashda suyuqlik yoki gaz bosimidan foydalaniladi, tanavor shu bosim ostida matritsa shaklini oladi.

3. Elektr gidravlik shtamplash. Bunday shtamplash portlatib shtamplashga o`xhash bo`lib, zarb to`lqini suyuqlikda hosil qilingan elektr razryadi bilan yuzaga keltiriladi.

4. Sovuqlayin shtamplash. Ko`plab ishlab chiqarish sharoitida po`latdan, rangli metallar va ulaming qotishmalaridan turli metal detallar ishlab chiqarishda shu usuldan foydalaniladi.

Shtamplashda hosil qilinadigan buyumlar (detallar) xalq xo`jaligining turli sohalarida juda keng ishlatiladi. Hajmiy shtamplashning mohiyati shundan iboratki, tanavordan ma'lum shaklli buyum (pokovka) hosil qilish uchun metall asbobning shu buyum shakliga mos bo`shlig`iga suyuq metall bosim ostida to`ldiriladi. Shtamplash uchun ishlatiladigan asosiy asbob shtamp plitalari hisoblanib, ikki (ostki va ustki) palladan iborat. Shtamplar ochiq va yopiq bo`lishi mumkin.

Shtamplar maxsus polatlardan tayyorlanadi va bir ariqcha (paz) li yoki ko`p ariqchali (ko`p pazli) shaklda boiadi. Biror shakldagi buyum (detal) tayyorlash uchun suyuq metall quyilib shtampdagi bo`shliq (ariqcha) lar toldiriladi va tegishli shakl hosil qilinadi.

Shtamplash ham konstruksion materiallarni bosim bilan ishslash usullaridan biri bolib, hosil qilinadigan buyumning shakli, asosan, shtamplash orqali hosil qilinadi.

Bu juda tejamli usul. Materiallarni shtamplashda bug`-havo bolg`alari, taxtali friksion bolg`alar, krivoshipli qizdirish shtamplari (KQSh), gorizontal bolg`alash mashinalari (GBM), friksion presslar va boshqa tuzilishidagi mashinalar ishlatiladi.

Friksion bolg`alar tushuvchi qismining ogirligi 0,5-2 t gacha bo`ladi.

